



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYAT PEDAGOGLARINI YANGI
METODIKALARGA O'RGAТИSH MILLIY
MARKAZI

**"MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH
TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH
DASTURLARI ASOSIDA
INTEGRATSİYALASHTIRILGAN
TA'LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI"**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
Samarqand 2024-yil 30-may



MAY

30

2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYAT PEDAGOGLARINI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**"MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO
BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA INTEGRATSİYALASHTIRILGAN
TA'LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI"**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Samarqand 2024-yil 30-may

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYAT PEDAGOGLARINI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**"MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO
BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA INTEGRATSIYALASHTIRILGAN
TA'LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI"**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
Samarqand 2024-yil 30-may**

Tahrir hay'ati:

A.A.Ibragimov

- Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent, bosh muharrir

M.B.Raximqulova

- Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, tahrir
hay'ati a'zosi

J.X.Shodiyeva

- O'qituvchi, tahrir hay'ati a'zosi konferensiya
koordinatori

G.A.Ergasheva

- Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo

D.T.Rabbonayeva

- Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo

D.J.Jurayeva

- Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zosi
konferensiya koordinatori

H.K.Qoraboyev

- Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo

M.Z.Nigmatova

- Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo

O.X.Tuxtayev

- Katta o'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo

Z.Haqberdiyeva

- O'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo

U.I.Suvankulov

- O'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo

X.K.Ravshanova

- O'qituvchi, tahrir hay'ati a'zo

MUNDARIJA

1-YO‘NALISH. XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING MILLIY TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Kirish so‘zi	7
Rustamova N.X.	Fikr uyg‘unligi-muvaffaqiyat garovi
Xudoyberdiyeva M. E.	9
Allamurotova Sh.A.	MTT larida bolalarni kreativ fikrlashga o‘rgatishning ahamiyati
Muradova B. N.	Ta’limda STEAM yondashuv
Otaqulova Sh. Q.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy asarni tahlil qilish kompitensiyasini shakllantirish
Ro‘ziqukov G. Sh.	Savol berish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish
Usmonova M. F.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish
Xojiyeva M. X.	Boshlang‘ich sinflarda ko‘rik tanlovlari orqali o‘quvchilarda 4k ko‘nikmalarini shakllantirish. (Kamalak yulduzlari ko‘rik tanlovi misolda)
Jo‘raqulova Sh. D.	O‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etishda shakllantiruvchi (formativ) baholashning o‘rni

2-YO‘NALISH

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA) GA TAYYORLASH

Rabbonayeva D. T.	O‘quvchilarni mutolaa madaniyatiga o‘rgatishda pirls tadqiqotining ahamiyat	38
Maxkamova M. A.	Xalqaro baholash dasturi bo‘yicha topshiriqlar tayyorlash	42
Ismoilova Elmira	Boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifatini oshirish	46
Usmanova D. M.	O‘qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish	48

Ro‘ziqulova M. S.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy 52
barkamol inson ruhida tarbiyalashda
ertaklardan foydalanish

**3-YO‘NALISH
FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA
INNOVATSIYALAR**

Ergasheva G.A.

O‘qituvchining kasbiy kompitentligini 55
takomillashtirish yo‘llari

Xoliyev J.N.

Dars samaradorligini oshirishda 58
o‘qituvchinig faoliyati

Boltayeva D.Y.

Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy dars 60
o‘tish usullarining o‘ziga xos xususiyatlari

Faxritdinova F.

Boshlang‘ich sinflarda ilg‘or pedagogik 64
va axborot-kommunikatsiya
texnologiyalaridan dars jarayonida unumli
foydalanish

Ravshanova X. K.

Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida 66
o‘yining ahamiyati

Mamatkulova D.X.

Dars mashg‘ulotlarida tarqatma 72
materiallardan samarali foydalanish

Yuldasheva N. Z.

Boshlang‘ich ta’limda didaktik 75
o‘yinlardan foydalanish

Ibragimova N. B.

Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini 78
o‘qitishning interfaol metodlari

Imomova T. U.

O‘quvchilar tarbiyasida maqollarning 87
o‘ziga xos o‘rni

Rustamova X. I.

O‘quvchilarini mistaqil fikrlashga 90
o‘rgatishda interfaol didaktik o‘yinlardan
foydalanish

Shukurova G.

Boshlang‘ich sinf darslarida didaktik 94
o‘yinlarning ahamiyati

Allayorova N. Ya.

3-sinf o‘quvchilariga “tabiatni asraymiz” 98
bo‘limini o‘qitishda interfaol metod va

Primqulova P. K.

didaktik o‘yinlardan foydalanish

4-YO‘NALISH
BOSHLANG‘ICH TA’LIM YANGI AVLOD DARSLIKLARI BILAN
ISHLASHDAGI MUAMMOLAR

Jonzoqova B. S.	Boshlang‘ich matematika darslarida ko‘rgazmalilikning ahamiyati va uni qo‘llash imkoniyatlari	102
Genjeyeva M. J.	Umumta’lim maktablarining ona tili darslarida unli tovushlar muammosi	108
Nodira B. F.	Boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitishning pedagogik mexanizmlari	112
Haqberdiyeva M. E.	O‘qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish	115
Imomova S. F.	Ta’lim samaradorligini oshirishda darsliklar bilan ishslashning ahamiyati	118
Otamurodova E. M.	Boshlang‘ich sinf ona tili darslariga yangicha yondashishda interfaol usullardan foydalanish	123
Rashidova L. A.	Ona tili darslarida interfaol metodlarning ahamiyati	126
Raximova I. U.	O‘qish savodxonligi darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish	130

5-YO‘NALISH
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA
ULARNING YECHIMLARI

Abduraxmonova I. D.	O‘quvchilar uchun murakkab deb topilgan mavzular bo‘yicha kengaytirilgan dars ishlanma hamda tavsiyalarni yaratish	139
Jo‘rayeva O. S.	Boshlang‘ich sinflarda o‘zlashtirmovchilikning oldini olishga yo‘naltirilgan tadbirlar	142
Suvanova Z. B.	O‘quvchilarning iqtidorini aniqlash va ularni is’tedodini rivojlantirishda pedagogik mahoratning o‘rni	147
Boltayeva D. Y.	Boshlang‘ich sinfda mantiqiy topshiriqlarning o‘rni	150
Bovatova D. Q.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining	153

	nutqini o‘stirishning o‘ziga xos usullari	
Mamatkulova D. X.	Dars samaradorligini oshirishning o‘ziga xos usullari	156
Shayimova S. S.	Boshlang‘ich ta’limda ota-on, maktab hamkorligi, ta’lim tarbiya samaradorligi	159
Suvonova Z. B.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim olishida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish	161
Xotamova M. Z.	Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning imloviy savodxonligini shakllantirish	166
Yuldashova D. X.	Ta’limda didaktik va rolli o‘yin texnologiyalarini qo‘llash	169
Kuchiyeva D. A.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga matematika darslarida ekologik ta’lim-tarbiya berishning didaktik imkoniyatlari	173
Shodiyeva J. X	O‘qish savodxoligi darslarida badiiy asarlar tahlilida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari	176

6-YO‘NALISH

YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KITOB VA MUTOLAANING AHAMIYATI

Allayorova N.Ya.	Boshlang‘ish sinflarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘llari	181
Nematillayeva J. S.	O‘quvchilarni kitobxonlik vositasida ma’naviyatini shakllantirish	186
Maxkamova L. A.	O‘quvchilarni kitobsevarlikka o‘rgatishda kutubxonachining o‘rni	189
Xudayqulova Z. M.		

Kirish so‘zi

Zamonaviy taraqqiyotga erishayotgan mamlakatlarning bosib o‘tayotgan qadamlariga diqqat qilinsa, ilmiy-tadqiqot va boshqa turdagi ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, uni integratsiyalash orqali takomillashtirib borish pedagogik faoliyatda strategik rivojlanishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ta’lim sohasida innovatsiyalarni yaratish, o‘zlashtirish va tarqatish asosida ochiq, moslashuvchan, individuallashgan, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar kirib kelmoqda. Bunday jarayonning jadallashuvida maktabgacha va maktab ta’limining o‘rni juda muhim.

Keyingi paytlarda Respublikamizda maktab ta’limi va umuman, ta’limga doir olib borilayotgan qator islohotlar diqqatga sazovor. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, keng joriylanishi muhim ahamiyat kasb etishi prezidentimiz tomonidan ham bot-bot ta’kidlanmoqda, bu borada aniq talab hamda vazifalar belgilanmoqda. Huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan maktabgacha va maktab ta’limi sohasini rivojlantirishga doir maqsadlarni amalga oshirishda Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi (Pedagogika markazi) tomonidan ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash ta’limning dolzarb muammosi sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan, yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi” deb takidlangan.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli

yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu tadqiqotlarda O‘zbekiston farzandlarining qatnashishlari ham muhim ahamiyat kasab etadi. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

Mazkur “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlari asosida integratsiyalashtirilgan ta’limni tashkil etish masalalari” mavzusida o‘tkazilayotgan maktabgacha ta’lim tashkiloti va umumta’lim maktablari pedagog xodimlari uchun ilmiy-amaliy konferensiya ham maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash masalalarining dolzarb pedagogik muammolarini tadqiq qilishga qaratilgan.

Ushbu ilmiy-amaliy anjumanda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim sohalaridagi muammolar yuzasidan taklif va xulosalar berilishiga ishonaman hamda konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

A.A.Ibragimov

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor*

1-YO‘NALISH

XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING MILLIY TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

FIKR UYG‘UNLIGI-MUVAFFAQIYAT GAROVI

*Rustamova Nilufar Xamrokulovna
Xudoyberdiyeva Munira Egamberdiyevna
Tayloq tuman 17-maktab o‘qituvchilari*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishda o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb, mohiyat, tafakkur, fikr, g‘oya, ta’lim, tarbiya, salohiyat.

“Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas”. Mazkur ibora paydo bo‘lganidan buyon ming yillar o‘tdi. Bu-butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o‘zgarishda yangilanishda deganidir.

Darhaqiaqat, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi. Har qanday yangilanishning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish xususiyati shunday.

Davrlar o‘taveradi, zamonlar almashinaveradi. Bu yorug‘ olamga kelgan har bir odamzod avlodi turli o‘zgarish va yangilanishlar sari boraveradi.

Shunday ekan, har bir inson o‘z kasbi mohiyatidan kelib chiqqan holda, zamon bilan hamnafas yashab, o‘z tafakkurini islohotlar uyg‘unligi bilan yangi fikr, yangi g‘oyalar bilan bog‘lashi lozim.

Alloma bobomiz hazrat Alisher Navoiy ham o‘z zamonasining nidosi va da‘vatini ifoda etgan holda, „Emas oson bu maydon ichra turmoq...” deb boshlanadigan misralarini bejiz bitmagan.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”. Bu o‘z-o‘zidan biz ustozi va murabbiylarning yetarli bilim ko‘nikma va malakalarimiz ko‘rsatkichiga bog‘liq. XXI asr bolasiga ta’lim va tarbiya berishda o‘qituvchining o‘zi ham zarur bilim va ko‘nikmalar bilan quollangan bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi , izlanishini talab qiladi.

XXI asr o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi model- 4 K hisoblanadi. Inson yer yuzidagi jonzotlardan faqat bir jihatni, yangi ong- tafakkuri va fikrlashi bilan ajralib turadi. Fikri niyatiga mos bo‘lsa va maqsadini aniq tushunsa, har bitta odam o‘z taqdirini o‘zgartirishi mumkinligini, har qanday muammoni hal qila olishini tushundim. Muvaffaqiyatning ham muvaffaqiyatsizlikning ham poydevori fikr bo‘ladi.

Nimaga kimdir muvaffaqiyatga erishadi, kimdir esa erisholmaydi? Ayol bo‘lamizmi? Yoki erkak bo‘lamizmi? Onadan bir xil tug‘ilamiz , hammamiz ham nimanidir orzu qilamiz. Lekin birorta ham bola hayotda omadsiz bo‘lishni xohlamaydi. Ammo hayotda shunday bo‘ladi. Inson har qanday voqeylekdan ijobiy tarafni topa olishi kerak.

Aksariyat odamalar maqsadlarga erishishning asosiy omili- ularni qog‘ozga tushirishda deb o‘yaydi. Preston Pugmirening: „Maqsadlarga erishish” qo‘llanmasida: „To‘g‘ri fikrlash-strategiyadan muhimdir” deya ta’kidagan. Maqsadlarga erishish uchun orzu, maqsad hamda ishonch muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz shunday globallashuv va taraqqiyotga asoslangan erkin va farovon davrda, o‘zida yuksak kuch va salohiyatli XXI asr bolasini tarbiyalashimizda, avvalo, bolada to‘g‘ri fikrlash qobiliyatini shakllantirishimiz kerak.

XXI asr o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi model- 4 K hisoblanadi. Bugungi kunda,maktabda o‘quvchini hayotga tayyorash, bu o‘quvchining ehtiyojini inobatga olmasdan tashkil etilmaydigan jarayon. Chunki , o‘quvchining ehtiyojlari , uning qobiliyatları, ta’lim trayektoriyasini samarali qurishga, ya’ni, o‘quvchini o‘qitish emas, uni o‘qishga o‘rgatish, ya’ni,

o‘quvchilarning imkoniyatlarini uning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirish muhim hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda 2023-2024-o‘quv yilida ilg‘or tajribasi yaratilgan yangi darsliklarni o‘quvchi ongiga yetkazish uchun, o‘qituvchidan interaktiv metodlar talab qiladi.

O‘qituvchilar o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni, jumladan, 4 K modeli asosida ularda Kollabaratsiya, Kommunikatsiya, kritik fikrlash va kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu 4 ko‘nikma bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Т.: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.
2. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиши методикаси. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 168 б.
3. Matchonov S., G‘ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – Т.: Yangiyul poligraph service, 2008. – 224 b.

MTT LARIDA BOLALARНИ KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISHNING AHAMIYATI

*Allamurotova Shaxnoza Abduxalilovna
Bulung‘ur tumani 11-DMTT tarbiyachisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlodni kreativ fikrlashga o‘rgatish orqali samaradorlikka erishish, maktabgacha yoshdagi bolalarni kreativ fikrlashga o‘rgatishning usul va vositalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, bola, kreativlik, ijodkorlik, ta’lim, tarbiya, tarbiyachi, o‘yin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaratilgan shart sharoitlar, ushbu tizim uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar, didaktik materiallar va o‘ynichoqlar bilan muntazam ta’minlanib borishining davlat nazoratida bo‘lishi kishini quvontiradi. Maqsad esa bitta bolalarni barkamol tarzda voyaga yetkazish ularni maktab ta`limiga tayyorlash samaradorligini oshirishdir. Maktabgacha yosh - bu o‘zini yorqin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, bolaning ijodkorligini rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi.

Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri “Ijodkor bolani” tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Kreativlik so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “yaratish” degan ma’noni anglatadi. Kreativlik bu o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmuidir.

Kreativlik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangiliklarni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim. Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta’lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o‘qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko‘rib chiqiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning muammosi ko‘pgina pedagog va tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o‘rganilib kelinmoqda. Emebaylning fikricha kreativlik muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish demakdir. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negiizda noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil – mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borsidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va

unga egalikni yuqori baholaydilar. Boshqa ko‘pgina, sifatlar (fazilat) singari kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi.

Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirib boradi. Bolaning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan manashu davrda psixik jarayonlar progressive o‘zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o‘yinlar yordamida amalga oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda rasm chizish, loyihalash, modellashtirish, shuningdek, bolalar faoliyatining o‘yin, dramatizatsiya kabi turlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Shunday qilib, kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi aniq vazifalarni hal qilish kerak:

1. Bolalarning estetik va hissiy tajribasini boyitish, ularning atrofdagi voqelik haqidagi g‘oyalai hajmini oshirish, ufqlarini kengaytirish.
2. Bolalar nutqini, majoziy iboralarni rivojlantirish, so‘z boyligini boyitish.
3. Bolalarda qayta loyihalash, tajriba elementlarini birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish. Bolalarda “inklyuziya” asosida rekonstruksiya qilish kabi operatsiyani shakllantriishga alohida e’tibor beriladi, bu turli xil tasvirlarni yaratish uchun bir xil elementdan foydalanishga imkon beradi.
4. Rivojlanayotgan muhitni ma’lum bir tarzda jihozlash. Bola kelajakdagi ob’ektni tasavvur qilishi, uni tahlil qilish, mavjud tafsilotlar to‘plami bilan solishtirish va qaysi detal yaratilgan ob’ektning alohida qismlarini almashtirishi mumkinligini aniqlashi kerak. Shundan keyingina u elementlarni to‘liq ob’ekt tasviriga sintez qilishni boshlashi mumkin. Bunday vazifalar bolalarda nafaqat fazoviy tasvirlar bilan erkin harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, balki tasavvurni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan harakatning oraliq va yakuniy natijalarini majoziy kutish (oldindan ko‘rish) ga yordam beradi. Keyingi mashg‘ulotlarda bolalarga berilgan geometrik shakllardan o‘zлari xohlagan narsalarni yasash taklif etiladi. Ular

nafaqat o‘zlariga oldingi sinflardan yaxshi ma’lum bo‘lgan narsalarni, balki haqiqiy va fantastik narsalarni ham chizishadi. Shunday qilib, maxsus ta’lim jarayonida barcha bolalar ijodiy konstruktiv muammolarni hal qilishning umumiyligi tamoyillarini shakllantiradilar, kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat bo‘lgan tushunchadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mashg‘ulotlarni oldindan rejalashtirish, pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakillantirish va rivojlanantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga undash, ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi. Tarbiyachining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki mashg‘ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi ularda kreativ salohiyatining boyib borishiga zamin yaratadi.

Tarbiyachining kreativ fikrlash ko‘nikmalari ulardagagi kreativlik qobiliyatini oshirishda harakatga keltiruvchi kuch sanaladi Hozirgi vaqtida inson doimiy o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitda yashamoqda. Bunday tezkor o‘zgaruvchan olamda yashashi uchun, u uzluksiz rivojlanishi hamda moslashuvi uchun yangi sharoitlarga moslashishga yordam beradigan shaxsiy kompetentsiyaga ega bo‘lishi kerak. Hozirgi kunda shunday muhim kompetentsiyalardan biri - kreativ tafakkur, yuqori ijodiy faollik va kreativ xulq-atvordir. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilikka qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirish muammosi juda ko‘p tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o‘rganilib kelinmoqda. P.F.Legaft (1837-1909) ning fikricha, inson hayotining ayni shu bosqichida uning kelgusida qanday xarakter-xislatlar sohibi bo‘lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga chiqadi. Bu yo‘nalishning rivojlanishiga V.N. Druzhinin, A.V. Zaporozhets, A.N. Leontiyev, N.N. Poddyakov, D.B. Bogoyavlenskaya, V.A. Kudryavsev, O.M. Dyachenko, A.M. Matyushkin, K. Heller,

N.S. Leites, J. Guilford va boshqa olimlar o‘z hissalarini qo‘sishgan. Ular o‘z ishlarida kreativlikni boshqa psixik jarayonlardan ajralib turuvchi tafakkurning o‘ziga xos jihatni sifatida ta’rif berganlar. Ular kreativlikni bolalarning shaxsiy fazilatlari va ularning tasavvuri bilan bog‘laganlar. Ijodiy tafakkur va ijodiy tasavvur - insonning ijodiy qobiliyatining muhim tarkibiy qismidir. Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davri, chunki aynan mana shu davrda psixik jarayonlar progressiv o‘zgarishlar (xotira, nutq, diqqat, tafakkur, tasavvur, idrok) kechadi va shaxsiy fazilatlar tezkor rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o‘yinlar yordamida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim muassasalari amaliyotida tarbiyachilarining tarbiyalanuvchilarining ijodiy rivojlanishiga bo‘lgan e’tiborini kuchayganlik tendensiyasi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda metodistlar va psixologlarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri - maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy salohiyatini ochishga yordam beradigan bola bilan shaxsga yo‘naltirilgan - o‘zaro ta’sir o‘tkazish usullarini takomillashtirishdir.

Maktabgacha ta’limga oid psixologik-pedagogik adabiyotlarni va amaliy faoliyatini tahlil qilish maktabgacha ta’limda ijodiy qibiliyatlarni rivojlantirish jarayoni innovatsiya darajaga ko‘tara oladigan, o‘z ichiga maktabgacha yoshdagi bolalarni kreativlikni to‘liq qamrab oluvchi ta’limiy dastur kerak. Ta’lim va tadqiqot muassasalari tomonidan o‘tkazilgan oxirgi tadqiqotlar, hozirgi zamon bolalarining psixofiziologiyasida, ruhiyatida, shaxsiy fazilatlarida sifat o‘zgarishlari yuqori o‘ringa egaligi kuzatilishi aniqlandi. Xususan, bolalarda tasavvur, qiziqish, ijodkorlikning keskin pasayib ketganligi qayd qilingan. Olimlardan D.Veksler, A.Maslou kreativ qobiliyat tabiatini va uni inson hayotida rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishgan, ular tomonidan ishlab chiqilgan kreativ tafakkurni aniqlash yuzasidan ishlab chiqqan metodika hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, yana bir Amerikalik psixolog olim Dj.P.Gilford o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotoba taqqoslagan. Pol Torrens kretiavlikni tafakkur terminlarida ta’riflagan va bolalar kreativligini shakllantirish dasturini hamda yosh

bolalarda kreativlikni aniqlash testlarini yaratgan. O‘zbek olimlaridan E.G‘oziyev, P.Sunnatova, Z.Nishonova tafakkur psixologiyasi, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash psixo-fiziologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berishga katta hissa qo‘sishgan. Rossiya psixolog olimlari O.Tixomirova, L.A.Venger, L.S.Vigotskiy tomonidan tafakkurni o‘ganish ustida tadqiqotlar olib borilgan. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e’tibor qaratish zarur: ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash; bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sinqilik qiladi: o‘zini tavakkaldan olib qochish; fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘polikka yo‘l qo‘yish; shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi; boshqalarga tobe bo‘lish; har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash. Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi: Savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid ma’lumotlarga e’tiborsiz bo‘lmaslik; Muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizzxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b.
2. Urinova Feruzakhon Uljaevna. Botirova Zuhra Abdurahmonova, Mirjalol Turgunov Mirzahamdam ugli. NECESSARY CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities. ISSN: 2795-4846 Vol. 4 (2022). <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh>
3. Usmonova Shaxnoza. Comparative Study of Cosmonims(Sun, Moon ...) In Uzbek and English. In volume 7, of Eurasian Journal of Humanities and SocialSciences April, 2022 . ISSN (E): 2795-7683. JIF: 7.925

TA’LIMDA STEAM YONDASHUV

*Muradova Barno Nigmatovna
Kattaqo ‘rg‘on shahar 17- IDUM o‘qituvchisi*

Annotatsiya. STEAM ta’limi texnologiyasi tabiiy fanlar, texnologiya, tasviriy san’at, matematika fanlari asosida o‘quvchilarni o‘qitish metodikasi bo‘lib, o‘quvchida amaliy mashg‘ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunda fanlarning o‘zaro uyg‘un holda yozilgan o‘quv dasturlari bir-birini to‘ldiradi va birgalikda o‘quvchida yaratuvchanlik qobiliyatini hosil qiladi.

Kalit so‘zlar: Akt, STEAM tizimi, texnologiya, yondashuv, loyiha ishi, an’anaviy ish

STEAM o‘qitish texnologiyasi ta’limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o‘zaro mutanosib holda olib borishni ta’minlab beradi. Bunda o‘quvchi o‘zida nostandard fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo‘l keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga ko‘ra, innovatsion ta’lim jarayoniga o‘tish , zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda intensiv til ,AKT va ta’lim berishning yangi metodlarini o‘rganish, STEAM fanlarni joriy qilish jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish layoqatlarini shakllantiradigan dasturlar va yangi davlat ta’lim standartlari joriy etilishi belgilanib olindi.

STAEM ta’limining afzalliklari :

-O‘quvchilarda ilmiy madaniyatni tarbiyalash mavzular bo‘yicha emas , balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan mashg‘ulotlar;

- olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llash;

- o‘ziga ishonchni shakllantirish;
- o‘zi turgan olamda yo‘nalish olish ko‘nikmalarini egallash;
- shaxsiy kognitiv , axloqiy ,hissiy fazilatlarni rivojlantirish ;
- o‘quvchilarda tabiiy - ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- o‘quvchilarining kognitiv qiziqishini, ularning fikrlash faoliyatini rivojlantirish,darsda va darsdan keyin faol mustaqil ishlash istagini oshirish;
- o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalg qilish;

Umumta’lim maktablarida sinf dars tizimidan loyihaviy faoliyatga tomon o‘tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko‘chirish, ularni amaliyotda faol qo‘llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, kesishmasida muammolar yechimining yangicha yo‘llarini izlash, lozim topilsa kashf etishga yo‘naltirish kabi vazifalarni qo‘yadi.

An’anaviy	Loyihali ta’lim
Faollik urg‘usi o‘qituvchisiga beriladi	Faollik urg‘usi o‘qituvchiga beriladi
O‘qituvchi boshqaradi	O‘z –o‘zini boshqarish
Tinglab,eslab qoilng,qaytaring	Biling,qo‘llang,taqdim eting
Mustaqil	Hamkorlik
O‘qituvchi qaror qabul qiladi	O‘qituvchi va o‘quvchi qaror qabul qiadi
Atama va faktlarni biladi	XXI asr malaka va ko‘nikmalari
To‘g‘ridan to‘g‘ri ta’lim	Ta’limning turli usul va shakllari
Aniq maqsad asosida qisqa darslar	Uzoq muddatli tadqiqot
Sinf dars tizimi	Aniq vaziyat real sharoitlarda qo‘llash
Testlar	Refleksiya

STEAM bolalarda ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi: ijodiy fikrlash, muxandislik yondashuvi, dizayn, matematika, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, loyihalash ishlarini bajarish, kelajakda o‘zlarini hayotiy muammolarini hal etishda yordam beradi. Ko‘pgina chet davlatlarida, Jumladan Finlyandiya maktablarida

bolalarni qobiliyatini, ishtiyoqlarini rivojlantirishda mazkur usuldan samarali foydalanishar ekan.

STEAM tizimi nima ? STEAM – inglizcha qisqartma bo‘lib, S – Science, T – tech, E – engineering, A – art va M – mathematics so‘zlari o‘zbek tilida «tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san’ati, ijodkorlik, matematika» degan ma’noni anglatadi. Aynan mana shu fanlar zamonaviy ta’limda eng dolzarb fanlar bo‘lib kelmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda STEAM ta’lim tizimi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi fanlararo va amaliy yondashuvdan foydalanishga hamda beshta fanni yagona o‘qitish sxemasi uyg`unlashuviga asoslangan.

Yondashuvining asosiy yutuqlari tahlili

- Tabiiy fanlar texnologiyalar, muhandislik, san’at va matematikaning integratsiayisi
- Ilmiy - texnik bilimlarning real hayotda qo‘llanilishi
- O‘z kuchiga ishonch va iordaning shakllanishi
- Faol muloqot va jamoaviy ish
- Loyihalarda kreativ va innovatsion yondashuv
- Texnik fanlarga qiziqish
- Ta’lim bilan fan o‘rtasidagi ko‘prik
- Bolalarning hayotdagi innovatsiyalarga tayyorligi

Adabiyotlar ro‘yxati

1. K.T. Suyarov va boshqalar. Tabiiy fanlar .O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021 yil
2. Avezov M.M. *Tabiiy fanlar. 2-sinf* mashq daftari (o‘quv qo‘llanma). January 2023. Publisher: Respublika ta’lim markazi
3. Elektron ta’lim resurslari
 1. <http://www.multimedia.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markaziy sayti.
 2. <http://www.edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portal

3. <http://centeroko.ru> – Rossiya ta’lim akademiyasining Ta’limni rivojlantirish strategiyasi instituti Ta’lim sifatini baholash markazi veb sayti.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BADIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPITENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

**Otaqulova Shaxnoza Qayumovna
Urgut tumani 101- mакtab o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari aks ettirilgan. O‘qish savodxonligi darslarida va sinfdan tashqari o‘qish darslarida badiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishning o‘ziga xosligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: PIRLS tadqiqoti, ta’lim, badiy asar tahlili, kompetensiya, individual yondoshuv, dars, sinfdan tashqari o‘qish, o‘qish savodxonligi, samaradorlik, natija.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarorida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 5712-sont Farmonida 2030-yilga kelib, xalqaro tadqiqotlar doirasida reyting bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarining o‘qish, matematika va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o‘quvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy

innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat ta‘lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

PIRLS-(Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu tadqiqotning maqsadi esa, dunyoning turli mamlakatlarida tahsil oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matnni o‘qish va tushunish darajalarini taqqaslovchi, shuningdek, mamlakatlar milliy ta‘lim tizimida o‘qish savodxonligi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni taqqoslashga moslashgan xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi.

Mazkur xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish o‘quvchidan o‘qish savodxonligiga erishishni, matnni ongli o‘qish bilan birgalikda, tahlil qila olish, mantiqiy mulohaza yuritib o‘z munosabatini bildira olish kabi xususiyatlarni talab etadi. Ushbu vazifalarni samarali hal etish esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishslash va badiiy asarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ijobjiy hal etiladi.

Vazirlar Mahkamasining “Umumiyl o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan umumiyl o‘rta ta’limining davlat ta’lim standartida belgilab berilgan “Umumiyl ta’limning poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga keng dunyoqarash, aqliy kamolotga erishish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmog‘i lozim”[1.15] ekanligi belgilab berilgan.

Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish savodxonligi” fanining o‘quv dasturida fanga oid kompetensiya sifatida adabiy nutqiy kompetensiya bilan birgalikda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Badiy asarni tahlil qilish kompetensiyasining mazmuni esa 3 va 4- sinflarda o‘qish savodxonligi

darslarining kattagina qismi asarni o‘qish va matn ustida ishlashga qaratiladi. Suhbatlar, hikoya qilishlar, dastlabki o‘qishlar o‘qilgan matnlar mazmuni bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi, mavzuga qiziqish uyg‘otishi, o‘quvchilarni his-hayajon bilan o‘qishga tayyorlashi va asarni to‘g‘ri tushunishga yordam berishi zarur.

Darsda o‘quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo‘lib o‘qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og‘zaki hikoya tuzdirish kabi ijobjiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

4- sinfda badiiy asarni tahlil kompetensiyasining mazmuniga dars jarayonida keltirilgan xalq qo‘sishlari, ertak, topishmioq, tez aytish, maqol, masal, rivoyatlar asosida o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish va ularga baho berish, o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish va matndagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nolarini tushuna olish va izohlay olish, xalq og‘zaki ijodi namunalari va boshqa asarlarni bir-biridan farqlay olish kiritilgan. Darslikka kiritilgan “Vatanimiz o‘tmishidan” nomli bo‘limning mazmuniga kiritilgan mavzular bo‘yicha shakllantiriladigan badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasining mazmuniga o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata olish va ularga baho bera olish, o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera olish va matndagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nolarini izohlay olish kabilar kiritilgan.

O‘qish savodxonligi darslari orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda sinfdan tashqari o‘qish darslari ham keng imkoniyatga ega. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari ikki haftada bir marta o‘tkaziladi va o‘qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy – adabiy asarlar mustaqil ravishda va izchil o‘qib borilsa, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish, tanish bo‘limgan muallifning kitoblari, muqovasi, titul varag‘i, kirish so‘zi, mundarijasi va rasmlariga qarab asarning taqvimiylarini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bolalarga ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy – estetik tafakkurini yuksaltirish o‘qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

O‘qish darslarida badiiy asar tahlili ustida ishlashni tizimli yo‘lga qo‘yish orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi shakllantiriladi. Bu esa pedagoglar zimmasidagi mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, intellektual jihatdan taraqqiy etgan, hayotiy kompetensiyalari shakllangan yosh avlodni tarbiyalashdek dolzarb vazifani ijobiy hal qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich ta’limdan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – T.: RTM, 2017. – 215 b.
2. Shodiyeva Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. – T.: O‘qituvchi, 2008. – 304 b.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi (Umumiy o‘rta ta’lim maktabalarining 4-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017/2020. – 216 b/160 b.

SAVOL BERISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH

*Ro‘ziqurov G‘ofur Shukurovich
Nurobod tuman 21-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda savol berish ko‘nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod, va vositalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, savol berish, natija, samaradorlik, savol darajalari, kommunikativ yondashuv.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarda tilga oid amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan

birga o‘quvchilar egallagan ko‘nikmalarini kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarda qo‘llashlari bilan bog‘liq fundamental bilimlar, tanqidiy fikrlash, kreativlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlay olish bilan bog‘liq murakkab masalalarni hal qila olish ko‘nikmalari, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, maqsad sari intilish, moslashuvchanlik, liderlik, ilmiy xabardorlik bilan bog‘liq shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga olib keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qanday qilib yuqorida ta’kidlangan vazifalarning samarali yechimiga erishish mumkin? Albatta bu masalada o‘quvchida mustaqil, to‘g‘ri savol berish ko‘nikmasini rivojlantirish hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida eng ko‘p vaqt oladigan va eng ko‘p bilim beradigan vosita bu savollar hisoblanadi. Sal mubolag‘a bilan aytganda, savollarning qanday bo‘lishi o‘quvchi tafakkurining qay darajagacha rivojlanishini belgilab beradi.

AQSHda o‘qituvchilarning savol berishiga oid ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. 1980-yilda pedagog olimlar Leven va Long 1912-yilda AQSH o‘qituvchilari maktab kunining 80% izini savollar berish va ularga javob kutishga sarflashganini aniqlashgan. Vilenning 1991-yilda e’lon qilgan tadqiqoti esa o‘quvchilarga beriladigan savollarning aksariyati quyi kognitiv darajadagi (o‘quvchidan quyi tafakkur darajasini talab qiladigan) savollardan iborat bo‘lib, ular, asosan, ma’lumotni eslab qolganlik darajasini tekshirishga qaratilgan hamda yuqori kognitiv darajani qamrab olmaganligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchining savol berishi va savollarni tanlashi darsning samarasini ham belgilab beradi. Savollarning samarali bo‘lishi o‘quvchi tomonidan ma’lumotning samarali o‘zlashtirilishini ham ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida amaliy ko‘nikmlalarni, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga ko‘ra savollarni quyidagi turlarga ajratib tasniflash mumkin:

- quyida darajadagi;
- yuqori darajadagi;
- konvergent;
- divergent.

Quyi darajadagi savollar o‘quvchidan bitta fakt yoki ma’lumotni eslab qolishni talab etadi. Yuqori darajadagi savollar esa eslab qolishdan tashqari vaziyatni, mavzuni, qo‘yilgan muammoning yechimini tushunganligini ham ko‘rsatib berishni so‘raydi. Bundan tashqari, yuqori darajadagi savollar o‘quvchidan faktlar va ma’lumotlar o‘rtasidagi aloqani hamda ana shu fakt va ma’lumotlarning vaziyatga aloqadorligini anglashni talab etadi.

Quyi va yuqori darajadagi savollarning qiyosi:

Quyi darajadagi savol. Ushbu tasvirdagi ayiqning rangi qanday?

Bu savol o‘quvchining rangni tanish va uning nomini bilishini aniqlashga qaratilgan. Javoblarning diapazoni juda ham tor (oq, qo‘ng‘ir, qora, jigarrang).

Yuqori darajadagi savol. Nima uchun ayiqni bunday rangda deb o‘ylaysiz?

Bu savol o‘quvchidan rangni tanish va nomini bilishini talab qiladi, lekin bunda o‘quvchi ayiqning rangini boshqa narsalar bilan (yashaydigan muhit, boshqa ayiqlar, hayvonlarning boshqa turlari, oziq-ovqati) munosabatini (aloqasini) ham ko‘rib chiqishi ham kerak bo‘ladi.

Konvergent savol bu o‘quvchini muammoning yagona va aniq javobini topishga qaratilgan fikrlashni shakllantirishga olib keladi. Konvergent fikrlash muhim ijodkorlikni talab qilmaydigan standart savollarga “to‘g‘ri” javob berish qobiliyatini anglatadi, masalan, mактабдаги ко‘рнига vazifalarda va standartlashtirilgan [ко‘п танловли тестлар](#)дан aniq javobni topishga yo‘naltirilgan savollar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savollar yordamida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda darslarni tashkil etishda, to‘g‘ri savol berish ko‘nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv ham alohida ahamiyatga ega.

Mazkur yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatishdir. Shuning uchun har bir mavzu uchun alohida vaziyat beriladi va shu vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi. Hayotiy ko‘nikmalar ma’lum bir nutqiy mazvular doirasida amaliy yo‘naltirilgan holda shakllantiriladi. Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda faqat yozma matn bilan cheklanib qolinmaydi. Tilning og‘zaki va yozma shaklidan darslar davomida

baravar foydalaniladi. Mayjud an'anaga ko'ra ona tili o'qitishda yozma matn asosiy o'rinda turadi, og'zaki nutqqa alohida e'tibor qaratilmaydi. Vaholanki, insonning birlamchi til ko'nikmasi og'zaki nutqdir. Og'zaki nutqni rivojlantirish tilning qolgan shakllarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq bilan ko'p ishslash og'zaki nutqni o'z-o'zidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va og'zaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtaga birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali ta'minlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida e'tibor berish zarur.

Og'zaki nutqni turli ko'rinishlarda – monolog, dialog, suhbat, bahs-munozara shakllarida to'g'ri tushunish ko'nikmasiga e'tibor qaratiladi.

Og'zaki nutqni tushunishda og'zaki nutqning turli ko'rinishlarini hisobga olish insonning tushunish qobiliyatini charxlaydi: o'quvchi nutqning turli qirralariga e'tibor qilinishni o'rganadi. Tilga oid qoidalar zaruriy holatlarda izohlab o'tiladi va amalda qo'llanishi birinchi o'rinda bo'lgani uchun qoidani o'zlashtirish samaraliroq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish samaradorligini rivojlantirishda, ularda mantiqiy tafakkurning shakllantirishda, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishda, o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishda to'g'ri savol berishga o'rgatish orqali kafolatli natijaga erish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ona tili. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. T.: 2020. 170 b.
2. Baholash nazariyasi asoslari. [Matn]/ Komil Jalilov.- T.: Akademnashr, 2020.- 256 b.
3. O'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun . – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

*Usmonova Marhabo Fayzullayevna
Nurobod tumani 21-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda darslarni tashkil etishning o‘ziga xos samarali jihatlari sharhlangan. O‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik - shart sharoitlari o‘rganilgan. O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini takomillashtirishda ijodiy topshiriqlardan foydalanishning shakl, metod va vositalari asoslab berilgan. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlardan foydalanishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, pedagogik hamkorlik, ijodiy topshiriq, tarqatma material, testlar, savollar, samarali natija.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida xalq ta’limini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Farmonda “...kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish zarurligi takidlangan. Mazkur vazifani samarali hal qilishda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

O‘qish savodxonligi – shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir¹.

O‘qish savodxonligi bir qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. Jumladan, alohida olingan so‘zning ma’nosini tushunishdan tortib, matnning

¹ Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiysi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

grammatik va lingvistik qurilishini anglash hamda matndan olingen ma’noni o‘zining olam haqidagi tasavvurlari bilan bog‘lashni o‘z ichiga oladi. U metakognitiv kompetensiyalarni, ya’ni matn bilan ishslashda kerak bo‘ladigan turli strategiyalarni bilish va ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni ham o‘z ichiga oladi. Metakognitiv kompetensiyalar o‘quvchi fikrlaganda, kuzatganda va o‘zining o‘qish mashg‘ulotini ma’lum maqsadga yo‘naltirganda faollahadi.

“Savodxonlik” atamasi biror shaxsning o‘rganish, foydalanish, yozilgan va nashr etilgan ma’lumotni yetkazish kabi salohiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, bu atama, odatda, shaxsning ma’lum bir fan yoki sohaga oid bilimini anglatadi. Mazkur ta’rif “O‘qish savodxonligi” atamasini yoritib berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘plab vaziyatlarda va turli maqsadlar uchun o‘qishning faol, maqsadli va qulay shaklini ifodalash fikriga mos keladi.

O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilina digan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir².

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri bu dars jarayonida ijodiy topshiriqlardan maqsadga muvofiq foydalanishdir. 1-2- sinflarda milliy o‘quv dasturi asosida joriy qilingan o‘quv fanlaridan ishlab chiqarilgan o‘quvchi daftari yoki tarqatma topshiriqlar shakllantiruvchi baholashda eng qulay vosita hisoblanadi. O‘quvchi daftari yoki tarqatma topshiriqlar quydagи xususiyatlarga ega:


1. Darslik asosida tuziladi va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi
2. O‘z navbatida darslikdan mustaqil bo‘ladi, dasturda nazarda tutilgan malakalarni shakllantirish uchun qo‘srimcha vosita ham bo‘la oladi.
3. Tarqatma shaklidagi topshiriqlar har bir o‘quvchiga moslab ishlab chiqilishi ham mumkin.

² Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

O‘quvchilarda o‘quv savodxonligini rivojlantirish uchun tuziladigan ijodiy topshiriqlar:

- Qisqa javob talab qiluvchi savol
- Bo‘s sh o‘rnlarni to‘ldirish
- Muqobil javobli test
- To‘g‘ri/Noto‘g‘ri
- Moslashtirish
- Ko‘ptanlovli test

Bulardan tashqari turli grafik chizmalar, xaritalar, boshqotirma shakllari, diagrammalar, jadvallarni ham qo‘llash mumkin.



1- rasm. Ijodiy topshiriqlarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Tarqatma topshiriqlarni tayyorlashda quyidagi ketma-ketlikka amal qilish tavsiya etiladi:

- O‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan ko‘nikma(lar) aniqlanadi;
- Ko‘nikmani egallashi uchun o‘quvchi bajarishi kerak bo‘lgan vazifa va topshiriqlar belgilanadi;
- Vazifa va topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar yakka, juftlikda yoki guruh bo‘lib harakat qilishlari mumkin. Shulardan biri tanlanadi;
- Topshiriq va savollar ishlab chiqiladi;

- Topshiriq va savollarni ishlab chiqishda o‘quvchilarning turli bilim darajasini hisobga olishning imkoniyati ko‘rib chiqiladi;
- Tezroq bajarib qo‘yish mumkin deb qaralsa, asosiy savol va topshiriqlarga qo‘sishma topshiriqlar ham kiritiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini tizimli ravishda shakllantirib borish orqali yuqori darajada o‘qish savodxonligiga erishish mumkin.

O‘qish savodxonligi o‘quvchining keyingi ta’lim bosqichida o‘qishga tayyorligini ko‘rsatadi. Bunday o‘quvchilarga badiiy va axborot matnlarining xabarlarini tushunish va baholash uchun deyarli yordam kerak emas. Yuqori darajali o‘quvchilar yozma ravishda yetkazilgan yangi ma’lumotlar, fikrlar, tajribalar yordamida o‘z tajriba va bilimlarini kengaytirish va o‘zgartirishga imkon beradigan o‘qish komponentlarini o‘zlashtirishga tayyor bo‘ladilar.

Faydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

3. Марасурова У. Умумтаълим мактабларида ўқувчиларнинг адабий-назарий тушунчаларини шакллантириш ва такомиллаштириш. Пед.фан.номз. дисс. –Т.: 2007. – Б 25-26.

4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariyev SH. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Т.: Noshir, 2009. – 424 b.

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KO‘RIK TANLOVLAR ORQALI
O‘QUVCHILARDA 4K KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

(Kamalak yulduzlari ko‘rik tanlovi misolida)

*Xoziyeva Munira Xolboyevna
Isroilova Muhabbat Abduvaliyevna
Bulung‘ur tumani 34-maktab o‘qituvchilari*

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinflarda ko‘rik tanlovlар orqali o‘quvchilarda 4k ko‘nikmalarini shakllantirishning turli usullari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘z: tarbiya, ta‘lim, ko‘nikma, tanlov, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash.

Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlарimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma’lumotlarni oladilar. Maktab yoshlарining dunyoqarashlariga poydevor hamda g‘oyaviy e’tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxtsaodati yo‘lida sidqi dildan mehnat qilishga taayyorlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020 yil 23.09) ta’lim tizimining buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi. Hozirgi zamon maktabi tubdan yangilanmoqda.

O‘quvchilarga tarbiya berish, ularga ta’lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o‘z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari bor. O‘quv tarbiyaviy jarayon uzviyligi maktab oldiga qo‘yilgan ehg muhim pedagogic qoidalardan biri hisoblanadi, shunig uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o‘quv jarayoni bilan bog‘langandir. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarda asosiy vazifalari bo‘lmish ilm olishga ishtiyoq uyg‘otish, qobiliyati va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratishdan maktabni muvaffaqiyatli tugatish, kasb-korga intilish hissini tarbiyalashdan iboratdir.

Yoshlarning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qondirib bo‘lmaydi. Sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog‘I lozim. Har bir o‘quvchi bilan yakkama-yakka ishlash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o‘rganish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olb kiradi.

Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta‘lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgani holda o‘ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta‘lim – tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o‘xhash emas. Ta‘lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir.

Boshlang‘ich ta’lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e’tibor talab etadi.

Uzluksiz ta’limning asosi hisoblangan boshlang‘ich ta’lim jarayonida XXI asr ko‘nikmalari hisoblangan 4K ko‘nikmalarini shakllantirish va uni muntazam ravishda rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarning dars mashg‘ulotlarida 4K ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari keng hisoblanadi.

4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:



Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.


Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Kreativ fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.



Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

4K: kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash ko‘nikmalari boshlang‘ich sinflarda balki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, tadbirlarda, badiiy kechalarda, ko‘rik tanlovlarda shakllantirish mumkin. Buni biz “Kamalak yulduzları” ko‘rik tanlovi orqali ham ko‘rib chiqishimiz mumkin.



1- Chizma.“Kamalak yulduzları” ko‘rik tanlovi yo‘nalishlari.

Mazkur tadbir orqali o‘quvchilarda kreativlik (ijodkorlik), kritik fikrlash, mantiqiy tafakkur kabi xususiyatlar shakllanadi.

Mazkur tadbirlardan ko‘zlangan maqsad, avvalo, mamlakatimizda Istiqlol yillarida inson manfaatlari yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar va

bunyodkorlik ishlarining mazmun-mohiyatini mehnatkashlarga, ayniqsa, yoshlar ongiga yetkazish, ular qalbiga shukronalik tuyg‘ularini singdirishdir.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda ko‘rik tanlovlarning o‘rni beqiyostir. “Kamalak yulduzları” ko‘rik tanlovi orqali ishtirokchi o‘quvchilarda quyidagi ijobjiy xususiyatlар shakllanadi:

- o‘quvchilarning turli faoliyat turlariga qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatları va imkoniyatlarini aniqlash;
- har bir bolaning mактабдан tashqari mashg‘ulotlarning tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha rivojlanishi uchun sharoit yaratish;
- o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari tizimini shakllantirish;
- bolalarning ijodiy faoliyati tajribasini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; - bolalar tomonidan olingan bilim, ko‘nikmalarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish;
- 4K ko‘nikmalarini shakllantirish kabi natijalarga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qorayev S.B., Janbayeva M.S. “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish”. Academic research in educational sciences.
2. Allayorova S.B. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari”. Academic research in educational sciences
3. M. Tilakova, S. Qoraev. “Recommendations for students’creative ability development”. Academic Research in Educational Sciences, 1(4), 184-189.
4. Tilakova M.A. “O‘quvchilar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar”. Academic research in educational sciences.

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHAKLLANTIRUVCHI (FORMATIV) BAHOLASHNING O‘RNI

*Jo ‘raqulova Shaxrixon Donayevna
Paxtachi tumani 32- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining tuzilishi va mazmuni haqida ma’lumot berilgan. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etishda shakllantiruvchi baholashning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Mavzu yuzasidan xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, baholash, shakllantiruvchi baholash, malaka talablari, natija, individual yondashuv, samaradorlik.

O‘quv jarayoni davomida o‘quvchilarning o‘zlashtirish sifatini baholab borish. Shakllantiruvchi baholash o‘quvchining o‘quv dasturida berilgan materiallarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash hamda o‘quvchi kutilgan natijaga erishishi uchun tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Shakllantiruvchi baholash o‘qituvchiga o‘quv jarayonidagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va keyingi rejalarini shu asosda tuzish imkonini yaratadi.[1.204] Ushbu baholash turi o‘quv dasturi, o‘qituvchi hamda o‘quvchining o‘zaro aloqasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shakllantiruvchi baholashning asosiy maqsadlari:

- muntazam ravishda sinfda o‘quvchini baholab borish orqali u qaysi bilim, ko‘nikma, malaka yoki kompetensiyalarni yaxshi o‘zlashtiryotgani yoki o‘zlashtirmayotgani, nimalar ustida ishlashi kerakligi haqida ma’lumot beriladi;
- biror bir mavzu oxirida nazorat ishi olish orqali o‘qituvchi o‘quvchilari shu mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklari, qanday xatolarga yo‘l qo‘yayotganlari haqida ma’lumot olishi va lozim bo‘lsa, o‘tilgan mavzuga yana qaytishi mumkin;
- o‘qituvchi o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasini aniqlash maqsadida test o‘tkazishi va olingan ma’lumotlar asosida keyingi qadamlarni rejalashtirishi yoki o‘quvchilarni guruhlarga ajratishi mumkin.

Shakllantiruvchi baholash xulosalovchi baholashdan farqliravishda bevosita o‘qituvchi tomonidan, asosan, norasmiy shakllarda(kuzatish, og‘zaki savol-javob qilish, kichik hajmli testlar olish, yozma ishlar) o‘tkaziladi.

Shakllantiruvchi baholash jarayonidan olingen xulosalar asosida o‘qituvchi yoki ta’lim muassasasi ta’lim jarayoniga zarur deb hisoblangan o‘zgartirishlarni kiritadi.

Shakllantiruvchi baholashdan keyin o‘quvchilarga har doim tahliliy fikr-mulohazalar beriladi.

Shakllantiruvchi baholash, asosan, kuzatish va natijalarni qayd etib borishga asoslanadi, ya’ni ushbu baholashda jurnalga baho qo‘yish talab etilmaydi.

Shakllantiruvchi baholash – bu o‘qituvchilarni ham, o‘quvchilarni ham o‘quv jarayonining keyingi bosqichlariga yo‘naltirishga mo‘ljallangan baholash. Xulosalovchi baholashdan farqli o‘laroq shakllantiruvchi baholash aniq xulosa chiqarish xuxusiyatiga ega emas.[1.206] Xulosalovchi baholash deganda yakuniy imtihonlar, bitiruv yoki qabul imtihonlari, standartlashtirilgan testlarni tushunamiz. Aslida har qanday baholash shaklini shakllantiruvchi sifatida qabul qilish mumkin.[3.98] Lekin yuqorida sanab o‘tganlarimiz o‘qituvchilar yoki biror yuqori tashkilotga o‘quvchilarni saralash, ajratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shakllantiruvchi hamda xulosalovchi baholashning o‘zaro farqi ularning natijasidan qanday foydalanishdagina aniq ko‘zga tashlanadi.

Yana bir farq o‘quvchilarning shakllantiruvchi baholashga munosabatida ko‘rinadi – o‘quvchilar ushbu jarayonda olingen baholarni “hisobga olinmaydigan” baho deb hisoblaydilar. Aynan mana shu sabab o‘quvchilar unga kamroq hayajon, bezovtalik va raqobat kuchi bilan yondashadilar. Buning yomon tomoni ham bor – o‘quvchilar “hisoblanmaydi-ku” degan o‘y bilan shakllantiruvchi baholashga umuman e’tiborsiz qarashlari ham mumkin.[2.80] Ta’lim tizimimizga singib ketgan bir qarash mavjud – o‘quvchilar baho kundalikka yoki baholar jurnaliga qo‘yilsagina unga nisbatan jiddiy yondashishadi. Bu bizni baholash jarayonimizni o‘zgartirishdagi eng tashvishiga soladigan holatdir.

Shakllantiruvchi baholash kuzatish vositasi, xulosalovchi baholash esa aniq baho bilan tugaydigan jarayondir. Bu ikki baholashning farqini tushunish uchun biz umumta’lim maktablaridagi baholashga bo‘lgan munosabatimizni o‘zgartirishimiz lozim.[3.98] Testga yoki baholashga klassik yondashuv shundayki, baho o‘quv jarayonini yakunlash (o‘quv jarayoni deyilganda biror bilim, ko‘nikma, malakani o‘rganish jarayoni nazarda tutilmoqda) vositasi deb qaraymiz.

Shakllantiruvchi va xulosalovchi baholashning farqlari

Shakllantiruvchi baholash	Xulosalovchi baholash
Baholash jarayonidagi savollar o‘quvchilarda avvaldan mavjud bo‘ladi	O‘quvchilar savollarni baholash jarayoni davomida oladilar
Ajratilgan vaqt moslashuvchan	O‘quvchi ajratilgan vaqt mobaynida bajarishi lozim
O‘qituvchi izoh-mulohaza bildirish, harf yoki raqam ko‘rinishidagi bahoni qo‘yish bilan xulosalaydi	O‘qituvchi harf yoki raqam ko‘rinishidagi aniq bir baho bilan xulosalaydi
Baho o‘quv jarayonini qanday tashkil qilishni (davom ettirishni) aniqlash uchun xizmat qiladi	Baho o‘quvchilarni ajratish yoki saralash uchun xizmat qiladi
Yaqinda yoki hozirgina o‘tilgan mavzu/bilim va ko‘nikma yuzasidan o‘tkaziladi	O‘quvchi shu paytgacha o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan barcha bilim va ko‘nikmalarni qamrab oladi
Test yoki topshiriq moslashuvchan bo‘la oladi	Test yoki topshiriq ma’lum qolipdan tashqariga chiqmaydi
O‘quvchi o‘zini o‘zi baholashi mumkin	Imtihon o‘qituvchi yoki biror tashkilot tomonidan o‘tkaziladi
Kelgusi ta’lim uchun erishiladigan maqsadlarni belgilaydi, kuzatib borish imkonini beradi	Kuzatib borish imkonи mavjud emas, “o‘tgan narsa o‘tib bo‘ldi” yondashuvi amal qiladi
Natijalar kundalik, rasmiy baholar jurnali yoki tabellarda aks etmaydi	Natijalar hisobot ruhida barcha rasmiy joylarda ko‘rsatiladi

Baholash o‘quvchilarning o‘quv jarayonida olingan natjalarni qayd etish va baholashning tizimli jarayoni. Shunday qilib, baholash maktab dasturida belgilangan ta’lim maqsadlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Boshqa tomonidan, baholash turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin: testlar (yozma yoki og‘zaki),

maqolalar yoki monografiyalar orqali, shuningdek, o‘quvchilarning sinfdagi ishtirokini va boshqalarni hisobga olgan holda.

Shakllantiruvchi baho – o‘qitish jarayoni bilan bir qatorda muntazam ravishda va doimiy ravishda ishlab chiqiladigan baholash jarayoni, o‘quv yili davomida o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘quv jarayonlarini takomillashtirish maqsadida o‘qitish strategiyalari va didaktik faoliyatlarini qayta tuzish yoki qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi.[1.242] Shu ma’noda, shakllantiruvchi baho - bu rivojlanish va takomillashtirish maqsadida ta’lim jarayonlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beradigan jarayon.

Adabiyotlar ro‘yxati:

5. Baholash nazariyasi asoslari. [Matn]/ Komil Jalilov.- T.: Akademnashr, 2020.- 256 b.
6. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
7. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.

2-YO‘NALISH

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA) GA TAYYORLASH O‘QUVCHILARNI MUTOLAA MADANIYATIGA O‘RGATISHDA PIRLS TADQIQOTINING AHAMIYATI

*Rabbonayeva Dildora Tolipovna
SVPYMO‘MM katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada jamiyatimizda mutolaa masalasiga bo‘lgan yondoshuv va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishda PIRLS tadqiqotining o‘rni haqida fikr bildirilgan.

Tayanch so‘zlar: PIRLS, xalqaro, tadqiqot, kitob, baholash, boshlang‘ich ta’lim, sifat, mutolaa, topshiriq.

*Mushohada yuritmay turib, qancha ko‘p o‘qisangiz,
shuncha ko‘p bilayotganga o‘xshayverasiz, agar
o‘qiyotganda qanchalik ko‘p mushohada yuritsangiz,
shu qadar oz narsa bilishingizni aniqroq his etasiz.*

Volter

Kitob – insonning yaqin do‘sti, suhbatdoshi, sirdoshi. U kishining dunyoqarashi, so‘z boyligini oshiradi. Amerikalik olim, yozuvchi Nil Geyman olib borgan tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatdiki, kitob mutolaa qilmaydigan bolalar kelajakda bezori bo‘lib ulg‘ayishi ehtimoli yuqori ekan. Shu bilan birga, kitob o‘qish odamlarni empatiyaga – faqat o‘z xohish-istiklari va manfaatlarini o‘ylashdan voz kechib, umumiy maqsad yo‘lida birlashishga undaydi.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “O‘qish

madaniyati” kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

“Mutolaa” so‘zi arabcha “o‘qish” degan ma’noga ega bo‘lsa-da, bugungi kunda u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchani anglatmoqda.

O‘qish – axborot olish madaniyati bo‘lib, badiiy adabiyotni to‘g‘ri tushunish, undan estetik zavq olish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar, barcha turdagি resurslar bilan ishslash, ma’lumot-bibliografiya va barcha turdagи axborot materiallaridan o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo‘lgan ma’lumotlarni ola bilish, o‘z kasbiy malakalarini oshirishda foydalanish, axborot-kutubxona muassasasidan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini o‘rganish ham axborot olish madaniyati tushunchasi doirasiga kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishning bir qancha usullari, yo‘llari mavjud bo‘lib, 2021-yildan boshlab O‘zbekiston yoshlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk bor qatnashayotgan PIRLS tadqiqotining o‘rni beqiyosdir.

PIRLS – (*inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study*) matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot bo‘lib, maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarining har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi mutaxassislar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga ega.

PIRLS dunyoning turli mamlakatlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni tushunish darajasini taqqoslash, shuningdek, milliy ta’lim tizimlarining o‘qish savodxonligi o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi.

Tadqiqotning xalqaro lug‘atiga ko‘ra, “o‘qish savodxonligi” - o‘quvchining matn shaklida berilgan ma’lumotlarni tushuna olish va ularga reaksiya bera olish

ko‘nikmasi, o‘qigan ma‘lumotlaridan hayoti davomida to‘g‘ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqatidir.

PIRLSda o‘qish savodxonligining asosi matnlar bilan to‘liq ishslash uchun zarur bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirish hisoblanadi. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma‘lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma‘lum qismi bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarga ikki turdagি matn taqdim etiladi, badiiy matn va axborotli matn. Shuning uchun o‘quvchilar bilimi quyidagi ikki mezon asosida baholanadi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o‘qish.
2. Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadida o‘qish.

Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:

- matnning muayyan qismlarini ajratib ko‘rsatish va ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish;
- voqealar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ko‘rsatish;
- matnning umumiyl g‘oyasini aniqlash;
- matn tarkibining elementlarini ochib berish;
- qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish;
- asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his –tuyg‘ularini taqqoslash va qiyoslash;
- matnda qo‘llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o‘tkazish;
- matnning asosiy g‘oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish;
- matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg‘ularini izohlash orqali javob berish;
- matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadidagi o‘qish uchun quyidagi mahorat tavsiflari belgilangan:

- matnda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash;
- kerakli axborotni o‘zida mujassamlashtirgan gapni ajratish;
- xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish;
- matnda yaqqol taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish;
- matnning turli qismlarini tahlil qilish va kerakli axborotni ajratish;
- matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash;
- matndagi alohida gaplar o‘rtasidagi mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash;
- matn mazmunini izohlab berish;
- turli tipdagи matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash;
- matnning turli qismlaridagi murakkab ma’lumotlarni anglash va asoslash;
- matndagi ma’lumotlarni tushunish uchun aniq va noaniq elementlarni baholash va ahamiyatini tushuntirish;
- matnlar, xaritalar, illuustrasiyalar,diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma’lumotlarni umumlashtirish.

PIRLS tadqiqotida belgilangan mahorat tavsiflaridan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar matnni nafaqat tushunishadi balki, matnda berilgan ma’lumotlarni tushuna olish va ularga o‘zining shaxsiy munosabatini bildira olish ko‘nikmasi, olgan ma’lumotlaridan hayoti davomida to‘g‘ri foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati ham shakllanib, rivojlanib boradi.

Mutolaa – bu insonning o‘z ustida ishlashi, faoliyatini ma’lum yo‘nalishga burib yuborishi, ongida ma’lum tuyg‘ularni, e’tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o‘ylashga, hayotda qanday yashashga o‘rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma’naviy o‘gitlarini ilg‘ab olish va bular asosida o‘z hayot yo‘li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o‘qigan kitobidan yangilik topish, ma’naviy dunyosini boyitishdan iborat ekan, bu borada PIRLS matnlari va uning

matnlari uchun tuzilgan topshiriqlari, belgilangan mahorat tavsiflari o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlanadirishda yaqindan yordam beradi.

Haqiqatan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo‘llasa, kitob o‘qimaslik johillikka, ma’rifatsizlikka olib kelib, natijada bolada ma’naviy qashshoqlik yuzaga keladi. Maktabda, bolalar bog‘chasida, oilada muhim vazifa, bu kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iboratdir. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e’tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr kuni qabul qilgan “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori.
2. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., Кузнецова М.И., Цукерман Г.А., Нурминская Н.В. ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ «Изучение качества чтения и понимания текста» - Москва, 2007, 3-4 ст.
3. M.Mirqosimova. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –Toshkent. “Fan” . 2006.

www.kutubxona.uz.

www.arxiv.uz.

XALQARO BAHOLASH DASTURI BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR TAYYORLASH

*Maxkamova Moxigul Akbarovna
Narpay tumani 47- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ishlari haqida fikr yuritilgan

Kalit so‘zlar: mustaqil ish, ijodiy yondoshish, mashq, PIRLS, PISA, TIMSS

Ma’lumki, o‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta’lim orqali jamiyatda

keljakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantiriladi. O‘quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta’lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o‘quv yili davomida har bir ta’lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o‘tkazib boriladi. Uning natijasiga ko‘ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, o‘qituvchilar salohiyati va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta’lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo‘lgani uchun. Xalq ta’limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari bilimini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi.

Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e’tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas‘uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ch sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas‘uliyatli ekanligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda turli xil xalqaro baholash tizimlari jumladan PIRLS, PISA, TIMSS, STEAM kabi dasturlar yurtimizda joriy qilinilishi munosabati bilan o‘quvchilarning matematika va o‘qish salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan makatablarda ushbu tadqiqot dasturiga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilgan.

O‘quvchilarni matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini oshirishda TIMSS xalqaro baholash dasturi ish olib boradi.

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) maktabda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish sifatining xalqaro monitoringi bo‘lib, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4-sinf va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darjasini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo‘sishmcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘quv muassasasi

imkoniyati, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillar o‘rganiladi.


Men mакtabda o‘quvchilarimga ularning tafakkur doirasini kengaytirish maqsadida turli xil savol va topshiriqlar tayyorlab ularning bilimini oshirishga harakat qilmoqdaman. Quyida sizlarga shu savol va topshiriqlarimdan namuna keltirmoqchiman.

3. Ombordan do‘konlarga jami necha kilogramm sariyog‘ jo‘natilgan.



- A). 715
- B). 785
- C). 905
- D). 695

2. Olmalar necha kilogram?




- A). 812
- B). 610
- C). 505
- D). 510
- E).

Bor edi	Sotildi	Qoldi
36 kg kartoshka	To‘rtadan bir qismi	? kg

- A). 27
- B). 30
- C). 32
- D). 36

Butun doiraning yuzi 24 cm^2 bo‘lgan doiralarning bo‘yalgan qismi yuzlarini toping:



- A). 24,12,8,6
- B). 24,14,10,6
- C). 24,12,10,6
- D). 24,12,8,4

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma‘lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda “devorning ham qulog‘l borligini ko‘ra olish kompetensiyasi birinchi o‘ringa ko‘tarilayapti.

TIMSS topshiriqlarni berish jarayonida o‘zgarishlarni ta‘lim tizimida aks ettirish, maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarini tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta‘lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlab bilb olamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmoni. 2019-yil 29-aprel.
2. D. Robbanayeva . PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishslash texnologiyasi. (O‘quvchilarning uslubiy qo‘llanmasi.) Samarqand 2020-yil.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH

*Ismoilova Elmira
Nurobod tumani 2-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifatini oshirish uchun metodlar va usullarni darsda hal qilinishi mo‘ljallangan masalaga va maqsadga mos qilib tanlash juda muhimdir.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, nazariy va amaliy, hamkorlik ,faollashtirish,umumiy va muayyan

Maktabdagi o‘quv jarayoning sifati ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida o‘qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o‘zlashtrishda o‘quvchilardan mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogika amaliyotida o‘qitish usullari va metodlariga juda katta boylik to‘plangan.

Ularni tanlashda turli sharoitlar o‘qitilayotgan fanning xarakteri bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi. Burhoniddin Zarkuijining fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql - faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish qurolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo‘lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo‘li bilan tarkib topadi. Inson hissiy idrokni boyitish bilangina o‘zining bilimlarini oshira oladi.

Shuning uchun ta’limda o‘quvchilarning o‘zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o‘qituvchi darsda hal qilishi mo‘ljallangan masalaga bog‘liq bo‘ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo‘llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtrishda ya’nada boshqa xil metodlar qo‘llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o‘ylash samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday

bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zлari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zлari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Bugungi kunda ta’limda «Aqliy hujum», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

O‘qitish metodlarining juda ko‘p turlari mavjud va ularning sonini aniqlab belgilab bo‘lmaydi. Metodlar o‘qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagi o‘qitish metodlarining yagona tasnifi yo‘q. Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi.

Umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o‘qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarni erkin firklay olish, bemalol muloqot, o‘z kuchiga ishonch, o‘zaro hurmat, hamkorlik mavzularni mustaqil o‘zlashtirishga qiziqish, yangiliklarga intilish, o‘rganganlarini uzoq vaqt esda saqlab qolish va amalda qo‘llash, xushmuomalalik bilan murojaat etish kabi ijobjiy xislatlarni oshiradi. Darsda pedagoglar uchun vaqtdan unumli foydalanishda, darsni qiziqarli va mazmunli tashkil etishda, noyob fikrlaydigan o‘quvchilarni aniqlashda, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik, sinfdagi barcha o‘quvchilarni faollashtirish, o‘quvchilarni og‘zaki va yozma nutqini o‘sirish va tezkorlik bilan baholay olish kabilarda katta yordam beradi

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003.

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA IJODIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

*Usmanova Dilorom Maxmudovna
Samarqand shahri 22-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqlada o‘qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanishning shakl, metod va vositalari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, kitobxon, qobiliyat, mulohaza, kritik, kreativlik.

O‘qish savodxonligi tushunchalari yillar davomida o‘zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o‘z aksini topdi. O‘qish faqatgina ta’limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o‘zlashtiriladigan qobiliyat, deb hisoblanmay qo‘ydi. Bugungi kunda bu qobiliyat shaxs butun umri davomida turli xil kontekstlarda o‘z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boradigan bilim, ko‘nikma va malakalar, usullar jamlanmasi sifatida ta’riflanadi. Jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etish maqsadida inson uchun bilim olish, barcha ma’lumotlarni aniqlash, tushunish va aks ettirish qobiliyati juda muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri bu dars jarayonida ijodiy topshiriqlardan maqsadga muvofiq foydalanishdir. 1-2- sinflarda milliy o‘quv dasturi asosida joriy qilingan o‘quv fanlaridan ishlab chiqarilgan o‘quvchi daftari yoki tarqatma topshiriqlar shakllantiruvchi baholashda eng qulay vosita hisoblanadi. O‘quvchi daftari yoki tarqatma topshiriqlar quydagি xususiyatlarga ega:

4. Darslik asosida tuziladi va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi
5. O‘z navbatida darslikdan mustaqil bo‘ladi, dasturda nazarda tutilgan malakalarni shakllantirish uchun qo‘shimcha vosita ham bo‘la oladi.
6. Tarqatma shaklidagi topshiriqlar har bir o‘quvchiga moslab ishlab chiqilishi ham mumkin.

O‘quvchilarda o‘quv savodxonligini rivojlantirish uchun tuziladigan ijodiy topshiriqlar:

- Qisqa javob talab qiluvchi savol
- Bo‘sish o‘rirlarni to‘ldirish
- Muqobil javobli test
- To‘g‘ri/Noto‘g‘ri
- Moslashtirish
- Ko‘p tanlovli test

Bulardan tashqari turli grafik chizmalar, xaritalar, boshqotirma shakllari, diagrammalar, jadvallarni ham qo‘llash mumkin.

Tarqatma topshiriqlarni tayyorlashda quyidagi ketma-ketlikka amal qilish tavsiya etiladi:

- O‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan ko‘nikma(lar) aniqlanadi;
- Ko‘nikmani egallashi uchun o‘quvchi bajarishi kerak bo‘lgan vazifa va topshiriqlar belgilanadi;
- Vazifa va topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar yakka, juftlikda yoki guruh bo‘lib harakat qilishlari mumkin. Shulardan biri tanlanadi;
- Topshiriq va savollar ishlab chiqiladi;
- Topshiriq va savollarni ishlab chiqishda o‘quvchilarning turli bilim darajasini hisobga olishning imkoniyati ko‘rib chiqiladi;
- Tezroq bajarib qo‘yish mumkin deb qaralsa, asosiy savol va topshiriqlarga qo‘sishma topshiriqlar ham kiritiladi.

Ijodiy topshiriqlarni tayyorlashda e’tiborga olish lozim bo‘lgan unsurlar va har bir unsurning o‘ziga xos jihatlari quyidagilar:

1. Yo‘riqnomalar

- topshiriqlarni bajarish uchun amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligini tartib bilan tushuntiring;
- har bir ko‘rsatmaga raqam qo‘ying. Ko‘rsatmaga amal qilish jarayonida uni osonroq topish va tartibni aniqlash uchun bu muhim
- savollarni raqamlang;
- qalin yoki kursiv shakldan foydalanib muhim o‘rirlarni ajratib ko‘rsating;

- o‘quvchilarga tanish bo‘lgan so‘zlardan foydalaning hamda gaplarning qisqaroq bo‘lishiga e’tibor qarating.

2) Diagramma, grafik va vizual effektlar

- sodda effektlardan foydalaning;
- diagramma, grafik va ramslarni sarlavhalang (bu o‘quvchi tomonidan topshiriqni tushunishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi);
- imkon boricha rangli tasvirlardan foydalaning (ranglar soni 4-5tadan oshmasligi tavsiya etiladi).

3) Sahifa tartibi

- o‘qishni osonlashtirish uchun asosiy va tagsarlavhalardan foydalaning;
- har bir sarlavha va sahifani raqamlang;
- tarqatma topshiriq sahifasini ishlab chiqishdan oldin uni loyihalashtirib oling;
- zarur o‘rinlarda harf hajmlarini turlicha qo‘llang;
- ko‘rinishning qiziqarli bo‘lishiga harakat qiling.

4) Tajriba

- o‘zingiz uchun maxsus, topshiriqlarning javobi aks etgan tarqatma topshiriqni tayyorlang;
- butun sinfga joriy qilishdan oldin bir-ikki o‘quvchida sinab ko‘ring. Agar buning imkoni bo‘lmasa shaxsiy tajriba va intuitsiyangizga tayaning.

O‘qish savodxonligini rivojlantirib borish jarayonida o‘quvchilar turli janrdagi matnlar bilan tanishadilar, xususan, badiiy matnlar bilan ham. Matn o‘qildi, dars tugadi shu bilan bu matn o‘rganilgan deb hisoblanib keyingi darsda boshqa matnga o‘tib ketilaveradi. Aslida bunday bo‘lmasligi kerak. Matn ustida amalga oshiriladigan har qanday harakat yaxshiroq o‘qishga, tilning turli jilolanishlarini, ma’no nozikliklarini yaxshiroq his qila olish imkonini oshirib boraveradi.

Boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi oshirishda quydagi jihatlarga bog‘liq:

o‘tishim mumkin:

1. Matndagi ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish orqali ma'lum xulosalar chiqarish.
2. Matndagi voqeа-hodisalarning sabab-oqibatini tushuna olish.
3. O'quvchining leksikasi uchun notanish bo'lgan so'z va birikmalarning ma'nosini kontekst asosida taxmin qila olish.
4. Matndagi ayrim grammatik ko'rsatkichlarning qanday ma'no tashiyotganini tushunish.
5. Matn hamda tasvirlarni o'zaro moslashtira olish.
6. Matndagi voqeа-hodisalarni o'z hayotiy tajribasi bilan qiyoslash.
7. Matndagi voqeа-hodisalarni tanqidiy ko'rib chiqish va baholash.

Boshlang‘ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini tizimli ravishda shakllantirib borish orqali yuqori darajada o'qish savodxonligiga erishish mumkin.

Bu o'quvchining keyingi ta'lim bosqichida o'qishga tayyorligini ko'rsatadi. Bunday o'quvchilarga badiiy va axborot matnlarining xabarlarini tushunish va baholash uchun deyarli yordam kerak emas. Yuqori darajali o'quvchilar yozma ravishda yetkazilgan yangi ma'lumotlar, fikrlar, tajribalar yordamida o'z tajriba va bilimlarini kengaytirish va o'zgartirishga imkon beradigan o'qish komponentlarini o'zlashtirishga tayyor bo'ladilar.

Foydalaniлgan adabiyotlar

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

2. Марасурова У. Умумтаълим мактабларида ўқувчиларнинг адабий-назарий тушунчаларини шакллантириш ва такомиллаштириш. Пед.фан.номз. дисс. –Т.: 2007. – Б 25-26.

4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariyev SH. Ona tili o'qitish metodikasi. – Т.: Noshir, 2009. – 424 b.

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MA’NAVIY BARKAMOL
INSON RUHIDA TARBIYALASHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH**

Ro‘ziqu洛va Marg‘uba Sobirjonovna.

*Hasanova Xurshedа Xibimovna
Samarqand tuman 31-maktab o‘qituvchilari*

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda ertaklardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, hamkorlik, muammolar, maqol, topishmoq, ertaklarni yechimi, integratsiyalangan bilim, vatan, inson e’tiqodi.

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilingan va bu amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o‘rni va ro‘li alohida ahamiyatga ega. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg‘or davlatlar darajasiga ko‘tarish ularning bilimi, istedodi, jasorati, ma’naviy barkamolligiga bog‘liq.

Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim insonning bilim va tarbiya olishida poydevor vazufani o‘taydi. Boshlang‘ich siniflardagi ona tili ta’limi sohasining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda og‘zaki va yozma nutqini hamda tafakkurini o‘stirish, ularni shaxs sifstida shakillantira borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni o‘stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yenga olish qobilyatlarini o‘stirish hisoblanadi.

Xalq tomonidan yaratilgan og‘zaki badiiy adabiyotga folklor deyiladi. “Folklor” asli inglizcha so‘z bo‘lib, “Folk”-xalq, “Lore”-donolik so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, “Xalq donoligi”, “Xalq donishmandligi” ma’nolarini anglatadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xilma-xil janrlardan tarkib topgan og‘zaki so‘z san’ati bo‘lib, o‘bek xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiradi. Xalq og‘zaki ijodi ertak, doston afsona, rivoyat, qo‘sniq, lapar, masal, maqol, topishmoq, latifa va naqllarni o‘z ichiga oladi. Xalq og‘zaki ijodi

materiallarida ijtimoiy hodisalar, kurashlar vatanni dushmandan mudofaa qilish, xalqning orzu-umidlari, urf-odatlari, rasm-rusmlari, marosimlari va boshqa turmush hodisalari ifodalanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quv dasturlari o‘qish darslari oldiga o‘quvchilarni yaxshi o‘qish sifatlariga ega etishdek murakkab vazifani qo‘yadi. Bunday vazifalarni to‘laroq amalgam oshirishda xalq og‘zaki ijodi materiallari katta ahamiyatga ega. O‘quvchilar tabiatan maqol, topishmoq va ertaklarni sevadilar, ularni zo‘r qiziqish bilan o‘qib o‘rganadilar. Bundan tashqari xalq og‘zaki ijodi qadimdan tarbiya manbai hisoblangan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari eng avvalo ertaklar bilan tanishadilar. Ma’lumki, ertaklar xalq og‘zaki ijodiyotining eng qadimiyligi ommaviy va keng tarqalgan jannrlardan biridir. Ertak atamasi Mahmud Qoshg‘ariyning XI asrda yozilgan ”Devonu lug‘atit turk” asarida ”etuk” shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi. Hozirgai folkloristik atama sifatida ertak so‘zi qabul etilgan bo‘lsa-da, Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona ob’ektlarida matal deb yuritiladi. Ertaklar xalq og‘aki ijodining epik turiga kiradi. Uning o‘ziga xos xususiyati-voqeabandligi, biron voqeani mukammal hikoya tarzida bayon qilinishidir. Ertaklar turmush voqeligini ajoyib va g‘aroyib, jozibali qilib aks ettiradi.

Ertak ijrochiligining xarakterli belgilardan biri shundaki, hikoya qilinayotgan voqea va hodisalar aytuvchi va tinglovchi tomonidan ”Bo‘lgan voqea” deb emas, balki, ”Muqarrar bo‘lmajan hodisalar” deb tushuniladi. Shuning uchun ham ertaklarda voqea va hodisalarda bo‘lib o‘tgan o‘rni va zamonni nooaniq umumiyligi tarzda ifodalanadi. Bundan tashqari, ertaklarning zamon va makon e’tibori bilan yuzaga kelgan o‘rni ham turlicha. Ularning tili va uslubi farq qiladi. U yoki bu ertak qaysi turga taalluqli ekanini aniqlash uchun diqqat-e’tibor bilan mazmunini va asosiy vazifasini belgilash lozim bo‘ladi. Masalan: sehrli ertaklar hamda hayvonlar haqidagi ertaklar bilan ishqiy-sarguzasht tipidagi yoki hajviy ertaklarning mustaqil janr sifatida tashkil topishi ham turli davrlarga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham har xil davrda yaratilgan va turli xil jamiyat qatlamlari tizimini o‘zida saqlagan ”Kenja Botir”, ”Ur-

to‘qmoq”, ”Chol bilan kampir”, ”Bo‘ri bilan tulki” kabi ertaklarning syujet tarkibi, xarakteri, obrazlar sistemasi, turli va hikoya qilishi uslubiga o‘xshash va farqli tomonlar mavjud. Negaki, ertak o‘zining taraqqiyoti davomida ba’zi motiv obrazlarni yo‘qotishi, yangi-yangi belgilarni qabul qilishi mumkin, ba’zan esa an’anaviy elementlar yangicha talqin etilgan bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturidan o‘rin olgan vatan mavzusidagi asarlar o‘quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy madaniy - ma’rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo‘lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi. Dasturning vatanga, inson e’tiqodi va ma’naviyatiga bag‘ishlangan mavzularini o‘rganish o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi.

Istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimiz haqidagi asarlar milliy g‘urur tuyg‘ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu jihatdan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar “O‘qish va nutq o‘stirish” dasturi asosida tuzilgan “O‘qish kitobi” darsliklari orqali ko‘plab xalq og‘zaki ijodi asarlaridan namunalar bilan tanishadilar. Bu asarlarni o‘qib-o‘rganish orqali o‘quvchilarda ijodkorlik faoliyati shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anorboyev A. Badiiy asar- ma’naviy boylik// Boshlang‘ich ta’lim, 2018, 6-son,
2. Avezov S. Milliy istiqlol g‘oyasi mezonlari// Boshlang‘ich ta’lim, 2016
3. Farsaxonova D. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning muhim jihatlari // Boshlang‘ich ta’lim, 2017, 6-son
4. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi.- Toshkent: “O‘qituvchi”, 1990.
5. Jabborov Sh. Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish// Boshlang‘ich ta’lim, 2011, 2-son, 28-29- betlar.

3-YO‘NALISH

FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPITENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**Ergasheva Gulshoda Amirovna
SVPYMO‘MM katta o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompitentligini takomillashtirish yo‘llari, o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishning shakl va vositalari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompitentlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik mahorat, kasbiy madaniyat.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentliliqi va o‘qimishlilik darjasini, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg‘or tajribalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiysi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini bilishi boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega

Boshlang‘ich ta’limning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barcha psixologik-pedaogik vositalarni qo‘llagan holda, o‘quvchilarda yaxlit tarzdagi o‘quv faoliyatini shakllantira olishi kerak.

Zamonaviy ta’lim nazariyasida o‘qituvchining mavqeい o‘quv-tarbiya jarayonining boshqaruvchisi sifatida tavsiflangan. Demak, o‘qituvchi, shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi peadgogik jarayonni to‘g‘ri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi ko‘p jihatdan o‘quvchi uchun o‘rnakdir. Shuning uchun ham, u birinchi navbatda, ularni o‘ziga jalb eta olishi kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang‘ich ta’limni tashkil etishni nazarda tutgan holda o‘qituvchining shaxsiy

sifatlari, kasb mahorati hamda bilim darajasini tashxislash asoslari ishlab chiqilishi zarur. Tashxislash natijalari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ular malakasini uzlusiz oshirish mazmuni va texnologiyalari takomillashtirlishi lozim.

O‘qituvchining kasbiy madaniyati va etukligini ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri uning kiyimi hisoblanadi. Pedagog kiyimining to‘g‘ri tanlanishi o‘quvchilarda yoqimli tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi. CHunki o‘qituvchining kostyumi uning kasbiy etukligi va shaxsiy sifatlari: tartibliligi, shaylanganligi, jiddiyligi, ozodaligi, tarbiyalanganligi, madaniyatlilagini ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa uning kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qulaylik tug‘diradi. Shuning uchun ham o‘qituvchilarning kiyinish qoidalariga qat’iy rioya qilishlarini ta’minalash lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi uning pedagogik-psixologik, mutaxassislik bilim, ko‘nikma, malakalariga ,pedagogik mahoratiga ham bog‘liq. Ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishda ilg‘or tajribalarni o‘z faoliyatiga joriy etishda ham o‘qituvchining kompetentligi ko‘zga tashlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi uning o‘z ustida ishlashida, Jumladan kasbiy bilim, ko‘nikma,malakan takomillashtirib borish, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish, kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq salbiy odatlarni muntazam ravishda bartaraf etishva ijobjiy sifatlarni o‘zlashtirib borish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbining mutaxassisi sifatida kompetentligini takomillashtirib borish quydagilarda namoyon bo‘ladi. Aniq maqsad, intishish asosida pedagogik jarayonni samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish, izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirib faoliyatiga joriy etish, ilg‘or texnologiyalar, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish, faoliyatiga fan- texnikaning so‘ngi yangiliklarini samarali tadbiq etish, kasbiy malakalarni takomillashtirish, ko‘nikma salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boriladigan amaliy harakati uning o‘z

ustida ishlashi va kasbiy kompetentligi takomillashtirishning ososiy omillaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda quydagilarga e’tibor qaratish lozim:

- pedagogika- psixologiyaga oid bilimlarini takomillashtirib borish;
- o‘z ustida ishslash;
- ta’lim jarayonini tejalashtirish, boholash va qayta aloqani o‘rnata olish;
- ta’lim jrayonida o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- axborot kommunikatsion texnologiyalarini bilishi, bilimlarini oshirib borishi va kasbiy faoliyatida ulardan samarali foydalanish;
- ta’lim muhitiga yangilik kiritish;
- o‘z fanini mukammal bilish va bilimlaridan ta’lim jarayonlarda ulardan foydalanish;
- hozirgi zamon ta’lablaridan kelib chiqqan holatda xorijiy tillardan birini bilish ham o‘qituvchining kasbiy kompetentligini takomillashtirib borishning asosiy shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B Innovatsion ta’lim texnologiyalari /. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81 -b.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.
3. Ishmuxamedov R. va b. Ta’limda innovatsion texnologiyalar.- T.:Iste’dod, 2008
4. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya- iqtisod” nashriyoti, 2009.
5. Tolipov O‘.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashrièti, 2006.

DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHINIG FAOLIYATI

*Xoliyev Jasur Norqul o‘g‘li
Urgut tumani 77 – maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining dars samaradorligini oshirishda foydalanadigan pedagogik texnologiyalarining shakli, metodlari va vositalari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, yondashuv, texnologiya, mahorat, ijodiy faoliyat, faol, ko‘nikma, vosita, tashabbus, bahs-munozara, imkoniyat.

Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik zamonaviy usullar asosida darslarni tashkil etish hozirgi kun talabidir. Bugungi o‘quvchilarga ta’lim berish ularni tarbiyalash o‘qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Bu esa, pedagogdan talabchan, o‘z ustida ishlash, o‘ta mas’uliyat bilan faoliyat yuritishni taqozo etadi.

O‘qituvchi belgilangan maqsadga erishmoqchi bo‘lgan yo‘lidan og‘ishmay borishni, undan kuchli kasbiy mahorat talab etishi hammamizga ma’lum, chunki dars jarayonida bilim olish va o‘rganish barobarida shaxs sifatini shakllanishiga pedagogik ta’sir etishini to‘g‘ri tashkil etishni ham nazarda tutadi.

Boshlangich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda ta’lim va tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifatini oshirishning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, u yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. O‘qituvchining faoliyat shakllari - darsni amaliy mashg‘ulot, hikoya, suhbat, savol-javob, bahs-munozara darslarida namoyon bo‘lib undan unumli va o‘rinli texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi. O‘quvchilar dars jarayonida o‘ziga nisbatan talabchanlikni oshiradi, muammoning esa yechimini, oson, qulay usullarini topishni, taqqoslashni, qiyoslashni o‘rganadi. O‘tilgan mavzuga mustaqil munosabat bildirish malakalari shakllanadi. O‘qituvchilarning har biri darsda qaysi usulni qo‘llashidan qat’iy nazar talabchanlikni, faollikka, mustaqil fikr yuritishga erishishni maqsad qilishi kerak.

O‘qituvchining nutq madaniyati ham dars jarayonini muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. Notiqlik mahorarati faolligini oshirib, dars jarayniga ijobiy yondashuvini ta’minlaydi. Dars davomida zamonaviylikka erishishda barcha usullarni o‘rinsiz, ko‘p foydalanish ham yaramaydi. Zamonaviy, noan’anaviy dars shakli va uni tashkil etishdan maqsad o‘quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirilish, o‘quv mashg‘ulotlarini samarali natijalariga erishish yo‘llaridan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiya o‘quv jarayonlarini harakatga keltiradi.

Pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali o‘quvchilar faolligi oshirilib, unda barcha o‘quvchini qamrab olib, kerakli topshiriqlar beriladi. O‘qituvchi tanlagan metod yoki texnologiya o‘quvchilarga qulay, oson maqsadga erishish uchun keng yo‘l ochishi lozimligini hisobga olish shart.

Pedagogik mahorat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yoshiba xos tarzda namoyon bo‘ishi bilan bog‘liq. Ya’ni o‘qituvchi metodlardan qanday foydalanadi va uni darslada qo‘llash natijasini oldindan belgilab olishi muhim. Masalan, o‘qish darslarida o‘quvchilarning his qilish, tasavvur etish o‘qish og‘zaki nutqi, o‘z so‘zini tushuntirib bera olish, tushunchalarni mazmuni va mohiyatini boshlang‘ich sinf o‘quvchisi sifatida bayon eta olishi, o‘qigan va eshitganlarini qayta so‘zlab berishlari e’tiborga olinadi. Unda muallifning orzu-istiklari ifodasi orqali insonparvarlik, odamiylik, mehribonlik va vatanparvarlik hissi uyg‘otiladi va o‘stiriladi. O‘quvchilar ma’naviy merosimizning, o‘z-o‘zini anglashni, ajdodlar bilan faxrlanishni, avlodlarga bo‘lgan chuqur ishonchni anglab yetadi. Ta’lim bilan tarbiyani hamohangligi natijasida og‘zaki nutqi ravon, so‘zlash nutqiga ega, mantiqiy fikr yurita oladigan barkamol shaxs kamolga yetadi. Ona tili darslarida esa o‘quvchining yozma nutqi, husnixat malakasi o‘sib borish barobarida qalbini uyg‘otuvchi teran fikrlarini bayon etadigan o‘quvchilar tarbiyalanadi. So‘z boyligiga ega, o‘z qarashlarini yozma nutqda mukammal bayon etishga qodir o‘quvchilar imkoniyati darslarda va aynan yangi zamonaviy dars, pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri joriy qilish natijasida o‘z samarasini beradi. Qaysi sinfda dars tashkil etishimizdan qat’iy nazar, u ilmiy bo‘lishi, mazmun va izchillik yo‘qolmasligi, ta’lim va tarbiya uzviyligi, onglilik,

ko‘rgazmalilikda o‘quvchiga xos xususiyatlar hisobga olinishi muhimdir. Demak, o‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, o‘qituvchi oldida turgan eng muhim vazifa dars jarayonida ko‘zda tutilgan. Ta’lim maqsadlariga erishishni ta’minlay olishi kerak.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘p hollarda o‘quvchilar o‘rganilgan bilimlarni xotirada yaxshi mustahkamlamaslik, egallaganlarini eslashdan nariga o‘tmaslik, qisman ijobiy topshiriqlarni bajarishdan o‘z imkoniyatlarini yetarli darajada ishga tushira olmasligi natijasida ularning ijodiy faoliyatga tayyor bo‘la olmayotganliklarini kuzatilar edi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarning bosh maqsadi – dars jarayonida o‘quvchi mavzu materiallarini oson va qulay vositalardan unumli foydalana bilishi zarur. O‘qituvchi buning uchun dars jarayonida o‘quvchilarning kayfiyatini yaxshilash asosida ularning fanga qiziqishlarini oshiradi. Ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stiradi. Faollik va tashabbuskorlik shakllanadi. Dars jarayonida mashg‘ulotlarni bajarganlari orqali esda olib qolishiga erishadi.

Bunday holat o‘quvchilarning faolligini ta’minalashni kafolatlayd. Berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtira olishi, savollarga erkin hayotiy kuzatishlari asosida javob qaytarishiga erishishdir.

Foydalilanigan adabiyotlar

Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B 1. Innovatsiya ta’lim texnologiyalari /. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2020.

2. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T., 2008.

3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2018

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY DARS O‘TISH USULLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Boltayeva Dilshoda Yunusovna
Tayloq tuman 3- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda zamonaviy darslarni tashkil etish, zamonaviy dars o‘tish usullarining o‘ziga xos xususiyatlari, muammoli o‘qitish, dasturlashtirilgan o‘qitish haqida ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘z: zamonaviy usul, muammoli o‘qitish, didaktik, qiziqish

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash, o‘qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta’lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarilishini ta’minlaydi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Zamonaviy ta’limining vazifalari va maqsadlarining o‘zgarishi, hamda kengayib borishi – ta’lim mazmunini va tuzilmasini hamda o‘qitish jarayonini takomillashtirishga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf darslarida o‘qitishning yangi zamonaviy metodlaridan foydalanish jamiyatimiz hayotida yuz bergan ijobjiy o‘zgarishlar ta’limning maqsadi, mazmuni va vazifalarini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Buning natijasida o‘quvchi dars jarayonida faol ishtirokchiga aylandi, uning fikrlash doirasi kengaydi, undan ijodkorlik, tashabbuskorlik talab etila boshlandi.

Dars jarayonida o‘qituvchi emas, o‘quvchi faol bo‘lishi, savol topshiriqlar va bahs-munozaralarda ko‘proq ishtirok etib bilimini oshirishi o‘quvchining mustaqil fikrlashida muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy dars o‘tish usullarining o‘ziga xos xususiyatlari:

- mavzuni muhokama qilish;
- erkin fikrlash;
- hamkorlikda ishlash;
- juft bo‘lib guruhlarda ishlash;
- davra suhbatlari, bahs-munozaralar;
- rollar ijro etish;
- muammolarni birgalikda hal etish uchun fikrlash.

Zamonaviy usullar o‘quvchilarning chuqur bilim olishi uchun qator imkoniyatlar yaratish bilan birga ularda o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmasini shakllantiradi, hamkorlikda ishlash, hayotda uchrab turadigan qiyinchiliklarni birgalikda yengish tajribasini singdiradi.

Zamonaviy usullardan foydalanish sinf muhitini o‘zgartiradi; mavzu qanday o‘rganilishi kerakligini belgilab beradi; har bir o‘quvchini faollashtiradi. Bugungi kunda o‘qituvchi o‘qitish uchun faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olishi va o‘quvchini bevosita mustaqil bilim olishga o‘rgatmog‘i zarur. Bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning chuqur bilimi, odob-axloqi muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib dars berishda o‘qituvchi mohirlikdan ijodkorlikka intilishi va bu bilan ta’lim sohasi rivojiga hissa qo‘shmog‘i talab etiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda noan’anaviy dars usullaridan foydalanish orqali iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda o‘z kuchlariga ishonch hosil qilishlari uchun imkon yaratish, sinfdagi o‘quvchilar o‘rtasida do‘slik, o‘zaro hamkorlik aloqalarini shakllantirishga erishish nazarda tutiladi.

Muammoli o‘qitishning asosi - o‘quvchilar bilish faolligini rivojlantirishdir. Muammoli o‘qitishni o‘z ichiga olgan darslarda o‘quvchilarga yangi ma’lumotlarni

o‘zida saqlagan masalalarni hal qilish taklif etiladi, toki ular bilimlarni o‘zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo‘llanish usullarini egallab olsinlar. Muammoli dars quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: darsda qo‘yilgan muammoga o‘quvchilarda qiziqish, yangi bilimlar olishga ehtiyoj uyg‘otish, uning bilim olish tizimidagi ahamiyatini ko‘rsatish.

Darslarda dasturlashtirilgan o‘qitish, ya’ni amaliy ishlardan, qiziqarli topshiriqlardan foydalanish muammosi o‘ta dolzarbdir. Hozirgi paytda o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini jadallashtirish va ularni atrof olam bilan tanishtirish darslarida olgan bilimlarini tekshirish maqsadida har bir o‘quvchining o‘quv jarayonida mustaqilligini ta’minlovchi va o‘quv materialini o‘zlashtirishda yordam beruvchi amaliy ishlar tizimi qo‘llanilmoqda. Dasturlashtirilgan o‘qitish bosqichma-bosqich bilim olishni kuzatishga imkon yaratadi, o‘quv jarayoniga qanday o‘zgartirishlar kiritilishi kerakligini ko‘rsatadi. Dasturlashtirilgan o‘qitish uchun quyidagilar kerak: o‘quv materialining puxta tahlili, uning qat’iy tanlanish va mantiqiy ketma-ketlik bo‘yicha bo‘linishi; o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini tekshirishdagi rahbarlik.

Dasturlashtirilgan o‘qitishda o‘quvchilarning o‘quv materialini qo‘llashda faolligi va mustaqilligi ortadi, o‘qitish jarayonini individuallashtirish imkoni paydo bo‘ladi, texnik vositali o‘qitish keng qo‘llaniladi, o‘qitish va o‘quvchi mehnatini oqilona tashkil etishga erishiladi. Nazorat ishlarini dasturlashtirishning tamoyili o‘quvchilarning og‘zaki javoblarini shartli belgilar va chiziqlar bilan yozma ravishda almashishdir. Ularning afzal jihatni shundaki, ular qisqa vaqt ichida har bir o‘quvchining o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish darajasini aniqlay oladi. Tajribalar darslarda bilim olish faoliyatini faollashtirish maqsadida dasturlashtirilgan o‘qitish usullaridan foydalanishning afzalliklarini ko‘rsatadi. Afzalligi shundaki, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini o‘quvchilarning o‘zlari shu dars mobaynida tekshirishlari mumkin.

O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki

o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari.–T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
2. <http://www.multimedia.uz> (<http://www.eduportal.uz>) -O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.
3. <http://www.rtm.uz> – Respublika ta’lim markazi sayti

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ILG‘OR PEDAGOGIK VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN DARS JARAYONIDA UNUMLI FOYDALANISH

*Faxritdinova Feruza
Jomboy tuman 19-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinflarda ham AKTning zarurligi. AKT darslarning faolligini oshirishi. O‘quvchilar multimediya orqali fanlarga qiziqishi oshadi. O‘quvchilarga kompyuter va telaefondan to‘g‘ri foydalanishini va o‘zi uchun ajoyib yangiliklar kashf qilishi.

Kalit so‘zları: AKT, multimediyalar, kompyuter, telefon, internetdan foydalanish, tarqatmalar, DTS, tabiiy fan

Boshlang‘ich sinflarga o‘qituvchilar 1-4 sinflar uchun yaratilgan multimediali ilovalardan foydalanib dars o‘tib kelmoqda. Shu asosida bir savol tug‘iladi: O‘qituvchilar multemidiali ilovalardan to‘g‘ri foydalanayaptimi?

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich ta’limning DTS bo‘yicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini shakllantirishiga, moddiy borliq go‘zalligini his eta olishiga o‘rgatish , tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglay olish, o‘z fikrini

og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko‘nikmalarini egallahshlariga erishish lozim.

Ushbu vazifalarn amalga oshirishda, bir qolibga tushib qolmaslik maqsadida, multemidialilar, elektiron darsliklar yaratildi. Agarda boshlang‘ich sinflarda ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonida unumli foydalasak, o‘qituvchi va o‘quvchi vaqtini tejashga erishiladi, o‘quv faoliyatini faollashtiradi, ta`lim samaradorligi oshiradi.


O‘quvchilarga kim zo‘r dars tayyorlab kelasa, kim zo‘r o‘qisa, kim tez matematik misollarni bajarsa o‘sh o‘quvchilar multemidiali ilovalardan testlarni bajaradi desa o‘qituvchi, o‘quvchilarni ko‘pchiligi bajaradilar Lekin sinfda 1soat darsda hamma o‘quvchilar multemidialardan foydalana olmaydi. Ko‘pchilik o‘quvchilar xafa ham bo‘lib qoladilar. Hatto ota-onasiga mendan uyga vazifani so‘ramadi, kompyuter o‘yiniga chiqarmadi deb boradilar. Chunki bolalar kompyuter, telefon o‘yinlariga juda ham qiziqadi, biz bu qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘naltira bilishimiz kerak.

Buning uchun o‘qituvchiga juda katta mahorat egasi bo‘lish kerak, ya`ni hech qaysi o‘quvchini xafa qilmaslik kerak. Buning ucnun uyda umultemidiali ilovalardan tarqatma usulida tayyorlab olish kerak. Bu tarqatmalarni multemedialardan foydalanib xuddi o‘ziga o‘xhash qilib yaratish kerak bo‘ladi. Bu tarqatmalardan hamma fanlardan ya`ni alifbe, yozuv, o‘qish, matematika, ona tili, atrofimizdag‘ olam, ingliz tili fanlardan foydalansak maqsadga mufovq bo‘ladi.

Kompyuterni o‘qituvchini o‘zi yoki eng ilg‘or, bilimli bola boshqarishini yo‘lga qo‘yish kerak. O‘quvchilar kompyuterdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganadi. O‘quvchilar ilg‘or o‘quvchiga intilishga harakat qiladi. Har bir o‘quvchi tarqatma materiallarni mustaqil bajarishga harakat qiladi. bu tarqatmalarni bajarishga qiziqishlari ortadi, chunki xuddi shu multemidialardan foydalilanladi. Bunda “Kim tez bajaradi”, “Kim eng to‘g‘ri bajaradi” nomminatsiyalarni tashkil qilsa bo‘ladi. Tarqatmalarni mana bunday tayyorlash mumkin.

Masalan: Multimediyalardan namunalar

1-sinf alifbe fanidan



Matematika fanidan



Tabiiy fanidan



BOLALARНИ MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONIDA О‘YINNING AHAMIYATI

Ravshanova Xafiza Komilovna
Sam vil PYMO ‘MM o‘qituvchisi
xafizakomilovna@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida o‘yining ahamiyati haqida, o‘yin turlari va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinlarni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bola, o‘yin, maktabgacha ta’lim tashkiloti, sahnalashtirilgan o‘yinlar, ijodiy o‘yin, tarbiyachi, rivojlanish.

O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir. Ilmiy asoslangan o‘yinlar MTTda bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi yetakchi o‘rin egallab, u eng avvalo, o‘yin orqali ta’lim-tarbiyaga doir qanday vazifalarni

muvaqqiyatli hal etish mumkinligini aniq tasavvur qila olishi lozim. Shuningdek, bolalar o‘yiniga ajratilgan vaqtini mashg‘ulot yoki kun tartibidagi boshqa tadbirlarni cho‘zib yuborish orqali egallash mumkin emas. MTT tayanch dasturida har kungi kun tartibiga ovqatlanish, badantarbiya, sayr, mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan bir qatorda o‘yin ham kiritilgan. O‘yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhdan boshlanadi. O‘yin ertalab nonushtagacha (15-20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, o‘yqudan keyin o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurish-yasash, harakatli o‘yinlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Mashg‘ulot o‘rtasida harakatli, qoidali o‘yinlar o‘tkaziladi. Ular asosan, mashg‘ulotning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

O‘yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o‘yin sub’ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o‘qish bilan birga o‘yin ham uning shakllanlanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘yinlar vositasida katta avlod tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba, o‘zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan. O‘yin shaxsni tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta’lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar faoliyatining asosiy shakli sanaladi. U orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning kelajakdagi o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, MTT (maktabgacha ta’lim tashkiloti)ning ta’lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik

jihatdan tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yining maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

O‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi. Bola hayotining bir yoshidan boshlab u uchun o‘rab turgan tevarak-atrofni bilishga ehtiyoj xosdir. Bolalar o‘yinlari o‘zining barcha xilma-xilligi bilan unga yangi narsani bilish, o‘yin mazmunida aks etgan jihatga o‘z munosabatini bildirish imkonini beradi. Bola – o‘sib va rivojlanib boruvchi mavjudotdir.

O‘yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhdan boshlanadi. O‘yin ertalab nonushtagacha (15-20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, o‘yqudan keyin o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurish-yasash, harakatli o‘yinlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Mashg‘ulot o‘rtasida harakatli, qoidalı o‘yinlar o‘tkaziladi. Ular asosan, mashg‘ulotning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Sayr vaqtida ochiq havodagi o‘yinlardan foydalaniladi. Kunduzgi uyqudan keyingi o‘yinlarga qurilish o‘yinlari, ertak bo‘yicha qo‘yiladigan o‘yin, rolli, didaktik o‘yinlar kiradi.

O‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir. Pedagogika fani o‘ynni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O‘yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko‘nikma va malakalari, harakat usullari, axloq me’yorlari va qoidalalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladi. O‘yinda bolaning o‘z tengqurlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

O‘yin bolalarga ta’lim-tarbiya berishning metod va usulidir. O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o‘zining butun diqqatini o‘yinga qaratishi lozim. Bola o‘ynayotganida kishilar mehnati, ular-ning aniq harakatlari, munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Shunday qilib, o‘yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to‘g‘ri rahbarligida uning

tushunchalari kengayadi. Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda ona-vatanga, o‘z xalqiga, boshqa millat vakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalalarda jasurlik, rostgo‘ylik, o‘zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O‘yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo‘lgan munosabatni shakllantiruvchi maktab vazifasini bajaradi. Tarbiyachi bolalarning o‘yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z xohish-istiklarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o‘yinda o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o‘rganadi.

MTTda tashkil etiladigan bolalar o‘yini o‘zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko‘ra xilma-xildir, umumlashtirgan holda, uni ikki turga ajratish mumkin:

Ijodiy o‘yinlar qat’iy belgilangan qoidalarga ega bo‘lмаган va o‘yin qoidalariни bolalarning o‘zlari o‘yin jarayonida belgilaydigan o‘yinlar sanaladi. Odatta, bu kabi o‘yinlarni bolalarning o‘zlari o‘ylab topadi. O‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy o‘yinlar bir necha turli bo‘ladi. Ular Syujetli-rolli o‘yin o‘z xususiyatiga ega aks ettiruvchi faoliyatdir.

Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuniga manba bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur turdagи o‘yinlarning o‘ziga xosliigi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo‘lishidir. Buning uchun, albatta, bolalar biror narsa yoki voqeа to‘g‘risida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Masalan: bolalar “parovoz” o‘yinini o‘ynashmoqchi bo‘lishadi. Bunga o‘yining qanday borishi to‘g‘risida syujet (voqeaning borishi) kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog‘liq bo‘ladi. Bolada avval g‘oya tug‘iladi, keyin mazmuni rivojlanadi. Ba’zan bolalar o‘yining qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan: ular orasidan kim “parovoz”bo‘lishi, qolganlar uning orqasidan ergashishi, qayerga borganda navbat almashishlarini oldindan kelishib olishadi.

-Ijodiy o‘yinlar.

-Qoidalı o‘yinlar

MTTda qo‘llaniladigan bolalar o‘yinlarining asosiy turlari

-Syujetli-rolli o‘yinlar Sahnalaşdırılmış o‘yinlar

-Qurilish-yassashga doir o‘yinlar

Syujetli-rolli o‘yinlarda tarbiyachi yetakchi rol o‘ynaydi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib, ularning ijobjiy tomonlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi va bolalarni kerakli yo‘nalishda tarbiyalab borishi lozim. Tarbiyachi syujetli-rolli o‘yinlarga rahbarlik qilishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi lozim. Masalan:

- 1) bolalar o‘yiniga rahbarlik qilish uchun ularning o‘yinini bilish va har doim kuzatib borishi lozim;
- 2) tarbiyachi bolalarning o‘yin davomidagi muloqotlari, xatti-harakatlarini muntazam kuzatib, tinglab borishi lozim. Bu tarbiyachiga bolalarning qiziqishlari, xohish-istiklarini bilib olib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solish, ijobjiy xususiyatlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi;
- 3) syujetli-rolli o‘yinlarni o‘ynash uchun ma’lum joy ajratish lozim;
- 4) o‘yin jarayonida kerak bo‘ladigan o‘yinchoqlarni bolalar mustaqil o‘zları yasashlari uchun ularga kichkina yog‘och bo‘laklari, mix, loy, qog‘oz, karton, bo‘yoq va kerakli asboblar – bolg‘acha, qo‘larra, qaychi, pichoq kabilarni be-rish kerak. Biroq o‘yinchoqlar yasash ustida ishlash faqat tarbiyachining rahbarligi ostida bajarilishi lozim;
- 5) o‘yin mavzusini tanlashga yordam berish bolalarni o‘ynashga o‘rgatish usullaridan biridir; tarbiyachi bolalarning rolli o‘yinlari mavzusini boyitibgina qolmay, balki uning syujetini, mazmunini boyitish to‘g‘risida ham o‘ylashi kerak;
- 6) tarbiyachi bolalarning barchasi o‘yinga qatnashishlari to‘g‘rsida g‘amxo‘rlik qilishi kerak; o‘yinda ko‘pincha ular rol talashib bir-birlari bilan kelisha olmay qoladi; bolalarni bu kabi kelishmovchiliklarni haqqoniy echishga o‘rgatish lozim.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma’lum bir rolni bajarishiga, o‘yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so‘zlarining yod olinishiga asoslangan bo‘lib, bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni

tarbiyalashda samarali vosita sanaladi. Sahnalashtirilgan o‘yinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

I bosqich. Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlash. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

- 1) ertak yoki hikoyada qatnashuvchilar soni ko‘p bo‘lishi kerak;
- 2) asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim;
- 3) asar ifodali o‘qishga mos bo‘lishi kerak;
- 4) asar mazmuni qiziqarli va emotsiyal bo‘lishi zarur;
- 5) asar bolalarning yoshiga mos kelishi lozim.

II bosqich. Sahnalashtirish uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmunini o‘qib berish.

III bosqich. Asarni bolalar tomonidan eslab qolinishiga erishish: qayta o‘qib berish, har bir bolaning aytadigan gaplari ustida individual ish olib borish, rasmlar namoyish etish.

IV bosqich. O‘yin qiziqarli o‘tishi va uzoq davom etishi uchun o‘yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlash hamda rahbarlikni to‘g‘ri amalga oshirish.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo‘naltirib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan: o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi. Bolalarning qurilish, buyum yasash o‘yinlari rollarga bo‘linib o‘ynaydigan o‘yining tarkibiy qismidir. Biror narsani qurish bolalarni o‘z fikrlarini ro‘yobga chiqarish usulidir.

Qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda bolalarning texnikaga qiziqishi ortadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, ular geometrik jismlarning eng oddiy xususiyatlari bilan tanishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘risida”gi Qonuni.Toshkent 2019yil 26 –dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi. PF-5198-sonli Farmoni.
- 3.Prezident Shavkat Mirziyoevning 2018- yil 19-oktyabr kuni maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan selektor yig‘ilishi materiallari.
4. «Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari». – T.: 2017
5. “TAKOMILLASHGAN ILK QADAM” MTT ning Davlat dasturi.T.: 2022.
- 6.Fayzullayev Sh.N. ”Islohotlar samarasi: TAJRIBA, MALAKA, TEXNOLOGIYA”// Maktabgacha ta’lim, Toshkent. 2018,12-son,2-5 betlar.
7. Fayzullayev Sh. “Maktabgacha ta’lim tashkikotlarida bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha innovatsion faoli- yatga yo‘naltirish”o‘quv uslubiy qo‘llanma, Samarkand -2020,-100 bet. MTT mutaxassislari va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘jallangan.
8. Mardonov E., Ostonov Q., Fayzullayev Sh. Maktabgacha ta’limda matematik o‘yinlarni tashkil etish. (o‘quv-uslubiy qo‘llanma) .Samzard, SamDU nashri, 2019. – 92 bet.
9. Fayzullayev Sh. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi (maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun) o‘quv qo‘llanma.Samarkand,SamDU nashri, 2020.-140 bet.

DARS MASHG‘ULOTLARIDA TARQATMA MATERIALLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Mamatkulova Dilfuza Xamidovna
Samarqand shahri 14-IDUM o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dars mashg‘ulotlarida tarqatma materiallardan samarali foydalanishning maqsadi, vazifalari va usullari haqida ma’lumot eriladi

Kalit so‘zlar: dars, tarqatma material, kreativ, topshiriq, ko‘rgazmali vosita, metod

Ma’lumki, dars mashg‘ulotlarida tarqatma materiallardan samarali foydalanish juda muhim ahamiyatga ega hamda ularni tayyorlash pedagogdan sabr-toqat , kreativ yondashuv va mahorat talab etadi.

Tarqatma materiallar sifatida berilgan topshiriqlar ta’lim oluvchilarning dars jarayonida individual juftlikda yoki guruh bo‘lib hamkorlikda ishlashiga, berilgan topshiriqlarni hamjihatlikda bajarishiga, vaqtadan unumli foydalanishiga imkon beradi.

Shuningdek, tarqatma materiallar yordamida bir vaqtning o‘zida muhokama qilinayotgan savolni axborotni ham eshitish, ham ko‘rish orqali qabul qilish shubhasiz, ta’lim oluvchilarning puxta bilim olishlariga va o‘z navbatida ushbu egallangan bilim ular xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi.

Bugungi kunda dars mashg‘ulotlarida tarqatma materiallardan foydalanish tobora keng qo‘llanilmoqda va buning samarali hamda ijobiy tomonlari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Darsda ta’lim oluvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini birdek shakllantirishda pedagogdan ulkan mahorat talab etiladi. Bunday paytda mavzuga oid ma’lumotlarni, Grammatik qoidalarni, berilgan matnlarni tarqatma material sifatida yetkazib berish muhim rol o‘ynaydi.

Tarqatma materiallar-bu har qanday ko‘rgazmali vositalar bo‘lib, bu diagrammalar, chizmalar, jadvallar, fotosuratlar, taqdimot slaydlari va boshqalar bo‘lishi mumkin. Tarqatma materiallarni tayyorlash va qo‘llashda quyidagi qoidalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- matn shrift 12 dan kichik bo‘lmasligi;
- sarlavhalarni bosh harf bilan yozish;
- bir betda 80 tadan ko‘p belgi (harf, qavs, undov belgisi va hokazo) ishlatmaslik;
- matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo‘lishi;
- varaq dizayni e’tiborni o‘ziga tortishi;
- tarqatish jarayonida me’yorni unutmaslik va shu kabilar.

Tarqatma materiallar yordamida o‘tiladigan mavzuning asosiy mazmunini berish, olingan axborotni dars davomida va darsdan tashqarida ta’lim oluvchilar bilan mustaqil muhokama qilish, ular diqqatini mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga qaratish, ularni darsga faol jalb qilish, ularning olgan bilimlarini nazorat qilish va sinash mumkin.

O‘quvchilarga mavzuni yetkazishda tarqatmalarining o‘rni katta ahamiyatga ega, albatta. Chunki bunda o‘quvchilarda mavzularni tezroq tushunib olish va eslab qolishi uchun yordam beradi. Darslar ham juda qiziqarli, mazmunga boy tarzda o‘tadi.

Darsda tarqatma materiallardan foydalanish o‘quvchilarning ta’limiy jarayonini yaxshilash uchun samarali usullardan biri hisoblanadi. Quyida darsda tarqatma materiallardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni keltiramiz:

1. Mavzuga mos tarqatma materiallar tanlash. Darsning maqsadi va mavzuga mos keladigan tarqatma materiallarni tanlash kerak.
2. Tarqatmalarни o‘quv jarayonida samarali foydalanish. Tarqatma materiallarni o‘quvchilarning darsga faol jalb qilish uchun, yangi mavzuni o‘rganish yoki mustahkamlashda foydalanish mumkin.
3. Tarqatmalar mazmuni va ko‘rinishiga e’tibor berish. Tarqatma materiallar aniq, tushunarli va ko‘rgazmali bo‘lishi kerak. Ularning mazmuni va dizayni o‘quvchilarga qulay bo‘lishi kerak.
4. Tarqatma materiallarni taqsimlash. Tarqatma materiallarni o‘quvchilarga to‘g’ri va oqilona taqsimlash kerak. Buning uchun har bir o‘quvchiga yetarli miqdorda tarqatma material berish maqsadga muvofiq.
5. Tarqatma materiallarni saqlash va qayta foydalanish. Darsda foydalanilgan tarqatma materiallarni to‘g’ri saqlash va keyingi darslar uchun qayta foydalanish mumkin.
6. Tarqatma materiallardan foydalanish samaradorligini baholash. Dars jarayonida tarqatma materiallardan foydalanish samaradorligini baholash va keyingi darslar uchun yangilash kerak.

Darsda tarqatma materiallardan maqsadli va samarali foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirishini yaxshilashga hamda darslarda qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Demak, tarqatmalardan samarali foydalanish orqali biz o‘quvchilarga ta’lim-tarbiyadan tashqari, fasllar, o‘yinchoqlar, internetdan samarali foydalanish, jismoniy harakatlar, tevarak-atrof bilan tanishish, shaxsiy gigienaga rioya qilish kabi ma’lumotlar bilan ham tanishtirib boramiz.

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida tarqatmalarining turli xillari keng qo‘llanilmoqda. Tarqatmalarini qo‘llash jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu tarqatmalarining har birini darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Barkamol fayz media, 2018
2. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий қутубхонаси нашриёти, 2010
3. Matchonov S., G‘ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: Yangiyul poligraph service, 2008.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

*Yuldasheva Nasiba Zokirovna
Kattaqo ‘rg ‘on tuman 41- maktab o ‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanishning metodik xususiyatlari yoritib berilgan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida 4K ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan didaktik o‘yinlar sharhlangan. Didaktik o‘yinlardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, o‘yin, didaktik o‘yin, o‘quvchi faoliyati, ijodkorlik, o‘yin qoidasi, hamkorlik.

Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir. O‘yinsiz tom ma’nodagi aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. O‘yin o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadigan uchqundir. O‘yin - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan usul hisoblanadi. O‘yin vositasida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

O‘yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o‘quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlari shakllanadi. O‘yin orqali bolalar borliqni o‘rganadi va dunyonni o‘zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o‘yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O‘yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O‘yining eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta’sir etish ehtiyoji paydo bo‘ladi va shakllanadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to‘g‘ri va samarali metodidir. U ma’lum bir materiallar

yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o‘qituvchidan o‘yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi.

“O‘zim tekshiraman”

Bunday o‘yinlar o‘tkazishda o‘qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Bunday o‘yinlarni har bir boshlang‘ich sinfda darsning avvalida o‘tkazish mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o‘quvchilar yozib bo‘lishgach o‘qituvchi hattaxtaga diktant yozib ko‘rsatadi. Diktant hattaxtaga oldin yozilib, usti yopib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qituvchi pardani ochadi. O‘quvchilar esa o‘qituvchi yozganiga qarab o‘zlarining diktantini tekshiradi.

“Kim ko‘p so‘z biladi”

Bu o‘yin o‘quvchilarning lug‘at boyligini o‘stirishga yordam beradi. Buning uchun sinf ikki guruhga bo‘linadi va 1-guruh o‘quvchilariga boshlanishi va tugallanishi bir xil unlidan tashkil topgan, ikkinchi guruhga esa xuddi shunday: bir xil undosh bilan boshlanib , shu undosh bilan tugallangan so‘zlarni doskaga yozish topshiriladi.

Masalan: 1-guruh “ikki”, “alla”, “ukku”, 2-guruh esa “qiziq”, “katak” kabi so‘zlarni yozishi mumkin. O‘yin shartiga ko‘ra, guruhlardagi o‘quvchilar navbat bilan shartni bajaradilar. So‘z topolmay yozishdan to‘xtab qolgan guruh yutqazgan hisoblanadi.

“Jumlani davom ettiring”

O‘yin qoidasiga ko‘ra, birinchi o‘quvchi qisqa biror gap aytadi, boshqa biror o‘quvchi aynan shu gapga boshqa biror gap qo‘shib boraveradi.

Masalan:

1- o‘quvchi; Men hikoya qildim.

2-o‘quvchi; Men qiziqarli hikoya o‘qidim.

3-o‘quvchi; Men kecha qiziqarli hikoya o‘qidim va h.k.

So‘z qo‘sha olmagan yoki hatoga yo‘l qo‘ygan o‘quvchi o‘yinni tark etadi. 6-7 daqiqa mobaynida o‘yin davomiyligini ta’minlab turgan o‘quvchilar g‘olib bo‘ladi va baholanadi.

“Kim nima qiladi?”

O‘quvchilar guruhga bo‘linadi va har bir guruhdan bittadan o‘quvchi doskaga taklif etiladi. Birinchi guruh ishtirokchisi “Kim?” yoki “Nima?” so‘roviga javob bo‘ladigan so‘zlarni yozsa, ikkinchi guruh ishtirokchisi “Nima qiladi?” so‘roviga javob bo‘ladigan so‘zlarni qayd etadi. Natijada quyidagi yig‘iq gaplar hosil bo‘ladi.

1-guruh	2-guruh
O‘qituvchi	O‘qitadi
O‘quvchilar	O‘qiydilar
Qush	Sayraydi
Shamol	Esadi
Gul	O‘sadi
Paxta	Ochiladi
Yomg‘ir	Yog‘adi
Quyosh	Isitadi

“Bo‘lishi mumkin emas”

Bu o‘yinni o‘tkazishda o‘qituvchi matnni o‘qiydi. O‘quvchilar bo‘lishi mumkin bo‘lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim.

Hazil-mutoyiba bilan o‘tadigan bu o‘yin ham o‘quvchilardan ziyraklik, sinovchanlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarga befarq bo‘lmaslikni ham talab qiladi. Undan tashqari ularning darsdan tashqari bo‘lgan ilmiy va badiiy adabiyotlarga va ilmiy-ommabop filmlarga qiziqishni orttiradi va hikoya tinglash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

1-variant: Dushanba dam olish kuni bo‘lgani uchun Olim mакtabga bormadi. U singlisi Vazira bilan hayvonot bog‘iga bordi. Ular hayvonot bog‘ida suvda suzib yurgan sherni qafasda sayrayotgan baliqlarni va kattakon vahshiy bulbulni ko‘rdilar.

2-variant: Ibratjon yozgi ta’til kunlarida buvisinikiga dam olgani bordi. U qishloqda o‘rtoqlari bilan qor bo‘ron o‘ynadi. Buvisiga sigirlarga don berishda yordamlashdi. Buvisi sigir sog‘ayotganda sigirning uloqchasini ushlab turdi.

3-variant: Abdulla juda bilimli bola. U bugun ham topshiriqni juda yaxshi bajardi. O‘qituvchi uni maqtadi va “nol” ball qo‘ydi. Abdulla yaqinda 2-sinfni tugatib, 1-sinfga o‘tdi.

“Oltin toj”

Ushbu o‘yinni oyda bir marta o‘tkazib turish o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga, o‘quvchilar bilimining darajasini aniqlashga, bilim olish ishtiyоqini, intilishini kuchaytirishga yordam beradi. Biroq yil davomida oltin toj sovrindori bo‘lib yurish kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga ko‘tarinki ruh beradi, ularning darsga, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ta’limiy o‘yinlardan foydalanish samarali natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi.

Adaiyotlar ro‘yxati

1. Baltayeva A.T. Adabiyot darslarida o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 50 b.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2017. – 255-b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHNING INTERFAOL METODLARI

**Ibragimova Nafisa Baxranovna
Samarqand shahar 74-maktab o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda matematika o‘qitish metodikasi, maqsad va vazifalari, tamoyillari, ta’lim metodlarining tasnifi, matematika fanlarini o‘qitish jarayonida o‘qitish metodlari, interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik va axborot

texnologiyalardan foydalanish, matematikani o‘qitish shakllari, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish masalalari yoritilgan. Boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich matematika, matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi, matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi, matematika o‘qitishning amaliy maqsadi, texnik vosita va ko‘rgazmali qurollar, “Fikriy hujum” metodi, “Yalpi fikriy hujum ” metodi, “fikrlarning shiddatli hujumi” metodi, “6x6x6 ” metodi, “Kuzatish metodi”.

Boshlang‘ich matematika kursining vazifasi matab oldiga qo‘yilgan o‘quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, turmushga, kasb-hunarga yo‘naltirish, kasblarni ongli tanlashga o‘rgatish” kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat.

Shunday qilib, boshqa har qanday o‘quv predmeti kabi matematika boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi.
2. Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

a) o‘quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar matematika fani to‘g‘risida o‘quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlashi kerak.

Bundan tashqari, dastur asosida o‘quvchilar o‘qish jarayonida olgan bilimlarning ishonchli ekanligini tekshira bilishga o‘rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim.

b) o‘quvchilarning og‘zaki va yozma matematik bilimlarni tarkib toptirish lozim bo‘ladi;

Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida nutq madaniyatini to‘g‘rishakllantirish, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak.

d) o‘quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o‘rgatish.

Bunday bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Boshlang‘ich matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- a) o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
- b) o‘quvchilarda matematikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni tarbiyalash.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

- d) o‘quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish.

Matematika darslarida o‘rganiladigan ibora, amal belgilari, tushuncha va ular orasidagi qonuniyatlar o‘quvchilarni atroflicha fikrlashga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning amaliy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

a) o‘quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o‘rgatish, o‘quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatish,

b) matematika o‘qitishda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan.

- d) o‘quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallahsga o‘rgatish.

O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari etadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak.

O‘qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va h.k. bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqr ishlab chiqilgan.

Boshlang‘ich mакtabda matematika o‘qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilardan individual yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‘ich mакtab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli mакtab uchun mo‘ljallangan) o‘qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‘proqdir.

Boshlang‘ich mакtab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo‘yicha tabaqlashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g‘oyasiga ko‘ra ma'lum mavzu bo‘yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o‘quvchining bu mavzuni faqat o‘zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to‘la aniqlangan darajada o‘zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi.

Amaliyotda o‘qituvchilar ko‘pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddarоq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san’atkorona tuzilgan bo‘lmасin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqr g‘oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas, chunki hech qanday

o‘rgatuvchi mashina o‘qituvchining intuisiyasini, ya’ni hissiyotini almashtira olmaydi.

Shunday qilib, didaktik materiallarni o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, mazkur o‘qituvchi uchun eng yaxshi usul bo‘lmasligi ham mumkin. Shu sababli didaktik materiallar o‘qituvchini o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir.

O‘quvchilarni matematika kursini o‘rganishga tayyorlash.

I-IV sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifasi bo‘lgan ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagি matematika kursi bo‘yicha qanday darajada tayyorgarligi borligiga bog‘liq

Shuning uchun 1-sinfga kelganlarning bilimlarini aniqlash, sinf o‘quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya’ni past bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o‘quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi. O‘qituvchi quyidagi tartibda o‘quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:

1. Nechagacha sanashni biladi?
2. Nechagacha sonlarni qo‘shishni biladi?
3. Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?.
4. >, <, = belgilarini ishlata oladimi?
5. Noma'lumlar bilan berilgan qo‘shish va ayirishda bu noma'lumlarni topa oladimi?
6. Qaysi figuralarning nomlarini biladi va chiza oladi?
7. Nechagacha sonlarni yoza oladi?
8. O‘ngga, chapga, kam, ko‘p, og‘ir, engil, teng kabilarni farqlay oladimi?
9. Pul, narx, soat, minut, uzunlik, og‘irlik o‘lchov birliklari bilan muomala qila oladimi?

Bolalarni o‘qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operasiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday ishlar o‘quvchilarnig og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilaming o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Quyida amaliyotida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so‘z yuritamiz.

"Fikriy hujum" metodi

Mazkur metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minalash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

"Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta‘qilash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minalashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘laming kengligiga bog‘liq bo‘ladi.

"Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg‘ulot bir saotga qadar tashkil etilishi mumkin.

"Yalpi fikriy hujum " metodi

Ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20- 60) nafar o‘quvchilardan iborat sinflarda qo‘llash mumkin.

Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlarga 15 daqqa ichida ijobjiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil to pshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobjiy hal etilgach, bu haqida guruh a’zolaridan biri axdorot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruhlar a’zolarining faoliyatlarini ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

"Fikrlarning shiddatli hujumi " metodi

"Fikrlarning shiddatli hujumi" metodi Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan.

Metodning mohiyati quyidagidan iborat:

- jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;
- o‘quvchilarda ma'lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g‘oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iborat.

"Fikrlarning shiddatli hujumi" metodidan foydalanishga asoslangan mashg‘ulot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1-bosqich: Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilarni o‘zida biriktirilgan hamda son jihatdan teng bo‘lgan kichik guruhlarni shakllantirish;

2-bosqich: Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash;

3-bosqich: Guruhlar tomonidan muayyan g‘oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlar hal etilishi);

4-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini muhokama etish, ularni to‘g‘ri hal etilganligiga ko‘ra turkumlarga ajratish;

5-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya’ni ularning to‘g‘riliqi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayoni etilishi kabi mezonlar asosida baholash;

6-bosqich: Dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- o‘quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;

- vaqtini iqtisod qilish;
- har bir o‘quvchini faollikka undash;
- ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

"6x6x6 " metodi

"6x6x6" metodi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalgan etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtiroychi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o‘z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

"6x6x6" metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

- guruhlarning har bir a'zosining faol bo‘lishiga undaydi;

- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhim, mashg'ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20 daqqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida "6x6x6" metodi qo'llanilganda vaqt ni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotganda mashg'ulotlarda quruqlar tomonidan bir yoki bir necha mavzuni qilish imkoniyati mavjud.

"6x6x6" metodidan ta'lif jarayonida foydalanish o'qituvchidan faoliik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu metodyordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo'yib chiqadi.
2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadi. O'quvchilarni guruhlaga bo'lishda har o'rindiqni nomlab, nomlangan varaqchalarni olganlar o'z o'rinaligiga joylashadilar
3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi va guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.
4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rnlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'ruqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan

berilgan topshiriqlarning to‘g‘ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so‘raydi.

Kuzatish metodi- ob’ektni o‘rganishda unga ta’sir etmasdan bilish metodidir. Bunda ob’ektning xossasini, qayd etish va o‘lchash bilan chegaralaniladi, uning o‘zgarishi kuzatiladi (masalan, keskichning yeyilishini kuzatish). Tadqiqot natijalari bizga real ob’ektlarning ob’ektiv xossa va aloqalari haqida ma’lumot olish imkoniyatini beradi. Ushbu natijalar tadqiqotining ixtiyori, hissiyoti va xohish-irodasiga bog‘liq emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumayev E.E, Boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. “Turon-iqbol,” 2011 yil
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.
3. Jumayev M. E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishn nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. “Ilm Ziyo” 2009 yil
4. Jumayev M.E. Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi. Toshkent. “TDPU” 2005 yil.

O‘QUVCHILAR TARBIYASIDA MAQOLLARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI

*Imomova Tuydligul Usmonovna
Urgut tumani 21-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada bola tarbiyasida maqollarning o‘rni haqida fikr yuritilgan

Kalit so‘zlar. Maqol, kitobxon, odob, salom, maktab, insonparvarlik, mustaqil fikr

Bolalar kitobxonligi, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalarning o‘qish-u xulq-odoblariga ko‘proq e’tibor berish, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan muttasil shug‘ullanish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shu bois bugun sizlar bilan bolalar tarbiyasida maqollarning o‘rni haqida qizqacha fikr yuritsam.

Bolalar xalq og‘zaki ijodida maqollar yetakchi o‘rinda turadi. Xalq yaratgan g‘oyat ixcham, chuqur va tugal ma’noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko‘zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, olivjanob, mehnatkash kishining biror voqeа-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko‘proq bolalar uchun) yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda.

Maqollar chuqur ma’noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o‘zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari o‘ziga xos shaklda aks etgan bo‘ladi. Shu sababdan ular bolalarni to‘g‘ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo‘nda bayon etishga o‘rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab olishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so‘z boyligini ham oshirishga ko‘maklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, deyarli barcha maqollarda, birinchi navbatda, bola tarbiyasi — odob yotar ekan. E’tibor bering:

“Avval salom, ba’daz kalom”, “Avval o‘yla, keyin so‘y- la”, “Bola aziz -odobi undan aziz”, “Inson odobi bilan, os-mon oftobi bilan”, “Odob bozorda sotilmas”, “Odobning boshi til”, “Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l”, “Yaxshi xulq kishining husni”, “Ustozingga tik qarasang, to‘zasan, hurmat qilsang, asta-sekin o‘zasan”, “To‘g‘ri o‘zar, egri to‘zar”. Bunday iboratomuz maqollar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Bola to‘g‘riso‘z, odobli, aqli bo‘lib kamol topmog‘i lozim. Ana shunday bola bor ovoz bilan:

Ong ko‘zimiz ochamiz,

Tong ko‘zimiz ochamiz.

Boqamiz keng olamga,

Barchaga teng olamga! —

deydigan bo‘ladi. Ularning harakat, intilish, kurashlarida yuqoridagi maqollarning o‘rni, albatta, katta bo‘ladi.

Bola kamolotida, birinchi navbatda, salom-alik turadi. Salom-alikni o‘rgangan, uni kanda qilmaydigan har bir bolaning ishi yurishadi, omadi chopaveradi. Axir xalq: „Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi“, deb bejiz aytmagan. Har qanday holatda ham salom og‘irni yengil qiladi, oldindagi to‘sinq va g‘oyalarni zabit etishda madadkor bo‘ladi. Salom-alikni dillariga jo qilib olgan bolalar hech qachon kam bo‘lmaydilar.Ko‘plab ertaklarimizda uchraydigan odamzod dushmanlari-devlar, jinlar, yalmog‘iz kampirlar, ajdarlar huzuriga odamzod borib salom bergenida ham ular „Gar saloming bo‘limganda ikki yamlab bir yutardim“, deydilar.

Qadimgi bu o‘gitlardan foydalanib boshlang‘ich sinf o‘quvchisi birinchi sinfga kelishi bilan assalomu-alaykum so‘zining ma’no mazmuni va aytish joiz bo‘lgan joylari haqida fikr yuritadi. Gapimizning isboti sifatida Tolib Yo‘ldoshning ushbu she’ri misol tariqasida ko‘rsatamiz.

Yo‘l ustida uchragan

Kishiga bersang salom.

Alik olib avvali, so‘ngra

Der: “Rahmat, bolam”.

Salomsiz o‘tsang agar,

Sho‘rlik soqov ekan der.

Tiling bo‘lgach, albatta,

Kattalarga salom ber.

Bolalar xalq og‘zaki ijodining, ayniqsa, maqollar janrida kichkintoylarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga mo‘ljallangan asarlar alohida o‘rinda turadi. Bu mavzudagi maqollarning ko‘pchiligi bola hali mакtabga chiqmasidan oldinoq ularga tanishtiriladi. Ko‘pincha, bu davr bolalariga Vatanni sevish, unga hurmat qilish g‘oyasi jonivorlar, parranda-yu darrandalar misolida bo‘ladi.

„Vatani borning-baxti bor“, „Tug‘ilgan yering-Vataning“, „Ot aylanib qozig‘ini topar“, „Vatansiz inson-kuysiz bulbul“, „Ko‘lning otini balig‘i chiqarar“, „Baliq suv bilan tirik, odam-el bilan“, „Bulbulga bog‘yaxshi, kaklikka tog““, „Har ko‘katning o‘z suygan tuprog‘i bor“, „Har toycha o‘zi suv ichgan bulog‘ini maqtar“, „Har gulning o‘z isi bor, har elning o‘z tunsi bor“, „Qush ham ketsa keladi, o‘z elini sevadi“ kabilalar shular jumlasiga kiradi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darsliklarida har bir mavudan keyin shu mavzuga mos maqollar keltirilgan.

Xalq maqollarida yaxshilik, halollik, to‘g‘rilik va rostgo‘ylik ulug‘lanib, yomonlik, yolg‘onchilik, qalloblik qoralanadi.

Yuqoridagi sharhlardan ko‘rinadiki, xalq maqollarini qo‘llab, yetti o‘lchab bir kesib yashagan inson hech qachon kam bo‘lmaydi. Shu tariqa maqol janri takomillashib, bolalarning ong-tushunchalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va ifodali o‘qish. Voris-nashriyot.
Toshkent — 2017

O‘QUVCHILARINI MISTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA INTERFAOL DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

*Rustamova Xurshida Ismatovna
Nurobod tumani 2-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini erkin fikrlashga o‘rgatishda interfaol o‘yinlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan

Kalit so‘zlar: Interfaol metod, interfaollik, dars jarayoni, didaktik o‘yin, o‘qituvchi, o‘quvchi, guruh

Interfaol o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va

rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o‘yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqli) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi .

Bu metod o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof –muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘sislarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi .

Interfaol o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlanadiradi.

Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko‘ra, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ajratiladi.

Interfaol o‘yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi.

- ishtirokchilarni tarkibi bo‘yicha, ya’ni o‘g‘il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o‘yinlar :

- ishtirokchilarning soni bo‘yicha –yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o‘yinlar :

- o‘yin jarayoni bo‘yicha fikrlash, o‘ylash, topa g‘g‘onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan;

- vaqt me’yori bo‘yicha - dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan o‘yinlar.

Interfaol usullarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;
 2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;
 3. O‘z-o‘zini fikrlashga majbur etish;
 4. Faollashtirish;
 5. O‘quvchilarni tashkilotchilik va yo‘naltiruvchanlikka undash;
 6. Do‘stona munosabatlarni shakllantirish;
- Interfaol metodlarni qo‘llashda foydalaniladigan vositalar:
1. Darsliklar, qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar.
 2. Texnika vositalari.
 3. Tarqatma materiallar.
 4. Multimediyalar.
 5. Slaydlar.
 6. Ko‘rgazmali qurollar.
 7. Didaktik o‘yinlar.

O‘quvchi shaxsiga qaratilgan ta’lim, o‘quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, mustaqilligini, erkinligini ta’min etish, qiziqishlari asosida (motivatsiya) ish yuritish, ichki imkoniyatlarni ishga solish, o‘z qiziqishlari orqali qo‘shimcha ta’lim olishga yo‘llash, o‘z- o‘zini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Ayrim didaktik o‘yinli dars shakllari:

«Tekshiraman» o‘yini

Bunday o‘yinlarni o‘tkazishda o‘qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Boshlang‘ich sinflarning har bir sinfida darsning boshlanishida qo‘llash mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o‘quvchilar diktantni yozib bo‘lishgach, o‘qituvchi doskaga diktantni yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar esa o‘qituvchining yozganiga qarab, o‘zlari yozgan diktantlarini tekshiradilar. Diktant oldindan doskada yozilib, usti yopib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qituvchi pardani ochadi. Bunday diktantlarni hatto alifbe davrida ham qo‘llash mumkin bo‘lib, o‘qituvchi avval faqat harflardan, so‘ng (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo‘g‘inlardan iborat diktant yozdirishi mumkin.

1-variant: Oo, Ii, Uu, Aa, O‘o‘

2-variant: -Lo, -no, -to, -mi, -un, -in

3-variant: Bola, lola, ona, zar, par

4-variant: Bugun havo issiq.

«So‘zning boshiga bir tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qilsh» o‘yini .

Bu o‘yining talabiga asosan o‘quvchi ma‘lum bir olingen so‘zning boshidan bir tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qiladi. Ba‘zi undosh bilan boshlangan so‘zdan avval unli tovushni qo‘sish yoki unli bilan boshlangan so‘zdan oldin undosh tovush qo‘sish orqali yangi so‘z hosil qilinadi.

<i>Son - o +son</i>	<i>o ‘lka- <u>yo</u>‘lka</i>
<i>ola - <u>lola</u></i>	<i>ota -<u>bota</u> - <u>nota</u></i>
<i>ayiq- <u>qayiq</u></i>	<i>or- <u>bor</u> - <u>tor</u></i>
<i>o‘roq - <u>so‘roq</u></i>	<i>osh - <u>qosh</u>- <u>mosh</u> .</i>

Ushbu o‘yinda ayrim so‘zlarga tovush qo‘sish orqali bitta so‘z hosil qilish mumkin bo‘lsa (son- oson) , ba‘zi so‘zlardan bir qator so‘zlar tuzish mumkin. O‘yinni butun sinf bilan ham, o‘quvchilar guruhlari tuzib musobaqa tarzida ham o‘tqazish mumkin.

«So‘z top» o‘yini

Omon , makaron , momiq kabi so‘zlarni o‘qituvchi aytadi. O‘quvchilar kesma bo‘g‘inlardan berilgan so‘z tarkibidagi m harfi qatnashgan bo‘g‘inni topadilar. ma-, -mon, -mo, -ma, -mo‘. Shu bo‘g‘inlar asosida yangi so‘zlar tuzish topshiriladi.

O‘quvchilar topish mumkin bo‘lgan so‘zlar.

<i>-ma</i>	<i>-mon</i>	<i>-ma</i>	<i>-mo</i>
<i><u>mana</u></i>	<i><u>omon</u></i>	<i><u>nima</u></i>	<i><u>omonat</u></i>
<i><u>mashina</u></i>	<i><u>tomon</u></i>	<i><u>naima</u></i>	<i><u>momo</u></i>
<i><u>Malika</u></i>	<i><u>kamon</u></i>	<i><u>olma</u></i>	<i><u>xurmo</u></i>

Mazkur didaktik o‘yinlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga, bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo‘lish, jasur, qat’iyatli bo‘lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘afforova T. “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, “Tafakkur”, 2020-yil.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2021.
3. Uralov A. “Interfaol ta’lim”. Guliston, 2022
4. Uralov A. “Ta’limiy metodik o‘yinlar”. Guliston, 2021

**BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA DIDAKTIK
O‘YINLARNING AHAMIYATI**

*Shukurova Gulgona
Samarqand tumani 3-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini erkin fikrlashga o‘rgatishda interfaol o‘yinlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar:, interfaollik, dars jarayoni, interfaol metod didaktik o‘yin, o‘qituvchi, o‘quvchi, guruh

Boshlang‘ich ta’limda motivlar hosil qilishda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir. O‘yinsiz tom ma’nodagi aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. O‘yin o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadigan uchqundir. O‘yin boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan usul. O‘yin vositasida o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xilpredmetlar bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. O‘yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusidao‘quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O‘yin orqali bolalar borliqni o‘rganadi vadunyonni o‘zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib o‘yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O‘yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon

qiladi. O‘yining eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyogata‘sir etish ehtiyoji paydo bo‘ladi va shakllanadi.

Maktab yillarida o‘yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O‘quvchilarning o‘yin faoliyati juda ko‘p soha olimlarining, ya’ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san’atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi. Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o‘yin hal qiluvchi ahamiyatga egadeb qaraladi. Faqat o‘yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda vao‘zaro ta’sirda shakllanadi. O‘yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq bosqichiga o‘tish uchun muhim zamin yaratadi.

Didaktik o‘yin o‘rganilayotgan voqeа va hodisalarning immitatsion modeliyaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O‘yining boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o‘yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o‘quv faoliyatidir. Didaktik o‘yinda o‘quvchilarning o‘zlashtirishini hisobga olgan ta’limiy vazifalarning bo‘lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o‘yinlarning u yoki bu shaklini yaratara ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to‘playdigan turlariga e‘tibor qaratishlari lozim. Didaktik o‘yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uningtarkibi qat’iyligidir. Didaktik o‘yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o‘yinmantig‘i, o‘yining harakati, o‘yin qoidasi.

O‘yin mantig‘i asosan uning sarlavhasida aks etadi. O‘yin harakati jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini namoyon qilishiga, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratiladi.

O‘yin qoidasi o‘yin jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. U o‘quvchilar xulqini ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o‘yinlarda ma‘lum bir natijaga erishiladi, uning finalini, ya’ni uning tugaganligini bildiradi. O‘yinda ma‘lum bir didaktik maqsad qo‘yiladi va bu maqsadga erishilishi o‘quvchilarda ma‘naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o‘yinlar hamma vaqt ham o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirishi yoki

o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash ko‘rsatgichi hisoblanadi. Didaktik o‘yinlarning hamma tarkibiy komponentlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan birortasining bo‘lmasligi mumkin emas.

Xalq pedagogikasida shakllanib kelgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda didaktik o‘yinlardan keng foydalanish an’analari o‘qituvchilarining amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlantirildi. Chex pedagogi Y.A. Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta’kidlab, aynan o‘yin bolaning tabiatini va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o‘yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o‘stirishini ta’kidaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikdagi o‘yin uni tengdoshariga yaqinlashtiradi.

Bolalar tarbiyasida didaktik o‘yinlardan ikki yo‘nalishda foydalaniladi: barkamol insonni shakllantirish va tor didiktik maqsadlarda. O‘yin o‘quvchi faoliyatining asosiy shaklidir. O‘yin – muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchining turlituman qobiliyatlari, idroki, nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan tayyor mazmun va qoidalarga ega bo‘lgan o‘yinlar yaratilmoqda. Bola shaxsida ma‘lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan o‘yinlarda aniq qoidalar berilgan bo‘ladi. Tayyor qoida va mazmunga ega bo‘lgan o‘yinlarga quyidagi xususiyatlar xos bo‘ladi: o‘yin g‘oyasi va vazifasi o‘yin ta’sirida amalga oshiriladi. O‘yin g‘oyasi (yoki vazifasi) va o‘yin ta’siri o‘yinmazmunini tashkil etadi; o‘yin ta’siri va o‘ynayotganlar munosabatlari o‘yin qoidasiasosida boshqariladi. Qoidalar va tayyor o‘yin mazmuni o‘quvchilarini o‘yinni mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi. Didaktik o‘yinlarni uch turga ajratish mumkin: og‘zaki, so‘zlar yordamida o‘ynaladigan o‘yinlar, o‘yin mashg‘ulotlari, mashq(harakatli) o‘yinlar.

Didaktik o‘yinlar uchun o‘yin g‘oyasi va o‘yin vazifalari muhim ahamiyatga ega. Didaktik o‘yining eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi. Qoidani bajarish jarayonida o‘yin mazmuni amalga oshadi. Qoidaning mavjudligi o‘yin ta‘sirini amalga oshirish va o‘yin vazifasini qo‘llashga yordam beradi. Qoidani bajarish jarayonida o‘yin mazmunini amalga oshirish dunyoqarashi shakllanib boradi. Didaktik o‘yinda o‘quvchi qoidalarga rioya qilishga o‘rganadi. Chunki qoidalarga rioya qilish o‘yin muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. O‘yinda qatnashish jarayonida ijobjiy xulqiy sifatlar, tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi.

Foydalanilgan material turlariga qarab ham didaktik o‘yinlarni uch turga ajratish mumkin: predmetli o‘yinlar, stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar, so‘zlar vositasida o‘ynaladigan og‘zaki o‘yinlar.

Predmetli o‘yinlar – xalq didaktik o‘yinchoqlari, turli tabiiy mozayka materiallari yordamida o‘ynaladigan o‘yinlar. Bular yordamida o‘qituvchi o‘yin turlarini belgilaydi. Masalan, tabiiy materiallar bo‘laklaridan butun manzarani hosil qilish,

Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar atrof-muhit haqidagi tasavvurlarning kengayishiga, o‘quvchilarni bilimga qiziqtirishga, tafakkur jarayonlarini (analiz, sintez, umumlashtirish, tasniflash va boshqalar) rivojlantirishga xizmat qiladi. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlarning bir necha turlari mavjud: o‘xshash suratlar, loto, domino, kesma suratlar, taxlama kubiklar.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to‘g‘ri va samarali metodidir. U ma’lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o‘qituvchidan o‘yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi. O‘yining ma‘lum bir tizim va metodika asosida tashkil etilishigina o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. O‘yin mashg‘ulotlari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanadi va shundagina o‘quvchilar o‘yining samarali yechimlarini topabiladilar, o‘zlari va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar.

O‘yindan ta’lim shakli sifatida foydalanish o‘qituvchidan o‘ziga ishonch va o‘yinni qo‘llashda mohirlik talab etadi.

Didaktik o‘yinlar bir qancha vazifalarni bajaradi:

- ta’limiy, tarbiyaviy (o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi, tafakkurini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi);
- qo‘llanuvchanlik (aniq vaziyatda har qanday o‘quv topshiriqlarini bajarish uchun bilimlarni qo‘llay bilish);
- motivni qo‘zg‘ash, qiziquvchanlikni oshirish o‘quvchilarni bilish faoliyatiga qiziqtiradi, rag‘batlantiradi, bilish qiziquvining rivojlanishiga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘afforova T. “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, “Tafakkur”, 2020-yil.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2021.
3. Uralov A. “Interfaol ta’lim”. Guliston, 2022
4. Uralov A. “Ta’limiy metodik o‘yinlar”. Guliston, 2021

3-SINF O‘QUVCHILARIGA “TABIATNI ASRAYMIZ” BO‘LIMINI O‘QITISHDA INTERFAOL METOD VA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

*Allayorova Nilufar Yaxshinorovna
Primqulova Pokiza Karimjon qizi
Sharof Rashidov nomli Samarqand davlat universiteti
Pedagogika ta’limi fakulteti*

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlarning qo‘llanilishi haqida so‘z yuritilgan. 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi “Tabiatni asraymiz” bo‘limidagi mavzularni o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metod va didaktik o‘yinlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: interfaol, metod, didaktik, ijobiy fikrlash, hamkorlik, o‘yin.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarni bilim olishi birinchi o‘rinda turishini hamma yaxshi biladi. O‘quvchi o‘qituvchi bergen har bir bilimini yaxshi o‘zlashtirishi uchun

turli xil metodlarni qo‘llash lozim. Yangicha metod yoki innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usul didaktik o‘yinlarning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi tushuniladi. Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning interfaol metod va didaktik o‘yinlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Faqatgina o‘qituvchi emas, balki o‘qituvchi bilan birgalikda o‘quvchi ham faol bo‘lishi hozirgi kunning talabi hisoblanadi [1]. Bolalarga dars jarayonlarini turli xil ko‘rnishdagi metodlar, o‘yinlar orqali ularga tushuntirib ularni psixikasiga mos dars jarayonlarni tashkil qilamiz.

Interfaol usul va didaktik o‘yinlar orqali o‘tilgan darslar o‘quvchini ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi. Interfaol metod orqali o‘tiladigan darslarda an’anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmunni o‘zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya’ni o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo‘lgani kabi interfaol usullarni qo‘llashdan maqsad bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq, oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. “FSMU”, “Sinkveyn”, “Aqliy hujum”, “Tarmoqlar”, “BBB”, “6x6x6”, “Zig-zag”, “Kungaboqar”, “Blits”, “Yelpig‘ich”, “O‘ylang texnikasi”, “Skarabey”, “O‘rmonda va hovlida” “Yumaloqlangan qor”, “Quyoshli kun”, “Oltin xazina” “Dominanta” [2] va boshqa metodlardan foydalangan holatda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi mavzularni o‘tish o‘quvchilarning bilimini va axloqiy tarbiyasini oshiradi.

“**Aqliy hujum**” metodidan “Tabiatni asraymiz” bo‘limidagi “Ozon qatlami”[3] audiomatni ustida ishslash jarayonida foydalansa yaxshi samara beradi. Aqliy hujum

o‘quvchilarni o‘z tasavvurlari, mustaqil fikr yuritishlari, izlanishlari va ijodlaridan samarali foydalanishga undaydi. Aqliy hujumdan darsda foydalanishda o‘qituvchi o‘quvchilarining bergan g‘oyalari va fikrlari uchun baho qo‘ymasligi faqat ularning faol ishtiroklarini hisobga olib borishi lozim. Hamma o‘quvchilarni g‘oyalalar va fikrlar berishga undashi zarur. O‘quvchilarining bergan g‘oyalari va fikrlari o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi. Masalan:

1. Ozon qatlaming eng asosiy vazifasi nima?
2. Nega ozon qatlami ko‘zga ko‘rimmaydi? U qayerda joylashgan?
3. Quyosh tizimida nechta sayyora bor? Ularda hayot yo‘qligining asosiy sababi nimada?
4. “Ona sayyoramiz “krem” va “ko‘zoynak”dan foydalanadi”, degan gapni qanday tushundingiz?
5. Ozon qatlamini saqlab qolish uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Berilgan topshiriq guruh a’zolari tomonidan ajratilgan vaqt mobaynida bajariladi. Qaysi guruh a’zosi berilgan vaqtda topshiriqnini aniq va to‘g‘ri bajarsa, shu guruh g‘olib bo‘ladi.

“Zanjir” metodi. Guruh to‘rtga bo‘linib, har bir guruhdan 1 o‘quvchi doska oldiga chiqariladi. 1 o‘quvchi “Nima uchun inson hamidan kuchli” matniga tegishli so‘zni aytadi. Keyingi o‘quvchi oldingi o‘quvchi aytganini va o‘zinikini qo‘sib aytadi. Undan keyingisi oldingi 2 o‘quvchi aytgan atamalarga yana o‘zi yangisini qo‘sib aytadi. O‘yin shu tariqa davom etadi, matnga tegishli so‘zni aytmay boshqa so‘zni aytib adashgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi, eng oxiri o‘yindan chiqib ketmay qolgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. O‘yin xotirani mustahkamlashga juda qo‘l keladi [4]. Namuna:

- 1-o‘quvchi: qirg‘ovul.
- 2-o‘quvchi: qirg‘ovul, muz.
- 1-o‘quvchi: qirg‘ovul, muz, yomg‘ir.
- 2-o‘quvchi: qirg‘ovul, muz, yomg‘ir, yer....

“Tez javob” o‘yini. O‘qituvchi qator oralab yurib, o‘quvchilardan birini turg‘izadi va “Inson nima uchun hammadan kuchli” matni yuzasidan birorta so‘z beradi. O‘quvchi shu matnga kiruvchi so‘z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. O‘yin toki bitta o‘quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o‘yin davomida o‘quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o‘rganadi, atrofdagi sodir bo‘ladigan voqeа va hodisalarga qiziqishi ortadi. Bu o‘yindan dars davomida, dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

“To‘g‘ri yozgan g‘olib bo‘lar, yaxshi ilm-u tolib bo‘lar” o‘yin-topshirig‘idan foydalansa bo‘ladi. Bu o‘yinni o‘qituvchi “Ozon qatlami” audiomatnidagi lug‘atlar bilan bog‘lasa bo‘ladi. So‘zlarni talaffuzi bo‘yicha (*azon, malukula, xilor, frion,sovutgich, krim kabi*) taxtaga yozadi va ularni imlo qoidasiga muvofiq yozishni talab etadi. So‘zlarni to‘g‘ri yozgan o‘quvchilar o‘yin sharti asosida g‘oliblikni qo‘lga kiritishlari mumkin.

“Nuqtalar o‘rnini so‘zlar bilan tez to‘ldir” o‘yini. O‘qituvchi o‘quvchilar hukmiga “Bog‘im” she’ridan umumiste’mol so‘zni beradi-da, shu so‘zning barcha ma’nodoshlari o‘rniga nuqtalar qo‘yib chiqadi. O‘quvchilar nuqtalar bilan ajratilgan nechta so‘z o‘rni bo‘lsa, uni ma’nodosh so‘zlar bilan to‘ldirishadi. Masalan, nihol, ..., ..., ...; odam, ..., ..., ... ; orzu ..., ...,; chiroyli, ..., ...,

Xulosa qilib aytganda o‘qituvchi ta’lim jarayonida eshitib, ko‘ribgina qolmay, balki dars mavzusi, mazmunini o‘rganishda uni faol ishtirokchisiga aylanishini ta’minlashi zarur. O‘qituvchi faqat o‘qitibgina qolmay, o‘quvchini mustaqil mutolaa qilish orqali ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim. Agar o‘qituvchi interfaol metod va didaktik o‘yinlar mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini o‘qib, o‘rganib, o‘zlashtirib, o‘z pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa, takomillashgan Davlat ta’lim standartlarini va modernizatsiya qilgan o‘quv dasturlarini to‘la o‘zlashtirishlarini kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishishini taminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Omonov T., Xo‘jayev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratl. Toshkent. —IQTISOD-MOLIYA|| 2009. 106-bet.
2. Usmonova K., Hayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011. 80-b.
3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., va boshqalar. Ona tili va o ‘qish savodxonligi/ Darslik (1-qism). T: Respublika ta’lim markazi. 2022, 83-bet.
4. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012. 180-b.

4-YO'NALISH

BOSHLANG'ICH TA'LIM YANGI AVLOD DARSLIKLARI BILAN ISHLASHDAGI MUAMMOLAR

BOSHLANG'ICH MATEMATIKA DARSLARIDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI VA UNI QO'LLASH IMKONIYATLARI

*Jonzoqova Barno Sobir qizi
Tayloq tuman 1- maktab o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ko'rsatmalilikning boshlang'ich ta'limga roli o'quvchilar-ning abstrakt tafakkurlarini ham, konkret tafakkurlarini ham rivojlantirishdan iboratdir. Bundan tashqari, ko'rsatmalilikdan foydalanish o'quvchilarni faollashtiradi, ulaming e'tiborini, o'rganilayotgan materialni puxtarloq o'zlashtirish imkonini beradi, o'quv jarayonini boshqarish uchun yaxshi sharoit yaratadi, vaqtini tejash irnkonini beradi.

Kalit so'zlar: ko'rgazmalilik, harakatli o'yinlar, dinamik, ijodkorlik, matematik tushunchalar, matematik madaniyat.

Bilamizki, uzluksiz ta'lim tizimining asosini boshlang'ich ta'lim tashkil etadi. Agar o'quvchi boshlang'ich sinfda yaxshi o'zlashtirsa, yuqori sinfda ham qiyalmaydi. Hozirgi kungacha matematika darslarida ko'rgazmali qurollardan o'rinalicha foydalanish va ularning ahamiyatini o'rganib chiqqan holda, uni yanada shakllantirmoqchiman. Maqsadim boshlang'ich sinf matematika darslarida ko'rsatmalilikning imkoniyatlarini ochib berish.

Matematika darsining o'ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra geometriya elementlari ham o'rganiladi. Matematika boshlangich kursining boshqa oziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarining birgalikda qaralishidir. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o quv malakalar singdiriladi. Taniqli olim J.Ikromov o'zining "Язык обучения математики" kitobida "Maktab

o‘quvchilarining matematik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bolinadi”, -deb takidlaydi. Birinchi navbatda ular obyektiv tushunchalarning birgalikda tashkil etadigan mazmuni — matematik reallikni aniqlab oladilar. Bunda ob'yeqtarning aniqlik xususiyatlari bilan tarixiy jihatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yerda matematik reallik jumlasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ushbu reallikni o‘quvchilar matematik hisob kitoblarning turmush jarayonidagi ahamiyatini bevosita bilganlarida ya’ni kundalik turmush bilan bog‘liq misol va masalalarni bevosita bajarganlaridagina his qiladilar. Demak kundalik turmush bilan bog‘liq holda matematika o‘qitishni tashkil etish o‘quvchi faoliyatida muhim ahamiyatga egadir. Kundalik turmush bilan bog‘liq misollar yechish asosida o‘quvchi matematik bilimlar shunchaki o‘zlashtiriladigan bilimlar emas balki hayotiy zaruriyat sifatida o‘zlashtirilishi lozimligi to‘g‘risida xulosa qiladilar.

Odatda darsda bir necha didakik materiallar amalga oshiriladi:

- yangi materialni o‘tish;
- o‘tilgan materialni mustahkamlash;
- bilimlarni mustahkamlash;
- bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish;
- mustahkam o‘quv va malakalar hosil qilish va hokazo.

Matematika darslarining o‘ziga xos yana bir tomoni Shundaki, bu-o‘quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko‘rgazmali vositalar, o‘qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o‘quvchilarning faolligi, sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darjasи, kabilarga ham bog‘liq.

Matematika darsida turli tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O‘quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas’uliyatni va sof vijdonlilikni, to‘g‘ri va aniq so‘zlashni, hisoblash, o‘lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalaydi.

Ko‘rsatmalilikning boshlang‘ich ta’limdagi roli o‘quvchilar-ning abstrakt tafakkurlarini ham, konkret tafakkurlarini ham rivojlantirishdan iboratdir. Bundan tashqari, ko‘rsatmalilikdan foydalanish o‘quvchilarni faollashtiradi, ulaming e’tiborini, o‘rganilayotgan materialni puxtarop o‘zlashtirish imkonini beradi, o‘quv jarayonini boshqarish uchun yaxshi sharoit yaratadi, vaqtini tejash irnkonini beradi, ya’ni: ko‘rsatmalilikdan foydalanish samarali bo‘lishi uchun eng oldin nazariyaning u yoki bu masalasi qaralayotganda foydalaniladigan ko‘rsatmali materialni tanlashni o‘ylab ko‘rmoq kerak.

Ko‘rsatma materiallami tanlashga nisbatan qo‘yiladigan talablarni qarab chiqamiz:

a) yetarlicha miqdorda ko‘rsatma material bilan ta’minalash, bulami tahlil qilish asosida o‘quvchilar kerakli umumlashtirishlarini qila oladigan bo‘lishlari kerak. Masalan, bolalami 4 sonining hosil bo‘lishi bilan tanishtirishda o‘qituvchi oldindan bunday amaliy ish tashkil qiladi: u uchta doirachaga bitta doirachani; uchta cho‘pga bitta cho‘pni qo‘sishni taklif qiladi, shu ishni boshqa didaktik materiallarda bajartiradi.

b) har xil ko‘rsatma materiallar bilan yetarlicha ta’minalash juda muhimdir. Bu o‘rinda doimo psixologlar tomonidan ifodalangan qoidani esda tutish kerak: "o‘quvchilarda to‘g‘ri umumlashtirishlar tarkib toptirishning zaruriy sharti beriladigan o‘quv materialining muhim xususiyatlarini o‘zgartinnay saqlagan holda uncha muhim bo‘lmagan xususiyatlarini turlantirishdan iborat". Masalan, 3 soni predmetlamining o‘zgannas soni (3) kabi tushuncha uchun muhim xususiyatdir, predmetiamining rangi, o‘lchami, tekislikdagi joylashuvi muhim bo‘lmagan xususiyatdir. Shu sababli, o‘quvchilami 3 soni bilan tanishtirilar ekan, bir jinsli predmetlardan iborat to‘plamlardan (bir xil andoza bo‘yicha qo‘yilgan uchburchaklar, doirachalar va hokazolardan) gina emas, balki har xil predmetlardan (masalan, har xil rangli va o‘lchamli doirachalar, katta va kichik har xiI ko‘rinishli va har xxii rangli olmalar) dan iborat to‘plamlardan foydalanish kerak, chunki aks holda bolalarda bir xil predmetlamigina sanash mumkin, degan noto‘g‘ri tasavvur hosil bo‘lishi mumkin.

c) matematika o‘qitishda sekin-asta, ammo o‘z vaqtida ko‘rsatmalilikning bir turidan ikkinchi turiga o‘tishni ta’minlay olishi kerak. Masalan, o‘qitish jarayonida masalalar shartlarini illyustratsiyalashda amalning o‘zini ham namoyish qilish bilan birlgilikda amallami ko‘rsatmay to‘la predmet ko‘rsatmalilikka, so‘ngra esa to‘la bo‘lmagan predmet ko‘rsatmalilikka o‘tish ta’minlanishi kerak.

Matematika o‘qitishda harakatli, dinamik qo‘llanmalarga afzallik berish kerak. Harakatli ko‘rsatma-qo‘llanmalar bilan bir qatorda individual ko‘rsatma qo‘llanmalar ham, har xii didaktik materiallar ham zarur. Boshlang‘ich matematika o‘qitishda ko‘rsatma-qo‘llanmalaming har xil turlaridan foydalaniladi. Ko‘rsatma-qo‘llanmalarning turlarini bilish ularni to‘g‘ri tanlash va o‘quv jarayonida samarali foydalanish imkonini beradi.

Ko‘rsatma qo‘llanmalarni ikkita, ya’ni natural va tasviriy ko‘rsatrna-qo‘llanrnalarga bo‘lish qabul qilingan. Ko‘rsatrna qo‘llanmalar ma'lum talablarga muvofiq bo‘lishi, chunonchi ular o‘quv dasturiga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq bo‘lishi lozirn. Bilim va uquvlarni mustahkarnlash bosqichida turli-turnan mashqlar uchun ma'lumot jadvallaridan, og‘zaki sanoq uchun jadvallardan, masalalar tuzish uchun rasrnlar, sxemalar va chizmalardan keng foydalaniladi. Maternatik amallar xossalari o‘rganish, ko‘paytirish jadvalini tuzish va hokazolarda foydalanish mumkin.

Ko‘rgazmalilikning turli xii manbalaridan foydalanish o‘quvchilarni faollashtiradi, ularning diqqatini oshiradi va rivojlantiradi, o‘quv materialini mustahkam o‘zlashtirishni ta’minlaydi va vaqtini tejash imkonini beradi.

Tabiiy fanlarga qaraganda matematikadan ko‘rgazmalilik va ko‘rgazma manbai tubdan farq qiladi. Tabiat fanlarida narsalarning aynan o‘zini ko‘rsatish imkonи bo‘lsa, maternatikada esa abstrakt xarakterga ega, bo‘layotgan hodisaning o‘zini aynan ko‘rsata olish imkonи kam. Matematikada ko‘rgazmalilik:

a) ko‘rsatilayotgan ob'yektlar to‘plamining elementlari sifatida qaraladi, ular ustidan ba’zi amallar bajarish mumkin. Masalan, o‘qituvchi savatdagi olma,

daraxtdagi qushlar haqida gapirganda, olmaning yoki qushlaming qandayligi haqida to‘xtalmaydi, balki ulaming soni va sonli munosabatini aniqlaydi.

b) u yoki bu narsa haqida gap yuritilganda, uning shaklini yoki narsaning miqdori sonli xarakterini tekshirish mumkin. Narsalarning sonli munosabatini o‘z holicha va shakllarini ko‘rishda ko‘pincha hodisaning aynan o‘zidan foydalanib bo‘lmaydi.

Shuning uchun o‘qituvchiga turli xildagi ko‘rgazmalilik, birinchi navbatda modellar, chizma, sxemalar yordam beradi. Matematika o‘qitishning turli xil bosqichlarida va uning turli xil bo‘limlarida ko‘rgazmalilikda bir xilda foydalanish kerak emas. Masalan, matematika o‘qitishning dastlabki bosqichlarida to‘plam elementlari bilan doimo mulohaza qilishga to‘g‘ri keladi. Lekin bu ko‘rgazmalilikning roli sekinlik bilan kamaya borib, uning o‘rnini simvollar (raqam, belgi) egallay boshlaydi. Masalalami yechishda esa ko‘rgazma sifatida narsalar va ulaming tasvirlari qo‘llaniladi.

Geometriyani o‘qitishda esa fazoviy va shakl munosabatlaming ko‘rgazmasi sifatida turli xii modellar va ulaming tasvirlaridan foydalaniladi. Shu bilan birga o‘qitishning birinchi qadamdayoq o‘quvchilaming tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish kerak: cheksiz to‘g‘ri chiziq, nur, burchak va boshqalar haqidagi tasvirlarni to‘g‘ri chiziqdan boshqa modellar bilan ko‘rsatish imkoniy yo‘q.

Ko‘rgazma qurollarga qo‘yiladigan talablar ko‘rgazma samarali bo‘lishi uchun ba’zi bir talablarga rioya qilishi kerak. Ko‘rgazmali qurollarga qo‘yiladigan umumiyligi talablar: mazmunining ilmiyligi, o‘quv dasturiga mosligi, o‘quvchilaming yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi. Yasalishi va ichki ko‘rinishining ko‘rish masofasiga mosligi, bajarilishning tozaligi, foydalanish qulayligi, matematikani tushuntirishga foydaliligi.

Matematika o‘qitishdagi ko‘rgazma manbalari mazmun jihatdan sodda va aniq bo‘lishi kerak. Bu ko‘rgazma qurollar matematika o‘qitish bosqichlarida ketma-ket quyidagi tartibda qo‘llaniladi:

- a) atrofdagi mavjud narsalar (sinf xonasidagi narsalar, o‘simliklar);

- b) o‘quvchilarga yaxshi tanish bo‘lgan narsalaming tasvirlari va rasmlari;
- c) shu narsalarning shartli tasvirlari;
- d) sxemalar va hokazo.

Ko‘rgazmalilik prinsipi - ta’lim jarayonida juda keng qo‘llaniladi.

O‘qitishning ko‘rgazmalilik prinsipiga amal qilish, demak bu - ko‘rgazmali qurollarga tayanish, o‘quvchilar hissiy bilishining barcha jihatlariga rahbarlik qilish va boshqarishdir. Maktab o‘quvchilari uchun ko‘rgazmali qurollardan foydalanish rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Chunki ular umumlashtirish, tahlil va tahlildan xulosa chiqarish jarayonining shakllanishiga yordam beradi. Ko‘rgazmalilik prinsipi o‘qituvchiga quyidagi talablami qo‘yadi.

- O‘quvchi materialini o‘rganish jarayonida hissiy obrazlaming zarurligini tushunishi kerak.
- Hissiy obrazlardan mashg‘ulotda o‘quvchilar rivojlanishining mustaqil sifati jihatida foydalanish hususiyatini aniqlash lozim
- Mashg‘ulotda hissiy bilimlar qaysi bir ko‘rgazmali qurollar yoki texnikaviy vositalar yordamida shakllanishini hal qilishi kerak.
- O‘quvchining bilish faoliyatida tabiatdagi majud narsalami, hodisalami tasawur qilish qobiliyatiga erishish kerak.
- O‘quv materiali narsalami, hodisalami umumlashgan uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.
 - Bolalar shakllar, ranglar, his qilish orqali fikrlaydi shuning uchun ko‘rgazmali ta’lim ular uchun muhimdir.
 - Ta’limda hech qachon faqatgina ko‘rgazmalilikka suyanib qolmang u faqatgina o‘quvchilarda fikrlashni o‘stirishga yordam beradigan vositadir.
 - Ko‘rgazmalilikdan faqat ko‘rsatish uchun emas, balki o‘quvchilarni mustaqil bilim olishlarida ulami tadqiqot- izlanish ishlarini tashkil etishga o‘rgatishda ham foydalilanadi

-Ta’lim va tarbiya berishda shuni yodda tutingki, ko‘rgazmali qurollar o‘rganilayotgan predmet va hodisalar to‘g‘risida aniq va to‘g‘ri tasavvurlarni hosil bo‘lishiga yordam beradi.

- Ko‘rgazmalilikda doimiy ravishda ketma-ketlikka rioya qiling.
- Ko‘rgazmali vositalami qoilaganda bolalar bilan uni bir butunligiga, keyin esa asosiy va ikkinchi darajali tomonlarini ko‘rish kerak.
- O‘quvchilar bilan birgalikda ko‘rgazmali qurol tayyorlashga harakat qiling
- Hech qachon o‘zangiz yaxshi bilmaydigan narsalarni ko‘rsatmang.
- Zamonaviy ko‘rgazmali qurollardan o‘quv ko‘rsatuvlari slaydlar, ta’limning texnik vositalaridan va ulardan foydalanish metodikasim bilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. - T., Fan, 2020.
2. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2018
3. Avliyoqulov N.X. Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent., 2018
4. Сайдова Г. Э. Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах //Вестник науки и образования. - 2019. - №. 7-3 (61).

UMUMTA’LIM MAKTABLARINING ONA TILI DARSLARIDA UNLI TOVUSHLAR MUAMMOSI.

*Genjeyeva Madina Jumageldiyevna
Samarqand tuman 13- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida ulli tovushlar bilan ishslashning o‘ziga xos jihatlari sharhlangan. Umumta’lim maktablarining ona tili darslarida unli tovushlar muammosining nazariy asoslari o‘rganilgan. Dars jarayonida unli tovushlar bilan ishslashga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ona tili darslari, savodxonlik, unlilar tizimi, didaktik o‘yinlar, natija.

Dunyo tillari orasida turkiy tillar oilasining ham tutgan o‘rni va o‘z ahamiyati bor. Barchamizga ayonki, ma’lum til haqida to‘xtalar ekanmiz, avvalo uning ijtimoiy hayotdagi roliga e’tiborni qaratish lozim. Turkiy tilning boyligi, go‘zalligi, jozibadorligi va nutqda qo‘llanilayotgan har bir so‘zning o‘z mohiyati mavjudligi haqida ushbu tildan unumli foydalangan Alisher Navoiy hazratlari ham to‘xtalib o‘tgan. Davrlar o‘tishi bilan turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tovushlar tizimi ba’zi imloviy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, unli va undosh tovushlarimiz tizimidagi muammoli holatlar bugungi kun o‘quvchisini ham chalg‘itib qo‘ymoqda, nazarimizda.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’limni yanada rivojlantirish borasida bir qator chora tadbirlar rejasи ishlab chiqilib, qonun va qarorlar qabul qilinayotganligi sir emas. 2017 yil 15 martdagи O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom ta’lim sohasidagi yangilanishlar va tuzatishlarni ko‘zda tutadi. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, tilimizdagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish fursati yetganligiga e’tiborni qaratish lozim.

Ta’limning barcha bosqichlarida ona tilimiz bo‘lmish o‘zbek tiliga e’tibor va hurmat ham oliy darajaga ko‘tarilishini talab etadi. Umumta’lim maktablarining 5-sinf ona tili darsligida nutq tovushlari mavzusini o‘rganish belgilab qo‘yilgan. O‘quvchining yoshidan kelib chiqilganda ham bu davrda har qanday o‘quvchi qiziquvchan va intiluvchan bo‘ladi. Ammo adabiy tilimiz normalaridan kelib chiqib o‘quvchiga to‘laligicha ma’lumot berishga o‘qituvchi-pedagoglarimiz ham qiynalishmoqda. Chunki umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinflari uchun ona tili darsligida “Tilimizda oltita unli tovush bor: **a, o,e, o‘, u, i.**”³, deb unli tovushlarimiz sonining 6ta bilan ifodalanishi ta’kidlangan. Vaholangki, adabiy tilimizning o‘zida unli tovushlarimiz tizimi **9** (ayrim holatlarda **10**) ta (**i, a, o‘, u** tovushlarining qattiq

³ N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo‘rboyeva. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To‘ldirilgan nashr.-T.: Ma’naviyat, 2015. 122-b.

va yumshoq variantlari) ni tashkil etadi. Shu o‘rinda dialektologiya ilmi bilan shug‘ullangan V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonovlarning “O‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan shevalarda unli fonemalar soni 6-7 tadan oshmaydi”⁴ degan fikrlarini ham tahlil qilib ko‘rish kerakday, nazarimizda.

Bu borada turkiy tillarning aksariyati o‘z alifbosi (kirill, lotin)da unlilar tizimini shakllantirganlar. Chunki turkiy tillarning singormonizmga asoslanganligi hech kimga sir emas. O‘zbek tiliga **–o** lashish jarayoni kuchli ta’sir o‘tkazgan bo‘lsa ham, adabiy tilimizdagi unli tovushlarning aniq ifodalanishi va tildagi barcha so‘zlarning talaffuz me’yorlari uchun hozirda alifbomizda mavjud unli harflar yetarli emasdek. Tilimizda uchraydigan *ikki, igna, ichki* va *mix, six, bir* so‘zlaridagi **–i, aka, alam, aziz** va *Axmad, naqd, axmoq* so‘zlaridagi **–a, o’lka, o’pka, o’zbek** va *o’roq, o’rtoq, o’tloq* so‘zlaridagi **–o‘, ust, uzum, uzuk** va *uzun, burun, tutqun* so‘zlaridagi **–u** unli tovushlari bir shakl bilan ifodalanib kelinmoqda, lekin ushbu misollarda ko‘rib o‘tganimizdek **i, a, o‘, u** unlilarining qattiq va yumshoq variantlari mavjud. Ayni biz keltirib o‘tgan misollardagi holatlar mакtab o‘quvchilarida ikkilanish va o‘ziga bo‘lgan ishonchning susayishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagi *ikki, igna, ichki* so‘zlarimizda alifbomiz(kirill, lotin) dagi yumshoq **–i** harfi ifodalangan bo‘lsa, *mix, six, bir* so‘zlaridagi **–i** harfini ifodalashda qattiq (rus tiliga asoslangan kirill alifbosidagi) **–i** tovushi talaffuz qilinmoqda. *Aka, alam, aziz* so‘zlarida alifbomiz(kirill,lotin)dagi yumshoq, til oldi **–a** unlisi ifodalangan bo‘lsa, *Axmad, naqd, axmoq* so‘zlarida alifbomiz(kirill, lotin)da mavjud bo‘lmagan qattiq, til oldi **–a** unlisiga nisbatan orqaroqda ya’ni **–o** unlisiga yaqin **–ä** (shartli tarzdagi) tovushi bilan ifodalanmoqda. *O’lka, o’pka, o’zbek* so‘zlarida alifbomiz (kirill, lotin)da mavjud bo‘lmagan yumshoq, til oldida hosil bo‘luvchi **–ö** (shartli tarzdagi) unlisi ifodalangan bo‘lsa, *o’roq, o’rtoq, o’tloq* so‘zlarida alifbomiz (kirill, lotin)dagi mavjud bo‘lgan til orqa, qattiq **–o‘** unlisi ifodalanmoqda. *Ust, uzum, uzuk* so‘zlarida alifbomiz(kirill, lotin)da mavjud bo‘lmagan yumshoq, til oldi **–ü** (shartli ravishdagi)

⁴ В. Решетов, Ш. Шоабдураҳмонов. Ўзбек диалектологияси.-Т., 1962. 89-6.

tovushi bilan ifodalangan bo‘lsa, *uzun*, *burun*, *tutqun* so‘zlarida alifbomiz(kirill, lotin)dagi til orqa, qattiq –**у** unlisi bilan ifodalanmoqda.

Umum ta’lim maktablarining o‘quvchilari bunday holatlarga duch kelishgan bir paytda maktablardagi ona tili fani o‘qituvchilari o‘quvchiga tushuncha berish borasida maktab darsliklaridan tashqariga chiqa olishmayapti. Natijada o‘quvchilar nafaqat mavzuni, balki millatimiz ko‘rki bo‘lgan ona tilimizning nozik va shu bilan birga jozibador tomonlarining tub mohiyatini anglashga qiynalishmoqda.

Dialektolog olimlarimizning fikricha, “Toshkent-Farg‘ona tipidagi shahar shevalari hamda shahar shevalarining talaffuz va leksik-grammatik xususiyatlariga o‘xshash bo‘lgan qishloq shevalari adabiy tilning shakllanishida yetakchi rol o‘ynagan”⁵ degan qarashlari biroz noaniqday tuyuladi. Toshkent va Farg‘ona shahar shevalarida ham ***bir***, ***uzum***, ***o‘lka***, ***Axmad*** so‘zlaridagi unlilarni adabiy tilimiz normalaridagi tasnif bo‘yicha talaffuz qilmaydilar. Qolaversa, til ijtimoiy hodisa hech vaqt bir o‘rinda qotib qolmaydi va bugungi kunga kelib, adabiy tilga asos Toshkent va Farg‘ona tipidagi shahar shevalarigina emas, bizningcha, Respublikamizning barcha viloyatlarini qamrab olgan shevalar adabiy tilga biroz bo‘lsada yaqinlashmoqda.

Unlilar tizimidagi tushunilishi murakkab holatlar oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida atroflicha o‘rgatilayotganligiga qaramay, umumta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog-o‘qituvchilar (*Toshkent*, *Farg‘ona*, *Samarqand*, *Qashqadaryo*, *Surxandaryo* viloyatlarining ayrim tumanlaridagi va *Jizzax shahar umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf hamda ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari*) orasida turli xildagi tushunmovchiliklar hamda bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Nomlari keltirib o‘tilgan hududlarda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ham e’tirozlari o‘rinli deb o‘ylaymiz. Aslida faqatgina nomlari aytib o‘tilgan hududlardagina emas, balki adabiy tilimizning normalariga muvofiq holda ham unli tovushlarimizning ayrimlarini qattiq va yumshoq variantlari mavjud. Shuning uchun alifbomiz tarkibidagi ***i***, ***a***, ***o‘***, ***u*** harflarini yumshoq va qattiq

⁵ В. Решетов, Ш. Шоабдураҳмонов. Ўзбек диалектологияси.-Т., 1962. 87-6

variantlarini yaratish bugunning talabi hisoblanadi. To‘g‘ri, biz u yoki bu shaklni tavsiya qilmoqchi emasmiz, bu boradagi muammoning yechimi tilshunoslik ilmi bilan shug‘ullanadigan olimlarimiz hukmiga havola.

2017- yilning oktyabr oyida o‘zbek tiliga “Davlat tili maqomi” berilganligining 28 yilligi munosabati bilan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitetida konferensiya tashkil etildi. Konferensianing kun tartibidagi masalalarida ayni imlo va alifbomizdagi ayrim muammolarga tuzatishlar kiritish borasida yagona to‘xtamga kelinmadni.

Hozirda umumta’lim maktablarining ona tili va adabiyoti fani darsliklarining aksar qismi yangi tahrirdan chiqish arafasida. Ajabmaski, yangilanadigan darsliklarimizda biz fikr yuritgan masalalarga ham alohida e’tibor qaratilsa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom.- T. 2017 .
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.-T.: O‘zbekiston, 2017.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo‘rabyeva. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To‘ldirilgan 4-nashr.- T.: Ma’naviyat, 2015.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

*Baxronova Nodira Fazliddinovna
Samarqand tumani 43- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitishning pedagogik mexanizmlari, texnologiya darslarida 4 K moduli asosida, kompetensiyaviy yondashuv asosida, metod va usullarni tanlash, boshlang‘ich

sinflarda texnologiya fanini o‘qitishda mavzular mohiyatini yoritish, o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llashi to‘g‘risida atroflicha fikr yuritgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, texnologiya fani, pedagogik mexanizmlar, kompetensiyaviy yondashuv, kriativlik, kommunikativlik.

Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuv yordamida o‘qitish usullari va metodlarining juda asosiy boyligi birlashgan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o‘qitilayotgan fanning xarakteri, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va boshqalar nazarga tutiladi. Texnologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuv yordamida metod va usullarni tanlash o‘qituvchi darsda hal etilishi belgilangan masalaga bog‘liq bo‘ladi. Texnologiya darslarida o‘quvchilarga 4 K modelining kriativlik yani ijodiy yondashiv asosida, kommunikativlik- zamonaviy yondashish o‘rgatiladi.

Har bir dars o‘quvchilarning bilim va malaka doiralarini kengaytirishi, hamda mustahkamlashi, ularda barqaror ijodiy ko‘nikma va odatlar hosil qilishga yordam berishi lozim. Texnologiya malakalari ko‘p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo‘ladi, bunda mashqlar vaqtida har bir mashq vaqtida o‘rnatiladigan tartib va ish harakati izchilligini sistematik sur’atda tushuntirib berish zaruriyati bilan birga qo‘sib olib boriladi.

Binobarin, boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitishda mavzular mazmunini yoritishda animatsiyalardan foydalanish va kompetensiyaviy yondashuv orqali o‘qitishning keng imkoniyatlari orqali boshlang‘ich o‘quvchilarda kriativlik- ijodkorlik, kommunikativlik, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini oshirish, garmonik shakllanishi, fantaziyasini boyitish, badiiy did va estetik qobiliyatni rivojlanishi, diqqat va tasavvurni aktivlashtirish, rang tasvir uyg‘unligini anglash, ajratish kabi jarayonlarni takomillashtirishga erishish mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda dastur talablarini to‘liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o‘quvchilarda o‘qish malakalarini to‘g‘ri va puxta egallash va albatta rivojlantirib borish zarurdir. Pedagogik mexanizmlari ilk marta

kompetensiyaviy yondashuv yordamida o‘qitish vaqtida rivojlanib boradi, o‘qitishning keyingi bosqichlarida esa shakllanadi.

Ta’lim amaliyotida kompetentlik yondashuvini amalga oshirish mazkur jarayonning hamma tomonlarini chuqur va har taraflama ilmiy o‘rganishni talab qiladi. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo‘lib, u fanlarda yetarli darajada chuqur tushunib yetilgan va o‘zining mustahkam o‘rniga ega.

Texnologiya fanini o‘qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo‘nalishi ayrim o‘quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o‘qitishning boshqa usullari qo‘llanganda tasavvur qilish, ko‘z oldiga keltirilishi qiyin bo‘lgan materiallarni tushunarli bo‘lishini ta’minalashdan iborat. Modellashtirish yordamida o‘quvchilarga ma’lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko‘rinishida taqdim qilish mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuv orqali texnologiya fanini o‘qitishning ko‘chkisimon rivoji natijasida texnologik fan daraxti paydo bo‘ldi. Shuning uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga texnologiya fanini o‘rgatuvchi tizim original va noan’anaviy fikrlash qobiliyatini, o‘z ustida tizimli va mashaqqat bilan ishslash malakalarini rivojlantirishi lozim. O‘quvchi ajablana olishi, hayratlana olishi lozim, shundagina u boshqalarni o‘zining ijodiy mehnati bilan hayratlantira oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, texnologiya ta’limini boshlang‘ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan doimiy takomillashtirish yordamida o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo‘ladigan kompetentsiyalarni shakllantirishga erishiladi. O‘quvchilar texnalogiya darslarida 4K

modeli asosida har bir detalga kreativ, kommunikativ, kollobaratsiya va kritik tahlil qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003.
2. Tohirov O‘. O. Texnologiya o‘quv fani davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturini ta’lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015.
4. S.Bekmurodova. Texnologiya fanini o‘qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo‘llanma. – Toshkent. 2017.

O‘QISH DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

*Haqberdiyeva Manzura Eronovna
Nurobod tumani 2-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish va bola hayotida uning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ish, ijodiy yondoshish, mashq

Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. O‘qish darslarida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonala-ridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchini o‘qish, bilim olishga ishtiyoqini o‘sirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo‘lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo‘lamiz. Buning uchun har birimiz qo‘ldan kelgancha fidokorona

mehnat qilishimiz kerak. Bugun sizlar bilan o‘qish darslarida mustaqil ishlarning tashkil etish yo‘llari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Mustaqil ish mashqning faol turi bo‘lib, uni bajarish jarayonida o‘quvchilar fikrlashga va mustaqil faoliyat yuritishga o‘rganadilar. Bir vaqtning o‘zida ikki yoki uch sinf bilan ishlanadigan oz komplektli maktablarda mustaqil ish, ayniqsa, juda zarur hamda katta ahamiyatga ega. O‘qish darslarida mustaqil ishni bajarishga bolalar taxminiy tayyorlanadi, albatta. O‘quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashda topshiriqning maqsadi ularga qisqa va aniq tushuntiriladi. Mustaqil ish uchun tanlangan matnning hajmi kichik va o‘quvchilar saviyasiga mos bo‘lishi lozim. Mustaqil ish turlari har xil bo‘lib, uni tanlashda o‘quvchilarning tayyorgarligi, o‘qiladigan matnning xarakteri, asarni o‘rganish bosqichi hisobga olinadi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida mustaqil ishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Asarni ichda o‘qish. 1-sinfda bu mashqni topshirishdan oldin ayrim so‘zlarni kesma harflar bilan tuzdirish va uni o‘qishni mashq qildirish maqsadga muvofiq. O‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab ichda o‘qib, ayrim qatnashuvchi shaxslarning gaplarini topish, uni o‘qish va o‘z so‘zi bilan gapirib berish, matndan o‘qituvchi bergen savolga javob bo‘ladigan o‘rinni topish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

2. O‘qilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish. Bu mashq bolalarni diqqat-e’tibor bilan o‘qishga o‘rgatadi; bu ish turidan oz komplektli maktablarda foydalanish dars tartibini belgilashga ham yordam beradi. Mashqning bu turi asta murakkablashtira boriladi: avval o‘quvchilar matnga oid savollarga javob berish bilan uning mazmunini o‘zlashtirsalar, keyin asarning asosiy g‘oyasini bilib oladilar, voqeа-hodisalar o‘rtasidagi sabab-natija bog‘lanishlarini tushunadilar.

3. O‘qilgan asar mazmunini to‘liq anglash, bilib olish uchun o‘qituvchi topshirig‘ini bajarish. Topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- O‘qing va omonatga xiyonatning jazosi qandayligini aytib bering.
(**«Omonatga xiyonat»**, IV sinf)

b) O‘qing va nima uchun hunarsiz kishi o‘limga yaqinligini tushuntirib bering. («Hunarsiz kishi o‘limga yaqin», IV sinf) va hok.

4. O‘qilgan matn rejasini tuzishga tayyorlanish va reja tuzish. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1) o‘qilgan matnga oid rasm chizish;

2) rasmga matndagi so‘zlar yoki o‘z so‘zi bilan sarlavha qo‘yish;

Mustaqil ishning qanday bajarilganligini hisobga olish o‘quvchilarning tayyorlik darajasini aniqlashda va keyingi bosqichlarda mustaqil mashqni to‘g‘ri tashkil qilish uchun material tanlashda o‘qituvchiga yordam beradi. Men darslarim jarayonida o‘quvchilar mustaqil ishlashlari uchun quyidagi usullardan ko‘proq foydalanaman. Ularga turli o‘yinlar va topshiriqlar beraman.

Hikoya tuzish jarayonida o‘quvchilarning lug‘at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to‘g‘ri tuzish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O‘quvchilarning vaqt-vaqt bilan rag‘batlantirilishi ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttiradi. Bu o‘yindan ona tili va o‘qish darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, to‘garaklarda foydalanish mumkin.

1-variant: Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob.

2-variant: Olma, kasal, o‘rtoq, Abduvali.

3-variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

“Noto‘g‘ri jumla”

Bu o‘yin suratlar asosida o‘tkaziladi. O‘qituvchi ma’lum bir suratni tasvirlab berish jarayonida suratlarga tegishli bo‘lmagan jumlalarni ham ishlatadi. O‘quvchilar ziyraklik bilan shu jumlanı topishlari lozim.

O‘quvchilardan bu o‘yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ya’ni ular suratni kuzatish bilan birga o‘qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto‘g‘ri jumlanı topa bilish ularning sinchkovligini o‘ziga bo‘lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi.

Bu o‘yindan faqat ona tili darslarida emas, balki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish mumkin.

Samad aka duradgor. Uning qo‘li gul. U o‘g‘illariga ham duradgorlikni o‘rgatgan. Ular qushlar uchun in yasashdi, singlisi Nigora ularga choy olib keldi.

(Javob: Nigora suratda tasvirlanmagan).

Bu vazifalarni bajarish jarayonida o‘quvchi o‘zi mustaqil fikrlaydi, bajaradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi, kelgusi darsda esa yanad qiziqish bilan keladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarining mustaqil ish va o‘qish ko‘nikmalarini tegishli darajada yuqoriga ko‘tarish kerak. Mustaqil mutolaaning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati muhim ekanligi ko‘p marotaba e’tirof etilgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova va b.q. Darslik “Ona tili o‘qitish metodikasi”. T-2019.
2. G. Boymurodova va b.q. O‘qish “4-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyatga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma T-2020.
3. A.Zununov. Badiiy asarni tahlil qilish T.”O‘qituvchi” 2020.

TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DARSLIKLER BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI

*Imomova Sarvinoz Fazilovna
Urgut tumani 21-maktab o`qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada ta’lim samaradorligini oshirishda darsliklar bilan ishlashning bosqichi, darsliklarni tahlil qulish, kitob bilan muvaffaqiyatli ishslash ko‘nikma va malakalarni egallash haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: darslik, bilim, ko‘nikma, malaka, mustaqil ish, o‘zlashtirish, mustahkamlash

O‘quvchilar ilgari darsliklardan uyda bilimlarini mustahkamlash uchun foydalangan bo‘lsalar, ta’lim rivojlanishining hozirgi bosqichida esa ulardan yangi

material bayon qilinishi bilanoq foydalanishmoqda. O‘quvchi kitob bilan muvaffaqiyatli ishlay olishi uchun tegishli ko‘nikma va malakalarni egallashi kerak. Ta’limning hozirgi bosqichida o‘quvchilarga darslik bilan mustaqil ishlashni o‘rgatish o‘qituvchining muhim vazifasidir. Binobarin, ular kelajakda turli bilimlarni o‘zlaricha tahlil qilishga, o‘rganishga va umumlashtirishga ham majbur bo‘ladilar.

Kitob bilan ishlashni o‘rgatishning dastlabki bosqichida izohli o‘qish metodidan foydalaniladi. O‘qituvchi bolalarga kitobni diqqat bilan o‘qishni, undagi har bir so‘z va ifodaning ma’nosini oylab ko‘rish hamda butun mazmunni qamrab olishni o‘rgatadi. Darslik bilan ishlashning asosiy bosqichi o‘quvchilar sinfda va uyda o‘zları uchun yangi materialni mustaqil holda o‘rganadilar. Ishning bu usuli quyi sinflardagi darslarda dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish uchun bir oz qiyinlik qiladi. Shunday ekan, darslik va kitob bilan ishlashning o‘qitish metodi sifatidagi mohiyatini qanday ta’riflash mumkin?

Bu metodning mohiyati bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash, o‘quvchilarning darslik va kitob bilan mustaqil ishlashi jarayonida amalga oshishidan, va ayni paytda, ularning kitob bilan ishlash malakalarini egallashidan iboratdir. Mazkur metodning o‘zaro bog‘liq ikkita muhim tomoni mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarning o‘rganiladigan materialni mustaqil o‘zlashtirish va ularda o‘quv adabiyoti bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishdir. Dars mashg‘ulotlari tizimida darslik bilan ishlashning to‘g‘ri yo‘lga qoyilishida o‘qituvchining ta’limiy ishlari bilan o‘quvchilar faoliyatining o‘zaro muvofiqligi masalasi g‘oyat mihim ahamiyatga molikdir.

Darslikni mashg‘ulotlarni tashkil qilish uchun foydalaniladigan qandaydir yordamchi vosita deb bilmaslik kerak. Darslik, avvalo, o‘quvchilar uchun muhim bilim manbalaridan biridir. Lekin u bayon etilgan materialni mustahkamlashning va o‘quvchilar bajaradigan aqliy ishlarni faollashtirishning samarali vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ammo buning uchun o‘qituvchi darslikni qo‘llashda eng muhim metodik talablarga rioya qilishi zarur. U mashg‘ulotlarni o‘tkazishdagi muayyan holatda darslikni qay yo‘sinda qo‘llash maqsadga muvofiqligini aniqlab olishi, shu

orqali bolalarni fikrlashga rag‘batlantirishi, ularning o‘rganiladigan materialni quruq yodlashi va yuzaki eslab olishiga yo‘l qoymasligi kerak. Shu boisdan dars mashg‘ulotlari jarayonida darslik ustida ishslashni tashkil etishga qoyiladigan ayrim umumdidaktik talablar haqida bir oz to‘xtalish joizdir.

1. Avvalo, o‘quvchilar darsda mustaqil o‘rganishi uchun kerakli materialni to‘g‘ri tanlashi muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o‘quvchilar barcha masalalarni o‘qituvchining oldindan tushuntirishisiz o‘zlashtiravermaydilar. Ko‘p mavzular mutlaqo yangi ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan va ular umumlashtiruvchi xarakterda bo‘ladi.

2. Darslik va o‘quv kitoblari bilan ishslashdan oldin doimo o‘qituvchi mufassal kirish suhbatи o‘tkazishi shart. Unda o‘quvchilarni o‘rganiladigan mavzudan xabardor qilishi, yangi materialning asosiy masalalariga e'tibor berishi (lozim bo‘lsa, doskaga yozishi yoki oldindan tayyorlangan jadvalni ilib qoyishi), shuningdek, mustaqil ishning tartibini belgilashi kerak

3. Darslik bilan ishslash butun dars mobaynida davom etmasligi kerak. Uni o‘qitishning boshqa shakllari va metodlari bilan birlashtirish lozim. Masalan, darslik bilan ishlab bo‘lingach, material qanday o‘zlashtirilganini tekshirish, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, o‘quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish boyicha amaliy mashqlar o‘tkazish kerak.

O‘tilgan material ustida ishslash, yangi materialni bayon etish va mustahkamlashda darslikdan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatamiz. Yuqorida aytilganidek, so‘nggi yillarda o‘tilgan material ustida ishslashda qo‘llanilgan metodika uy vazifalariga o‘xshash tayyorlanish mashqlari bilan bog‘liq anchagina usullarni o‘z ichiga oladi va bunday mashqlar darslik bilan bajariladi. O‘quvchilar masalalarni yechadilar, mashqdarni ko‘chiradilar, darslikdagi savollarga yozma javoblar qaytaradilar va hokazo. Lekin o‘tilgan material boyicha darslik bilan ishslashning yana bir turi borki, uni ko‘pchilik o‘qituvchilar bilmaydilar. Ishning bu turi o‘quvchilarning darslikdagi materialni mashg‘ulotning boshida, bilimlarni tekshirish oldidan o‘qishidir.

O'qitish jarayonidagi rahbarlik didaktik savollar yoki o'qituvchining savollari yordamida amalga oshiriladi. O'quvchi o'qituvchining savollariga tobe bo'lib qolmasligi uchun o'zi o'ziga mustaqil holda savollar qoyishni o'rganishi, ya'ni o'zicha fikr yuritish ko'nikmasini o'zlashtirishi kerak. Bunga o'qitish jarayonida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi nima qilishi lozim? U avvalo zarur tushunchalarni o'rgatadi. Buni muayyan misollar orqali bajaradi. Ammo har bir o'qituvchi yangi materialni, yangi tushuncha va operatsiyalarni o'rgatganidan keyin ham o'quvchi ularni mustaqil holda qo'llashga qiynalishini biladi.

Qoida tushuntirilishi bilanoq taklif etilgan topshiriq ustida ishlashda o'quvchida avval ikkita faoliyat, ya'ni qoidani o'zlashtirish va qoidaning mazmunini tushunish faoliyatlari qo'shib ketadi.

Qoidani o'zlashtirish faoliyatini nuqtai nazar yoki o'qituvchining savoli boshqaradi. Ayni paytda o'quvchi qoidaning mazmunini tushunishga ham harakat qiladi. Keyingi faoliyat muayyan misolga qaratiladi. Bularning hammasi mazkur vaziyatda qoshilib ketadi. Agar qoida faqat bitta misol yordamida ko'rsatilsa, u tushuntirilgan vaziyatga o'xshasada, boshqa vaziyatlarga o'quvchilar mustaqil holda ko'chira olmaydilar. Shuning uchun o'quvchilarga oldin bir necha misollarni o'qituvchi rahbarligida yechish imkoniyati yaratiladi. Ular qoidani yaxshi o'rgangach va mashqlar bilan mustahkamlagach, ularga asta-sekin murakkablashib boradigan misollar, topshiriqlar asosida mazkur qoidani qo'llash bo'yicha mustaqil ishlar taklif etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar darsda endigina o'rganilgan mazmunning o'zini emas, balki ana shu mazmunni o'rganishda qo'llangan usullarni takrorlash yo'li bilan yangi tushunchani mustaqil holda o'zlashtirishga tayyorlanadi. Sinfdag'i hamma o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida qandaydir mavzuni o'rganganlaridan keyin o'qituvchi ularga "teskari yurish" qilishni, ya'ni darsning har bir nuqtasiga qaytishni va unda nima qilingani hamda qanday qilinganini kuzatishni tavsiya etadi.

Bunda eng muhimi darsning mazmuni emas, balki o'quvchilarning ana shu mazmun ustida qanday ishlashidir. Bu esa ularga ta'limiyl ishning usullarini anglashda

yordam beradi. Sinfda qanday masalalar qoyilganini, hodisani tushunishga yoki muammoni yechishga qanday qilib erishilganini bilib oladilar. Bu ish o‘qish usullarini egallash mashqidir. Mana shu mashqning natijalarini bir o‘quvchi doskaga yozadi, qolgan o‘quvchilar darsning qanday o‘tganini qayta tiklashda unga yordam beradilar. Buning uchun doska ikki qismga bo‘linadi va uning chap tomoniga darsdagi eng muhim faktlar hamda fikrlar qisqacha reja ko‘rinishida yoziladi. O‘ng tomoniga masalalar, sinfda bajarilgan barcha ishlar, aytaylik, kuzatishlar, mo‘ljallar, topshiriqlarning yechimlari va hokazolar yoziladi. Bu mashq orqali nimalarga erishiladi? Darsning asosidagi barcha masalalar, harakatlar va ifodalar darsning umumiylar mazmunidan ajratiladi va shu tariqa o‘quvchilarning tushunishi uchun moslashtiriladi. Natijada, o‘quvchilar darsda nima qilish lozim bo‘lganini va qanday qilinganini bilishga hamda tushunishga odatlanadilar. Vaqt o‘tishi bilan bilish harakatlarini yangi hodisalarga yoki misollarga ko‘chirish ko‘nikmalari tarkib topadi. Lekin bilish harakatlarini ko‘chirish mashqi o‘quvchilar uchun darsda materialning o‘zini o‘zlashtirishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Ushbu mashqdan ko‘zlanadigan maqsad material va o‘qitish vositalari orqali aynan bilish jarayonini anglashdan iborat bo‘lishi mumkin.

Ko‘rsatib o‘tilgan izlanishlar topshiriqlari savollarga yodlangan darslik matnidan yoki o‘qituvchining tushuntirishidan tayyor holda olingen javoblarni qaytarish emas, balki har bir savolga tegishli javob topishni tavsiya qilishdan iboratdir. Ular aslida evristik-ta’limiy savollardir. Ana shu maqsadda quyidagi topshiriqlarni tavsiya etish mumkin:

- a) kuzatish materiallarini yoki o‘qituvchi bergen mavzu boyicha to‘plangan faktlarni tizimlashtirish: asosiy masalalarni ajratish, reja tuzish, faktlarni guruhlashtirish;
- b) taqqoslash va umumlashtirish, xulosa chiqarish va uni asoslash;
- v) bilimlarni qo‘llash: yangi faktlar va misollar bilan tasdiqlash, yangi hodisani o‘rganilgan hodisa darajasida tushuntirish.

Kuzatishlar, amaliy ishlar, tajribalar, eksperimentlar davomida yaxshi o‘zlashtirilgan bilimlarni emas, balki ularni qo‘llashni ham talab qiladigan savollar va muammolarni o‘z ichiga oladi, murakkabroq izlanishlar amalga oshiriladi.

Darsda bilishdagi mustaqillikning rivojlanishi avval o‘qituvchining yordamidan, darslik, ma'lumotnoma, lug‘at, shaxsiy kuzatish va tajribalardan foydalanib, savollarga mustaqil holda javob topish ko‘nikmasini egallah, keyin esa hech qanday yordamsiz o‘rganilgan materialga mustaqil holda savollar qoyish ko‘nikmasini egallah asosida amalga oshadi. Keyinchalik o‘quvchi boshqacha sharoitda namunaga taqqoslab, topshiriqlarni hal qilish va savollarga javob berish ko‘nikmasini o‘zlashtiradi.

Bunda induktiv va deduktiv mushohada yuritish ko‘nikmasi tarkib topadi. Umuman olganda, darsliklar bilan ishlash natijasida o‘quvchi fanlar sohalari boyicha bilimlarni egallah bilan birga, milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining tub mohiyatini tushunib yetadilar. Bunda, ayniqsa, o‘qituvchining roli kattadir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. G. Boymurodova va b.q. O‘qish “4-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyatga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma T-2020K.
2. Qosimova va b.q. Darslik “Ona tili o‘qitish metodikasi”. T-2019.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIGA YANGICHA YONDASHISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

*Otamurodova Etibor Musurmonovna
Samarqand tumani 3-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirishda interfaol o‘yinlarning tutgan o‘rni, 1-4-sinf ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish haqida ham ma'lumotlar yoritilgan

Tayanch so‘zlar: Innovatsiya, interfaol, didaktik, texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

Hozirgi taraqqiyot bosqichi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogic texnologiyalarning keng qo’llanilayotganligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayoniga o‘quvchini o‘qitadigan emas, balki uni o‘qishga, bilim olishga o‘rgatadigan interfaol usullarni qo’llashga urinish kuchaydi.

Ona tili o‘qitish metodikasi fani ta’lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya’ni nutqni, o‘qish va yozishni, fonetika, grammatika bilib olish jarayoni hisoblanadi.

Ona tilidan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, til xaqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistemasini o‘zlashtirish qonuniyatlarini o‘rganadi, til o‘rganishning eng qulay metod va usullarini izlaydi.

O‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirishi, mustaqil fikrlash, babs-munozara yuritish munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantirishi, ya’ni interfaol tushunchasini yuzaga keltirishi kerak. Bu usulda o‘quvchi o‘zi faol ishtirok etgan holda, yakka juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so‘zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qoyilgan masalani yaratib berishga harakat qiladi. Bu esa o‘quvchilar xotirasida uzoq saqlanadi.

Yangi mavzuni o‘zlashtirishda tanqidiy, tashkiliy yondosha oladi. O‘qituvchi faqat ko‘rsatuvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi, xolos.

Ona tili o‘qitishda interfaol dars usuli yuqori samara bermoqda. Bu usul o‘z ichiga bir qancha metodlarni oladi. Masalan: guruhlar bilan ishlash, test, og‘zaki bayon, mustaqil yoki amaliy ish, lug‘at bilan ishlash, diktant bellashuv, musobaqa, sayohat, krossvordlarni tuzish va yozish savol-javob va boshqotirmalar, hamda boshqalar.

Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o‘zaro harakati ta’sir ostida bilimlarni o‘zlashtirishni

kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.Ushbu usullarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari – norasmiy bahs – munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o‘qish, o‘rganish, seminarlar o‘tkazish, o‘quvchilarni tashabbus ko‘rsatishlarigan. imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaollik, bu – o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bundan o‘quv- biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o‘qituvchi – o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi – o‘qituvchi, o‘quvchi – o‘quvchi (subyekti –subekti) suhbatlarida sodir bo‘ladi.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o‘quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarni ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. O‘zaro fikr almashish jarayoni hosil bo‘ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi .

Interfaol ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologialar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi .

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni o‘tish uchun o‘qituvchi, o‘quvchi ham puxta tayyorgarlik ko‘rishlari kerak. Ya’ni bir mavzuda o‘qituvchi ko‘rgazmali qurol, rangli rasmlar, tarqatmali qurollar(kartochkalar), kesma harflar, testlar, boshqotirmalar olib kelishi zarur. Ona tilidan interfaol darslarda boshqotirma, rebuslardan foydalanilsa, ular o‘quvchining tafakkurini charxlaydi, oylashga fikr bildirishga o‘rgatadi. Bular albatta oddiydan murakkabga tomon borishi lozim.

Ona tilidan tashkil etiladigan interfaol o‘yinlar o‘quvchini izlanishga ijadiy faoliyat ko‘rsatishga o‘rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab hukm va xulosalar chiqarishga undaydi. Interfaol o‘yinlar har bir o‘quvchiga o‘zini nomoyon etish, fikr-mulohazalarni himoya qilish, topshiriqni shavq-u zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi. Har bir shaxsda tarbiyalanish zarur bo‘lgan ijodiy sifatlari tezkorlik, sergaklik, qat’iyatlilik, bilimdonlik, mustaqillik, ijodkorlik kabilalar ko‘pincha ta’limiy o‘yinlar orqali rivojlantiradi. Interfaol metodlar ta’lim tizimini, bilimlarni o‘zlashtirish va tez anglash uchun xizmat qiladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda ona tili fanining samaradorligi o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlash, ona tili fanining amaliy yo‘nalishidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida ko‘proq o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undovchi o‘quv topshiriqlarini ishga solish, o‘quvchilarda bilish-o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish singarilar bilan bo‘g‘liq o‘quvchini ta’lim jarayonining sub'ektiga aylantirishda ta’limiy o‘yinlar hal qiluvchi omillardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev Sh.M. „Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.“2018
- 2.O‘zbek tilining imlo lug‘ati.Toshkent, “O‘qituvchi”, 2019-yil
3. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Toshkent, Tafakkur, 2021

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

*Rashidova Lola Abdug‘aniyevna
Toyloq tumani 1-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirish, didaktik o‘yinlar orqali aqliy faoliyatini oshirish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, savodxonlik, imlo, diktant, didaktik, interfaol, multi-media.

Ona tili fani o‘quvchilarning mustaqil fikrashi, fikrini og‘zaki va yozma ifoda eta olish uchun eng kerakli bo‘lgan fanlardan biri bo‘lib, shu bilan bir qatorda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun alohida e’tibor qaratadi. Ma’lumki, 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi, o‘yin ularning eng sevimli mashg‘ulotidir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘yinni siqib chiqarmasdan undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ta’lim jarayonida qo‘llanadigan interfaol metodlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga ko‘ra 2 xil tasnif qildik.

Interfaol metodlar tasnifi

Mazmuniga ko‘ra:

Amalga oshirish shakliga ko‘ra

1. Tinch o‘yinli metodlar

1. Musobaqa o‘yinli metod

2. Harakatli o‘yinli metodlar

2. Sahna o‘yinli metod

3. Aralash turdag‘i o‘yinli metodlar

Tinch o‘yinli metodlardan biri: “*O‘zim tekshiraman*” metodini o‘tkazishda o‘qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi va yozdiradi. Barcha o‘quvchilar diktantni yozib bo‘lishgach, o‘qituvchi doskaga yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar esa o‘qituvchining yozganiga qarab, o‘zlari yozgan diktantni tekshiradilar. Diktant oldin doskaga yozilib, usti yopib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qituvchi pardani ochadi. Bunday diktantlarni hatto alifbe davrida ham qo‘llash mumkin bo‘lib, o‘qituvchi avval faqat harflardan, so‘ngra bo‘g‘inlardan iborat diktant yozdirishi mumkin.

1-variant: Oo, Ii, Uu, Aa, O‘o‘.

2-variant: -Lo, -no, -to, -mi, -un, -in

3-variant: Bola, lola, ona, zar, par.

4-variant: Bugun havo issiq.

“*Hikoya*” metodi

O‘qituvchi doskaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Ushbu jarayonda ularning lug‘at boyligi ortadi va gaplarni to‘g‘ri tuzishi,tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi,mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

1-variant : Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob.

2-variant: Olma, kasal, o‘rtoq, Abduvali.

3-variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

“*Nima yo‘qolib qoldi?*” metodi

Bu didaktik o‘yinda stol ustida bir necha yoki alohida buyumlar surati tushurilgan kartochkalar joylashtiriladi. O‘quvchilar stol ustini yaxshilab kuzatib, narsalarni eslab qoladilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo‘yadi, o‘quvchilar esa stol ustidan nima yo‘qolib qolganini topishlari lozim.

Bu o‘yin ayniqla alifbe davrida harflarni o‘rganish jarayonida juda qo‘l keladi.

“*Qarmoq*” metodi

Bu o‘yinda barcha darslarda qo‘srimcha savollar berish yoki turli ertaliklarda foydalanish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qog‘ozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirgichlar qistiriladi. Qarmoq shaklidagi tayoqchalarning uchiga ip va ipning uchiga magnit bo‘lakchasi bog‘lab qo‘yiladi. O‘quvchilar bu” qarmoqlar” vositasida “baliqchalar”dan birini tutib olishlari va undagi savolga javob berishlari lozim bo‘ladi.

Bulardan tashqari,yangi pedtexnologiyalar asosida darslarni to‘g‘ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bularga: ”Uyga vazifani tekshirish” metodi, ”Ari chaqdi”, ”Charxpalakdan raqam tanlab baliqni oziqlantirish”, ”Naycha”, ”Bog‘bon quyoncha”

metodlari mustaqil ishlarni uyuştirishda va shunday mustaqil ishlar vositasida o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritish, izlanish, analiz va sintez qilish, to‘g‘ri xulosalar chiqarish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Aralash turdagи oyinli metodlar:

“*Uyga vazifani tekshirish*” metodi orqali ko‘rgazmadan foydalaniladi. Unda har bir topshiriqni o‘quvchilar galma-gal chiqib uycha eshigini ochsa, berilgan savolga to‘g‘ri javob berishsa uycha eshigi ochiladi va tekshirib olishadi, aksincha noto‘g‘ri bo‘lsa eshikcha ochilmaydi, keyingi o‘quvchi chiqadi.

“*Ari chaqdi*” metodi orqali darsni mustahkamlash buyuriladi. Bunda guruhlardan 1tadan o‘quvchi chiqib, 2 ta o‘quvchi bellashadi. Ona tilidan berilgan savollarga kim birinchi bo‘lib javobni aytsa, ari qarshisidagi o‘quvchiga qarab yuradi. Shu tarzda kimning qo‘liga ari birinchi tegsa, demak shu o‘quvchini ari chaqib oldi deb, ikkinchi o‘quvchini g‘olib, deb rag‘batlantiramiz, shu o‘quvchi g‘olib hisoblanadi. Bu metodni barcha fanlarga qo‘llasak bo‘ladi.

“*Charxpalakni aylantirib raqam tanlab,baliqni oziqlantirish*” metodida o‘quvchilar “Omad shou” deb nomlangan barabanni aylantirib raqam tanlab, baliqning ozuqalariga berilgan so‘zlardan so‘z yasovchi qo‘shimchani aniqlab, to‘g‘ri javob berishsa, baliqni oziqlantirish mumkin.

Masalan: Iste‘dodli, iste‘dod asos, -li so‘z yasovchi qo‘shimcha.

Muhabbatli, muhabbat asos, -li so‘z yasovchi qo‘shimcha.

Bu metodni barcha fanlarga qo‘llasa bo‘ladi.

“*Naycha*” metodida o‘quvchilar 3 ta guruhgа bo‘lingan holda o‘qituvchi tushuntirib bergen so‘z yasovchi qo‘shimchalarni topishadi. Buning uchun naycha kerak bo‘ladi, so‘zlarni topishda o‘quvchilar naychani qo‘l ishlatmasdan, og‘izlarida havo orqali ichlariga tortib tezroq yig‘ishlari talab etiladi. 1-o‘quvchiga- chi, 2-o‘quvchiga –la, 3- o‘quvchiga –siz qo‘shimchasini topish buyuriladi. Qaysi guruh a‘zosi berilgan vaqt ichida tez va chaqqonlik bilan to‘g‘ri bajarsa, shu guruh g‘olib sanaladi va rag‘batlantiriladi.

“Bog‘bon quyoncha” metodida bog‘bon quyonchaning bog‘ida ekilgan 3 bo‘limli yeridan o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linib, quyonchaning savatchasiga sabzilarning orqasidagi berilgan so‘zlarni, savollarga javoblarni to‘g‘ri berishib, qaysi guruh oldin yerdagi sabzilarni oldin sug‘urib savatchaga solishsa, shu guruh g‘oliblikni qo‘lga kiritadi va o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Masalan, o‘quvchilar -chi qo‘srimchasiga sabzi orqasidagi so‘zlarni o‘qib, tushuntirib, savatchaga yig‘ishadi:

1-guruh: -chi qo‘srimchasiga: dutorchi, do‘mbirachi, navbatchi, jangchi va hokazo.

2-guruh -li qo‘srimchasiga: bo‘yoqli, tantanali, sifatli, zinali va hokazo.

3-guruh -siz qo‘srimchasiga: bilimsiz, xatosiz, so‘zsiz va hokazo.

Ushbu usullardan tashqari juda ko‘p metod,o‘yinlar mavjudki o‘quvchilar nutqiy va lingvistik kompetnsiyalardagi barcha talablarni,ya’ni ona tilidagi berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi, tushunib o‘qiy oladi. Og‘zaki nutqda so‘z va gaplar talaffuziga rioya qila oladi. Ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga amal qila oladi. Yozma nutqda tinish belgilarni to‘g‘ri qo‘llay oladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozirgi davrda yangi pedagogik texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Demak, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, didaktik o‘yinlar ta’lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Didaktik o‘yinlar ona tili darslarida boshlang‘ich sinflarda, ayniqsa qiyin o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o‘yinlar samarali ta’sir ko‘rsatadi. Yangi multimedia ilovalaridan foydalanib, slaydlar tayyorlab darsdan unumli foydalanish maqsadga muvofiq, deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Toshkent. “O‘qituvchi”, 2015.
2. Q.Abdullayeva, S.Rahmonbekova, G.Bekmurodova, G.Gozixo‘jayeva. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun diktantlar to‘plami. Toshkent. “Niso Poligraf”, 2020.

**O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK
O‘YINLARDAN FOYDALANISH**

*Raximova Inobat Umirovna
Bulung‘ur tumani 62-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu metodik tavsiyadada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinlarlar haqida ma’lumotlar berilgan. Didaktik o‘yinlarni darslarda qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qish savodxonligi, didaktik o‘yinlar, matn ustida ishlash, natija, samaradorlik, xalqaro tadqiqotlar.

Yurtimiz ertasi bugun maktablarda ta’lim-tarbiya olayotgan yosh avlodga, ularning har tomonlama komil inson bo‘lib yetishishiga bog‘liq. Bu mas’uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o‘qituvchisi, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim ustozlaridan yuksak mahoratni, doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan darslarda mohirona foydalanishni taqazo etmoqda

Barchamizga ma’lumki, mamlakatimiz ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS kabi dasturlarda ishtirok etmoqda. Bu tadqiqot dasturlari, xususan PIRLS dasturi o‘quvchilarning o‘qish, matnni tushunish, savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan. Bu kabi tadqiqotlarda o‘quvchilarimiz yaxshi natijalarga erishishi uchun o‘qish savodxonligi darslarini yangicha yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning matn ustida ishlash ko‘nikmalarini

shakllantirish, olgan bilimlarini real hayotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishni talab etmoqda. Quyida o‘qish savodxonligi darslarida foydalanilganda yaxshi samara berishi mumkin bo‘lgan ayrim didaktik o‘yinlarni tavsiya etamiz.

“Men ham jajji yozuvchi” didaktik o‘yini.

Bu o‘yinda o‘quvchilarga mustaqil fikrlashlari, matn ustida erkin ishlashlari uchun imkoniyat beriladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga fikrlashga undovchi savollar beradi va barcha javoblarni qabul qiladi. Misol uchun, Tasavvur qiling siz jajji yozuvchisiz. Endi o‘zingizni yozuvchidek tasavvur qilib, quyidagi savollarga javob bering,

- 1) Siz matnga yana qanday sarlavha qo‘yan bo‘lar edingiz?
- 2) Matn qahramonlari sizga yoqdimi, balki siz boshqa qahramonlardan foydalanarsiz?
- 3) Siz matnni qanday tugatgan bo‘lar edingiz?
- 4) Matnga yana nimalarni qo‘shtigan bo‘lar edingiz va hakazo.

O‘yin oxirida eng kreativ fikrlar egalari rag‘batlantiriladi.

“Tulki va turnaga yordam bering” didaktik o‘yini.

Bu o‘yin orqali o‘qish va ona tili darslarini integratsiya qilamiz. Ya’ni, o‘qish savodxonligi darsida ona tili fani elementlarini mustahkamlashimiz mumkin. Misol uchun, mavzu: “Bo‘g‘irsoq” ertagi. O‘quvchilarga bo‘g‘irsoq so‘zidagi tovushlarni jarangli va jarangsizga ajratib, tulki va turnaning ko‘za va likopchasiga solish topshirig‘i beriladi

Tulki	Turna
(jarangli)	(jarangsiz)
b, r	g‘, s, q

To‘g‘ri va tez bajargan guruh rag‘batlantiriladi.

“Quvnoq barmoqlar” didaktik o‘yini

Bu o‘yinda har bir o‘quvchi o‘zi uchun ajratilgan barmoqqa o‘qituvchi tomonidan aytilgan savollarga javob yozadi. 5 ta savol beriladi, savollar tugagach o‘qituvchi javoblarni o‘qiydi. Xato javob yozilgan barmoqlar yopib qo‘yiladi. Barcha savollarga javob bergen yani, 5 ta barmog‘i ham ochiq qolgan o‘quvchilar o‘z

barmoqchalarini “Bizning oila” deb nomlangan plakatga yopishtirishadi va barmoqchalardan daraxtni hosil qilishadi. Bu juda qiziqarli jarayon bo‘lib, o‘quvchilar daraxtning o‘sishiga oz xissalarini qo‘sish uchun jon-jahdi bilan harakat qilishadi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, didaktik o‘yinlar mavzuni o‘quvchilarning yaxshi o‘zlashtirishiga, darsning qiziqarli va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi, matn ustida ishslash ko‘nikmalarini oshiradi. Quyida 2-sinf o‘qish savodxonligi fanidan yuqoridagi metodlar qo‘llanilib tashkil etilgan bir soatlik dars ishlanmani ilova qilamiz.

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu:	Tulkining hiylasi ko‘p. Yo‘lbars bilan tulki (tojik xalq ertagi)
Mavzuga oid tayanch tushunchalar	Hayvonlar haqida haqida ertaklar. Tulki, yo‘lbars haqida ma’lumot
Darsga ajratilgan vaqt	45 daqiqa
Mavzuning qisqacha tarifi	Yo‘lbars bilan tulki ertagi mazmuni bilan tanishtirish
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	
Dars turi	Yangi bilim beruvchi dars
Metodi	“Quvnoq barmoqchalar”, “Akvarium”, “Tulki va turnaga yordam bering”, “Men ham jajji yozuvchi”, “Ha, yo‘q” didaktik o‘yinlari va “Venn diagrammasi” “4K” metodlari, nafas olish mashqi
Shakli	Savol-javob, suhbat, ko‘rgazmalilik
Jihozlar	2-sinf O‘qish savodxonligi darsligi TV, ko‘rgazma va tarqatmalar
Nazorat turi	Og‘zaki-yozma, savol-javob, kuzatish
Baholash	O‘quvchilar 5 balli reyting tizimida baholanadi
Darsning maqsadi	
Ta’limiy FK1	Ertak mazmuni bilan tanishtirish, ertak asosida xulosa chiqarishga o‘rgatish
Tarbiyaviy	O‘quvchilarni tabiatni sevishga, yovvoyi hayvonlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish
TK5	Kitob o‘qishga mehr uyg‘otish
Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda fikrni aniq ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirish

Kutilayotgan natija

Dars yakunida o‘quvchilar mavzuga oid olgan bilimlarini mustahkamlash
va ifodali o‘qish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ish nomi	Bajariladigan ish nomi	Metodi	Vaqti
1 bosqich Tashkiliy qism Refleksiya Ehtiyojni aniqlash	“567”nafas olish mashqi orqali o‘quvchilar fikrini jamlash, diqqatini oshirish Navbatchi hisoboti ma’naviy daqiqa	“567”nafas mashqi “Tezkor savol-javob” didaktik o‘yini	3 daqiqa
2-bosqich	a)Uy vazifasini tekshirish b)o‘tilgan mavzuni o‘qivchilqrden so‘rash v)o‘tilgan mavzuni mustahkamlash	“Quvnoq barmoqchalar” ta’limiy o‘yini “Akvarium” ta’limiy o‘yini Ertakni so‘zlab berish, savol-javob	5 daqiqa 7daqiqa
3-bosqich	“Tulki va turna” didaktik o‘yini orqali yangi mavzudagi so‘zlar jarangli va jarangsiz tovushlarga ajratiladi.	Savol-javob Ko‘rgazmalilik	3 daqiqa
Yangi mavzu bayoni	Ertak o‘qib beriladi, ko‘rgazma orqali tushuntiriladi	Ko‘rgazmalilik Mavzuga oid rasmlar	10 daqiqa

	TV orqali ertak mazmuni asosida suratga olingan multfilm namoyish etiladi	AKTdan foydalanish	5 daqiqa
4-bosqich Dam olish daqiqasi	“Ha, yo‘q” o‘yini	Mantiqiy topshiriq	3 daqiqa
5- bosqich Yangi mavzuni mustahkamlash	“Men ham jajji yozuvchi” didaktik o‘yini, matn bilan ishlash. Tinglab tushunish qobiliyatini tekshirish Mashq daftari bilan ishslash	Muammoli izlanish Savol-javob, “VENN diogrammasi” metodi	7 daqiqa

6-bosqich Dars yakunini chiqarish, o‘quvchilarni baholash Uyga vazifa	O‘quvchilarning faolligini baholash Mavzuni o‘rganish, rasm chizish	Tushuntirish	2 daqiqa
--	--	--------------	----------

**Mavzu: Tulkining hiylasi ko‘p. Yo‘lbars bilan tulki
(tojik xalq ertagi)**

Darsning maqsadlari:

Ta’limiy: o‘quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish. Ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish;

FK1 Ertakdan xulosa chiqarishni va matn ustida ishlashni o‘rganadi;

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni tabiatni sevish va hayvonlarga oqilonan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish;

TK 5 Aql bilan ish tutishga, maqtanchoq bo‘lmaslikka o‘rgatish;

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarga fikrni aniq ifodalash va ertaklardan xulosa chiqarishga o‘rgatish

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: tushuntirish, suhbat, “4K modeli”, ”Venn diagrammmasi”, “Ha, yo‘q”, “Akvarium”

Dars jixozi: darslik, multimedia ilova, rasmlar, ko‘rgazma, tarqatma materiallar

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi hisoboti, siyosiy daqiqa,

O‘quvchilar bilan salomlashish:

Darsimiz: O‘qish

Shiorimiz: A’lo o‘qish burchimiz,

Sarf etamiz kuchimiz!

Navbatchi o‘quvchi hisoboti:

Sana haqida suhbat

Qish fasli haqida qiziqarli ma'lumot

Fikrni jamlovchi mashq o'tkaziladi.

“567” nafas olish mashqi

Bu mashqni bajarish o‘quvchilar qo‘llarini tizzalariga qo‘yib, gavdalarini tik tutib o‘tirib olishadi. O‘qituvchi sanab turadi, bolalar bajarishadi;

1 2 3 4 5-nafas olamiz

1 2 3 4 5 6 –nafasni ushlab turamiz

1 2 3 4 5 6 7-nafas chiqaramiz

2. O‘tgan mavzuni mustahkamlash

a) ”Quvnoq barmoqchalar” didaktik o‘yini:

Bu metodda o‘quvchilarga barmoqlar maketi tarqatiladi. O‘qituvchi o‘tilgan mavzu yuzasidan 5ta savol beradi. O‘quvchilar har bir savolning javobini 1ta barmoqqa yozib boradi. So‘ngra o‘qituvchi javoblarni o‘qiydi, o‘quvchilar tekshiradilar. Tekshirish davomida qaysi barmoqdagi javob xato bo‘lsa, o‘sha barmoq yopib qo‘yiladi. Jarayon tugallangach, bolalar kaftlarni ko‘taradilar. Beshala barmog‘i ham ochiq turgan o‘quvchilar, ya’ni 5ta savolga ham to‘g‘ri javob bergen o‘quvchilar o‘z barmoqchalarini BIZNING OILA deb nomlangan plakatga yopishtiradilar va sinf oilasi daraxtining o‘sishiga o‘z hissasini qo‘shadilar.



b) “Akvarium” metodi

Bu metodda o‘quvchilar o‘tgan mavzu yuzasidan savollarga javob berib, o‘z akvariumlariga baliq tutadilar.

SAVOLLAR

1. Boyo‘g‘lining kasbi nima edi?
2. Ertakdagi tannoz qush nomi?
3. Qarg‘a boyo‘g‘lidan nimani iltimos qilibdi?
4. Boyo‘g‘li qarg‘ani qanday rangga bo‘yab qo‘yibdi?
5. Ertakdan qanday xulosa chiqarish mumkin?
6. Boyo‘g‘li nima uchun kunduzi ko‘rinmas ekan?



c) O‘tilgan mavzuni umumlashtirish

O‘quvchilar “Boyo‘g‘li va qarg‘a” ertagi mazmunini so‘zlab beradilar va ertak haqida o‘qituvchi tomonidan umumlashtiruvchi xulosa beriladi.

3. YANGI MAVZU BAYONI

Yangi mavzu o‘quvchilarga “Tulkinining hiylasi ko‘p”. “Yo‘lbars bilan tulki” (tojik xalq ertagi) mavzusi ekanligi e’lon qilinadi.



1. Mavzudagi so‘zlar “TULKI BILAN TURNAg a yordam bering” didaktik o‘yini orqali jarangli va jarangsiz tovushlarga ajratiladi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar ona tili fanidan bilimlarini mustahkamlashadi.



Jaranglilar: L, B, N, Ng, Y, R

Jarangsizlar: T, K, H, S, K, P

2. Ertak o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi, rasmlar orqali tushuntiriladi.

3. TV orqali ertak asosida suratga olingan multfilm namoyish etiladi

4. O‘quvchilar mashq daftaridagi tulki mozaikasini to‘ldirishadi.



4. Dam olish daqiqasi

“HA, YO‘Q” o‘yini

Bu o‘yin orqali o‘quvchilar miyasiga dam beriladi, diqqatlari va fikrlari jamlanadi.

O‘quvchilarga HA, YO‘Q kartochkalari tarqatiladi. O‘qituvchi savol beradi. O‘quvchilar savollarga ha yoki yo‘q deb javob yozishadi. Savollar tugagach, o‘qituvchi TVdan surat ko‘rsatadi.

Savollar:

1. U sizga yoqadimi?
2. U bilan maktabga kelgan bo‘larmidingiz?
3. Uni sizga o‘xshatishganmi?

4. U bilan uxlarmidingiz?
5. Unga o‘xhashni xohlaysizmi?

Savollar tugagach, ekranda ilon rasmi ko‘rsatiladi.



5. Yangi mavzuni mustahkamlash

Matn ustida ishslash


“Men ham jajji yozuvchi” didaktik o‘yini.

a) SAVOLLAR

1. Sizga ertakning qayeri yoqdi?
2. Ertakka yana qanday voqealarni qo‘shgan bo‘lar edingiz?
3. Qaysi qahramon sizga yoqdi va nima uchun?
4. Qaysi qahramonga o‘xhashni xohlardingiz?
5. Siz ertakni qanday tugatgan bo‘lar edingiz?
6. Ertakka yana nom berish mumkin?

b)

VENN diogrammasi



Bu diagramma orqali Yo‘lbars va Tulkining o‘xhash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

Mashq daftari bilan ishslash

2-topshiriq ustida ishslash. Maqollarning ikkinchi bo‘lagini topish



6. Darsni yakunlash

Darsda faol qatnashganlarni rag‘batlantirish

Darsdimizni qanday fanlar bilan o‘zaro bog‘ladik?

Sizlarga darsimiz yoqdimi?

6. Uyga vazifa:

Ertakni o‘qib, mazmunini so‘zlab berishga tayyorlanib kelish

Yo‘lbars va tulki rasmini chizish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti WWW.market.tdi.uz
2. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash metodik qo‘llanmasi. Sharq nashriyoti, T; 2019 yil.
3. Boshlang‘ich ta’lim jurnali 10-son 2023 yil.
4. O‘qish. O‘qituvchilar uchun metodik qollanma – T; Sharq nashriyoti 2014 yil,
5. B.Aydarova. 2-sinf o‘qish savodxonligi darsligi. III-qism T; “Novda” nashriyoti 2023 yil.

5-YO‘NALISH

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

O‘QUVCHILAR UCHUN MURAKKAB DEB TOPILGAN MAVZULAR BO‘YICHA KENGAYTIRILGAN DARS ISHLANMA HAMDA TAVSIYALARINI YARATISH

*Abduraxmonova Iroda Doniyorovna
Oqdaryo tumani 20-IDUM o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘quvchilar uchun murakkab deb topilgan mavzularni o‘qitishda va o‘rgatishda oddiydan murakkabga tomon bosqichma bosqich o‘tish metodlari haqida tushuncha berilan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, metod, didaktika, pedagogik mahorat, zamonaviy ta’lim, yaratuvchanlik, iqtidor.

Hozirgi vaqtda ta’lim samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma, malakalarini kengaytirishga, dunyoqarashini va tafakkurini yanada rivojlantirishga, erkin fikrlaydigan, mustaqil fikrga ega yoshlarni tarbiyalashga qaratilgandir.

O‘qituvchilarni ham eskilikdan yiroqlashib yangiliklar yaratishga, o‘z ustida ko‘proq ishlashga, ijod qilishga, darslarni integratsiya metodidan foydalanib o‘tishga undamoqda.

Biz o‘quvchilardan zamonaviy bilim olishni, ko‘proq vaqtni bilimga, kitob o‘qishga, izlanishga, yaratuvchanlikka sarflashlarini talab qilamiz. Shunday iqtidorni va qobiliyatni shakllantirish uchun biz o‘zimiz talabga javob beradigan darajada bilimga ega bo‘lmog‘imiz lozim.

O‘quvchilar uchun murakkab deb topilgan mavzular bo‘yicha kengaytirilgan dars ishlanmalar hamda tavsiyalarni yaratish lozim. O‘quvchilarni fan to‘garaklariga jalgan qilib, ularni ular uchun murakkab bo‘lgan mavzular bo‘yicha ko‘proq

shug‘ullanish lozim. O‘quvchilarga murakkab mavzularni didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmalar, AKTdan foydalanib dars o‘tish lozim. Murakkab mavzularni faqat bir soatmas ikki, uch soatdan takrorlab shug‘ullanib, o‘quvchi shu mavzuni mazmunini to‘la qonli, batafsil tushunib olmagunga qadar shu mavzu ustida ishlash lozim. O‘quvchi mavzuni tushunib olgandan so‘ng uni oziga mustaqil bajarish uchun topshiriq sifatida berish lozim. O‘quvchi o‘sh mavzuni o‘zi mustaqil bajara olsagina u o‘sha mavzuni batafsil tushungan bo‘ladi. Masalan: matematikada murakkab masala va misollar bor.

Do‘konga birinchi kuni 250 ta ichimlik, ikkinchi kuni ikki marta ortiq ichimlik va uchunchi kuni esa uch marta ortiq ichimlik keltirildi. Do‘konga jami qancha ichimlik keltirilgan.

Masalaning avval qisqacha sharti tuziladi. Keyin esa yechimi va javobi topiladi. Berilgan:

1-kuni-250 ta

2-kuni-? 2marta ortiq

3-kuni-? 3marta ortiq

Hammasi-? Ta ichimlik

Yecich: $250 \times 2 = 500$ $500 \times 2 = 1000$ $1000 + 250 = 1250$

Javob: Do‘konga hammasi bo‘lib 1250 ta ichimlik keltirilgan.

Misol: $x - 2904 = 3705 + 230$

$$x - 2904 = 3935$$

$$x = 3935 + 2904$$

$$x = 6839$$

$$6839 - 2904 = 3705 + 230$$

1) $6839 - 2904 = 3935$

2) $3705 + 230 = 3935$

Ona tili fanidan mashqlarni tahlil qilish

Chiroyli kapalak gulag qo‘ndi.

Nima?-kapalak,qanday kapalak?-chiroyli kapalak, nima qildi? Qo‘ndi, nimaga?-gulga, nimaga qo‘ndi?-gulga qo‘ndi.

So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar mavzusida o‘quvchilar chi, dosh, li, siz, zor, kor so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar orqali har-xil so‘zlar, so‘zlardan gaplar tuza olishlari lozim. Masalan: gul so‘zidan har-xil so‘zlar tuzish mumkin.

Gul-gulchi, gulli, gulsiz, gulzor. Gulchi gulzordan chiroyli guldasta yasadi.

Paxta-paxtazor, paxtakor, paxtali, paxtasiz. Paxtazorda paxtakorlar paxta terishmoqda.

O‘qish fanidan esa murakkab mavzularni qismlarga bo‘lib o‘qib o‘rganishadi. Mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazilib mavzu mustahkamlanadi.

Mavzularni o‘quvchilarni ongiga yetkazib bera olish, ularni shu mavzu bo‘yicha malakasini shakllantirish bu o‘qituvchining bilimiga hamda pedagogik mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi kuchli bilimga ega bo‘lsagina u har qanday mavzuni yoritib tushuntirib bera oladi. Hozirgi zamonaviy o‘qituvchi murakkab mavzularni tushuntirib, yoritib bera oladigan kengaytirilgan dars ishlanmalarini yaratib shu asosida darslarni o‘tishi kerak. Yosh endi o‘qituvchilik kasbiga qadam qo‘ygan o‘qituvchilarimiz uchun murakkab deb topilgan mavzular bo‘yicha kengaytirilgan dars ishlanmalari va tavsiyalar yaratish kerak bo‘ladi. Chunki yosh o‘qituvchilarimizga bu uslubiy qo‘llanma sifatida qo‘l keladi.

Oqituvchilarimizni ko‘proq o‘z ustida ishlashlari va zamonaviy ta’lim asosida dars berishlari uchun Prezidentimiz o‘qituvchilarni rag‘batlantirish usullarini ko‘paytirmoqda va ordenlar bilan taqdirlamoqdalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.I.V.Repyova Matematika. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. IV-qism. Toshkent: “Novda Edutainment”. 2023y. 104-bet.

2. D.D.Baynazarova, M.E.Tirova Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. IV-qism. Toshkent: “Novda Edutainment”. 2023y. 96-bet.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘ZLASHTIRMOVCHILIKNING OLDINI OLISHGA YO‘NALTIRILGAN TADBIRLAR

*Jo ‘rayeva Ozoda Saloydin qizi
Kattaqo ‘rg ‘on tuman 41 - maktab o ‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan olib boriladigan pedagogik ishlarning mazmuni aks etgan. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni keltirib chiqaruvchi sabablar tahlil qilingan. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishslashga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zlashtirish, natija, hamkorlik, individual ishslash, bo‘sh o‘zlashtirish, tizimli ishlar.

Respublikamizda ta’lim va tarbiya borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati bilimdon, aqlan rivojlangan, ongli, zamonaviy dunyoqarashga ega, jismonan sog`lom, axloqan pok, erkin, ijodkor , komil insonni shakllantirishdan iborat. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, farzandlarimizni ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan shaxslar qilib voyaga yetkazish barchamizning ezgu vazifamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar shaxsining shakllanishi o‘quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogliq bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. Kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsiyonal zo‘riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog‘cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab

davrida, shuningdek o‘s米尔lik davrida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergen baholariga qarab, o‘zlariga-o‘zları baho beradilar.

O‘quvchilar o‘zlashtirmasligining oldini olishga yo‘naltirilgan maktabda o‘tkaziladigan tadbirlar.

Maktab jamoasining o‘quvchilar o‘zlashtirilmaligining oldini olish bo‘yicha olib boriladigan ishlarning muvaffaqiyatining ma’muriyat, kasaba uyushmasi va “Kamalak” bolalar tashkilotining qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Ilg‘or o‘quvchilar ishidagi tajribalarni umumlashtirish va eksperimental tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha o‘zlashtirmaslikning oshirilishi bo‘yicha umumlashtirish ta’birlaridan tashqari dastlabki jamoalardan sinflararo guruhiy va individual profilaktik tadbirlar ham zarur. Boshlang‘ch sinflarda o‘zlashtirilmalikning oldini olishga yo‘naltirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish, avvalo, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar aqliy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Sinfda o‘tkaziladigan tarbiyaviy ta’sir o‘qituvchilar, ota – onalar, jamoatchilik va o‘quvchilar tashkilotlarining kuchlarini o‘quvchilarning o‘qish muvafakkiyatiga tarbiyaning ta’sirini oshirish maqsadida birlashtirish bilan bog‘liq. O‘qishda qiynalayotgan bolalarga nisbatan qulay ahloqiy iqlim yaratish muhimdir. Bunda birinchi navbatda bolaning ustidan kulish, haqoratlashlariga yo‘l qo‘ymaslik, ta’sirini antipedagogik usullarga yo‘l bermaslik zarur.

Bunday iqlim yakdil tashkil e’tilgan jamoadagina yaratish mumkin. Shuning uchun ham o‘zlashtirmaslikning oldini olishning muhim tarbiyaviy ta’sirlaridan biri o‘quvchilar jamoasida birdamlikni tarbiyalash, o‘qishga nisbatan ijobjiy munosabatni tarbiyalashda yoshlar tashkilotining rolini oshirish bo‘yicha tadbirlar tashkil e’tish muhim hisoblanadi.

**O‘zlashtirmaslikning
oldini olish uchun sinfda
o‘tkaziladigan tadbirlar.**

Jamoa barcha tarbiyaviy kuchlarning maqsadga yo‘naltirilgan ta’siri va birlashishi natijasida bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi o‘zini-o‘zi tarbiyalashi va o‘qishga qiziqishi oshadi.

O‘quvchilarni o‘zlashtirmaslik sabablari haqidagi psixologik pedagogik

**Bo‘sh o‘zlashtiruvchi
o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan
guruhiy va individual tadbirlar.**

konsimum xulosasi bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq, uy vazifalarini bajarishning oqilona yo‘llarini ko‘rsatish, uy vazifalarini

bajarishga ketadigan vaqtini domo tahlil qilish zarur.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv ishlarini tashkil etish elementlarini egallash bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar tashkil e’tilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilarning o‘z kun tartibini oqilona tashkil e’tishga o‘rgatish, uyda va maktabda mustaqil o‘quv ishlarini asosiy bosqichlarini ajratish, kitob bilan to‘g‘ri ishslash, o‘quv va mehnat topshiriqlarini bajarishda domiy o‘z o‘zini tekshirishni, amalga oshirishga qaratish lozim. Diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish yo‘llari bilan o‘quvchilarni tushuntirish muhim.

Tarbiyaviy ishlar vositasida o‘zlashtirilmaslikning oldini olish sinf jamoasi hayotini shunday tashkil etish bilan bog‘liqki, bunda har bir o‘quvchi, ayniqsa, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchiro‘ttoqlari bilan doimiy aloqani his qiladi. Ular bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Bu esa sinfdan tashqari ishlarning har xil shakllarini tashkil etish va har xil o‘quvchini maktabdagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimiga jalb etishni anglatadi.

Bunday ishlarni tashkil etishda o‘g‘il va qiz bolalarning qiziqishlari hisobga olinishi, o‘quvchilarda mustaqillikni rivojlantirishga olib keladi. Bu ishda o‘quvchilarga ota onalari yordam berishi mumkin. O‘quv yili boshida bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ota – onalar bilan yaqin aloqa o‘rnatish uchun barcha chora tadbirlarini ishlab chiqish , ularning uylariga borish, farzandlari o‘zlashtirmasliklarini oldini olish bo‘yicha hamkorlikda ishlarini ishlab chiqish

lozim. Oilaning tarbiyaviy ta’siri mahsuldorligini oshirish maqsadida ota – onalar majlislarida bolalarning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyasidagi ularning rolini oshirish haqidagi masalalarni muhokama qilish zarur.

O‘qishda orqada qolishning oldini olish olish bo‘yicha sinfdagi tadbirlar individual ishlar bilan olib borish lozim. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning o‘quv ishlarni oqilona rejalashtirish va tashkil etishda ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga, muhimini ajratish ko‘nikmasiga o‘qishda o‘z o‘zini nazorat qilish uy vazifalarini bajarishga, oraliq va mustaqil ishni shakllantirishga e’tibor berish lozim.

Maxsus to‘garaklardan ma’lum bo‘lishicha boshlang‘ich sinflarda uy vazifalarini bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni nisbatan ko‘proq yordam yo‘li bilan yechimda o‘quvchilar qiynaladigan savollarni o‘zlashtirishini, albatta, nazorat qilinishi zarur. Dars qoldirgan o‘quvchining o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganligini nazorat qilish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi tarbiyaviy ta’sirlarni tanlashda, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi ham jamoat topshiriqlaridan chetga qolmasligi, balki bunday topshiriqlarga faol ishtirok etishiga e’tibor qaratmog‘i lozim. O‘quvchilarda bu topshiriqlarni bajarish jarayonida ongli tartib intizom va javobgarlik hissi shakllanadi.

Ba’zi hollarda topshiriqlarni almashtirib turib, oldindan turlicha yordam ko‘rsatib, o‘ziga ishonch va hissiy faollikka undash uchun o‘qishda va mehnatda muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish ham mumkin. Javobgarlik va tartib – intizom evaziga bazi o‘quvchilarning o‘zlashtirishi yaxshilanayotganligini doimo ta’kidlash lozim. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar, tarbiyasi qiyin o‘quvchilar bilan ishlashda ba’zi hollarda majburlash va bo‘ysunish choralarini qo‘llashlari mumkin, lekin ulardan foydalanish vaqt – vaqt bilan bo‘lib, tarbiyaviy ta’sirining boshqa usullari bilan birgalikda olib boriladi. Talabchanlik, adolatli, to‘g‘ri va me’yoriy bo‘lish lozim.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi shaxsining irodaviy intelektual va hissiy sohalarida o‘zaro muvofiqlik yo‘qligini hisobga olib, topshiriqlarini va o‘z – o‘zini tarbiyalash vositalarini topishda har kuni yordam ko‘rsatish lozim. Bu ishlarni xulosa

qilganda jamoa oldida qo‘llab quvvatlash orqali ularni rag‘batlantirishi mumkin. Bunday hollarda o‘quvchilar o‘zlashtirmasliklarining oldini olish chora tadbirlari bilan bir qatorda uni yo‘qotishga qaratilgan tadbirlar ham zarur bo‘ladi. Agar o‘zlashtirmaslikning oldini olish bo‘yicha tadbirlar umum sinfiy va guruhiviy xarakterga ega bo‘lsa, o‘zlashtirmaslikni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar individual xarakterga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

- 1.O‘zbek tilining izohli lug‘ati / 5 jildli. To‘rtinchi jild. A.Madvaliyev tahriri ostida. Tahrir hay’ati: E.Begmatov va boshq. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 606 b.
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi / Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. – T.: Noshir, 2009. – 352 b.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi (Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017
4. Matchonov S., G‘ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: Yangiyul poligraph service, 2008. – 224 b

O‘QUVCHILARNING IQTIDORINI ANIQLASH VA ULARNI IS’TEDODINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O‘RNI

*Suvanova Zarina Boymirzayevna
Samarqand shahar 41- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab yoshidagi iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularni rivojlantirishda pedagogik mahoratning o‘rni va ahamiyati, ta’lim va tarbiyani o‘rinli tashkil etish yo‘llari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim sifat va samaradorligi, is’tedod, iqtidor tarbiya, qobiliyat, bilimli, spetsifik, ijodkor.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atda jadalllik bilan rivojlanishi barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini mazmunan yangi bosqichga ko’tarishni talab etmoqda. Bu esa yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda faoliyat ko’rsatayotgan pedagog xodimlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati va kasbiy mahoratiga nisbatan yuqorida fikrga asosan jiddiy talablar qo’yilmoqda. Kelajagimiz egalari bo’lgan yosh avlod ta’limi va tarbiyasiga qaratilayotgan e’tibor bir kun kelib o’z natijasini bermay qolmaydi, albatta. Ayniqsa, maktab yoshidagi o’quvchilar ta’lim-tarbiyasiga yuksak e’tibor berilib, farzandlamizning iqtidor va iste’dodlari erta aniqlanib shu asosida ta’lim sohalari bo‘yicha yo’naltirilib o’qishlariga alohida e’tibor berilmoqda.

Binobarin, “Mustaqil fikr yuritadigan, to‘g‘ri va halol, jasur avlodni tarbiyalash davrimizning dolzarb muammolaridandir”. Darhaqiqat, XXI asr intellektual, o’z mustaqil, sog‘lom fikriga ega yoshlarni tarbiyalaydigan asrdir.

Shu bois, bolalarning puxta bilim olishlari, teran fikrlashlari uchun, eng avvalo, ta’lim beruvchining mahorati, bilimi, layoqati muhim spetsifik xarakterga ega. Bugun o‘zini pedagogman deb hisoblagan mutaxassis, albatta, bolalarning ta’lim-tarbiya olishiga jiddiy e’tibor qaratmog‘i lozim.

Bisning asosiy maqsadimiz – o’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish, ularni ijodkorlikka jalb etishdan iborat. Negaki, bugungi kunda ish beruvchi ham mustaqil fikrlaydigan, olgan bilimlarini muammolarni hal etishda bemalol qo’llay oladigan, tanqidiy mulohaza yuritishga qodir bo’lgan, til zahirasi boy, savodli xodimni ishga olishdan manfaatdor. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o’qituvchi faoliyatidagi eng muhim narsa bu – o’quvchilarni o’rganishga o’rgatish. O’quvchilarning o’rganishi kerak bo’lgan narsalari esa cheksiz ko‘p – eng muhimi, ular mehnatdan qochmaslikka, ongli, samarali, ijodkorona va mas’uliyat bilan mehnat qilishga o’rganishlari lozim. Bugungi kunda o’qituvchilar oldiga qo’yilayotgan talab ham shu: o’quv tarbiya jarayonini muntazam takomillashtirib borish, ta’lim, tarbiya

bilan bog‘liq, rivojlantiruvchi va albatta, amaliy masalalarni sifatli hamda majmuali tarzda hal etish zarur.

Iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ulardagi tug‘ma qobiliyatni, iqtidor va iste’dodini erta yoshdan boshlab aniqlashga e’tibor qaratishimiz orqali kelajakda vatanimizdan buyuk shaxslar yetishib chiqishiga o‘z hissamizni qo‘shtan bo‘lamiz. Buning uchun biz bolalardagi iqtidor va qobiliyatni o‘z vaqtida aniqlab, to‘g‘ri yo‘naltirib rivojlantirsak, ularning kelgusida yangi-yangi kashfiyotlarni yaratishlariga zamin yaratgan bo‘lamiz. Shu sababli axloqli sof mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy madaniyati yuqori bo‘lgan. Bolalarni maxsus o‘qitish va ularga ko‘proq umid bog‘lash lozim. Aynan shunday bolalar kelgusida yanada muhimroq iqtisodiy ,ilmiy va ijtimoiy masalalarni yechishga qodir bo‘ladilar. O‘zbek avlodini jahonga ko‘z-ko‘z qila oladigan kishilar-bu iste’dodli, qobiliyatli, zukko, o‘z ishining ko‘zini bilib bajaradigan qo‘li gul, o‘z sohasining mohir mutaxassislaridir. Dono, tetik, aqli raso bolalarni sinf o‘quvchilari orasidan asosli ravishda tanlashimiz va ularni layoqat yo‘nalishlari, qobiliyatlariga qarab u yoki bu sohaga, kasbga yo‘naltirishimiz kerak. Is’tedodli bolalarni aniqlab ular bilan ishslashda qudagilarga amal qilinganda yaxshi natijalarga erishiladi:

-Har bir bola takrorlanmasdir. Ba‘zilari she’r yozish, ba‘zilari matematikadagi qobiliyati bilan bir xillari esa yuqori intellekti bilan ajralib turadi.

Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berayotgan pedagog maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimli va yuksak fazilatli shaxs hisoblanadi. Shu bois, bugungi kun zamonaviy o‘qituvchisida quyidagi fazilatlar bo‘lishi lozim. U o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida muntazam ishlashi, ta’lim-tarbiya pedagogikasi va psixologiyasi, fiziologiya fanlarining asoslarini bilishi, mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatini tashkil etishi lozim. Ustoz-murabbiylar ta’lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalanishni bilishi kerak.

Ko‘pgina is’tedodli o‘quvchilarning qiziqishlari ko‘p qirralidir. Is’tedodli bolalar boshqa bolalar bilan o‘qigan taqdirda ham, is’tedodli boshqa bolalar bilan muloqat qilish imkoniyatini yaratish kerak. Is’tedodli bolalarning dasturi har tomonlama mukammal bo‘lishi zarur. Is’tedodli bolalarni o‘qitishning namunali rejasini ish faoliyatiga bevosita tatbiq qilish kerak. Bugungi kun o‘qituvchisi o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o‘scha faoliyatga nisbatan qiziqish uyg‘ota olishi, ularning diqqatini jalg qilib faolligini o‘stirish, bolalarning xulqini, hatti-harakatini real baholay olishi kerak.

Har bir faoliyat uchun zarur bo‘lgan materialni oldindan tayyorlab qo‘yishi, yangi bilimni egallagan bilimlar bilan bog‘lay olishi kerak. Bolalar egallab olishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar ularning yoshlik xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. U bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va uni bolalar bilan amalga oshiradigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarida e’tiborga olishi kerak. Pedagogik mahoratning mohiyatini tahlil etish, undan etarli darajada xabardor bo‘lib uni amaliyotda qo‘llay olish pedagogning bilimi, tajribasi va kreativligiga bog‘liq. Demak, bugungi kun o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat alohida o‘ringa ega.

Foydalilanigan adabiyotlat

1. J.G‘.Yo‘ldoshev. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. O‘quv qo‘llanma. T 2020.
2. D.A.Abduraxmonova, R.A. Mavlonova “Pedagogik mahorat” Toshkent 2019 yil
3. I.Ibragimov U.Yo‘ldoshev X.Bobomirzayev Pedagogik psixologiya.. Toshkent.2007y

BOSHLANG‘ICH SINFDA MANTIQIY TOPSHIRIQLARNING O‘RNI

*Boltayeva Dilshoda Yunusovna
Tayloq tuman 3- maktabi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy topshiriqlar orqali fikrlash qobiliyatini oshirish,matiqiy topshiriqlarni o‘rni haqida fikr yuritilgan

Kalit so‘zlar: mustaqil ish, ijodiy yondoshish, mashq, maniqiy topshiriq

Hozirgi kunda matematika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni zeriktirib qo‘ymaydigan, ijodiy fikrlash, mustaqil ishlashga yo‘naltirigan har xil masalalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy qobiliyatning rivojlanishida arifmetik masalalar alohida o‘rin tutadi. Masalalar yechish jarayonida har doim taqqoslash, tahlil va sintez, abstraktlash, aniqlashtirish, umumlashtirish induktiv va deduktiv xarakterdagи xulosa chiqarish va shu kabi mantiqiy tafakkur usullaridan foydalaniladi. Har doim tafakkurning mazkur mantiqiy usullari arifmetik masalani yechish yo‘llarini topish vositasi sifatida ishlatiladi, o‘quvchilar ularni amalda o‘zлari tushunadigan shaklda o‘zlashtiradilar, ularni qo‘llashni o‘rganadilar.

Biz mantiqiy fikrlash, mantiq kabi so‘zlarni ko‘p gapiramiz va tez-tez eshitib qolamiz. Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. Mantiqiy masalar ustida ishlash asosida o‘quvchilarning mantiqiy firlash qobiliyatları shakllanib boradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlanishi asosida bolada mustaqil fikr, mulohazalar paydo bo‘ladi. Fikrlash yangi g‘oyalar va ular ustida ishlash imkoniyatlarini yaratadi.

Matematika fanidan o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun qo‘srimcha mashg‘ulotlarning o‘rnini katta. Qo‘srimcha mashg‘ulotlarda odatdagи misol va masalardan tashqari qiziqarli va mantiqiy masalalardan foydalanilsa, o‘quvchining fikrlash doirasi yanada kengayib, matematik bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil bo‘lar edi. Mantiqqa asoslangan xulosalar chiqarish, matematikaning qiziqarli yo‘nalishini belgilaydi. O‘quvchining tafakkur doirasi kengayib boradi. Mantiqiy masalalar ustida ishlash imkoniyatlarini egallash borasida bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Berilgan mantiqiy masala bolaning bilim va qabul qilish darajasida bo‘lishi muhimdir. Bolalarga songa oid, miqdorga oid, o‘lchov birliklariga oid, geometrik shakllarga doir mantiqiy masalar berilishi darslarda olgan bilimlarini mustahkamlaydi, ularning

mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan to‘ldirish va bog‘liqlikni ta’minlaydi

O‘quvchi qanday masala yechishidan qat’iy nazar, albatta, fikrlaydi. Odamning aktiv faoliyati, uning mehnati hamma vaqt masalalarni yechish kaliti bo‘ladi. Bola aqliy kuchlarini ishlatib, predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga intilib, muayyan ish qiladi. Tevarak olamda minglab masalalar bor. Ularni xalq o‘ylab topgan, ular topishmoq- hikoyalar tarzida xalq ijodida yashab keladi. Masalan:

Uch masxaraboz: Bim, Bom va Bam qizil, yashil va ko‘k ko‘ylaklarda sahnaga chiqishdi. Ularning poyafzallari ham o‘sha uch rangda edi. Bimning ko‘ylagi va tuflisining rangi xato aytildi. Bomning tuflisi ham, ko‘ylagi ham qizil rangda emas edi. Bam yashil rangli tuflida, ko‘ylagi esa boshqa rangda edi. Masxarabozlar qanday kiyinishgan edi?

Ismlari	Tuqli	Ko‘ylak
Bahrom	Qizil	Qizil
Botir	Ko‘k	Yashil
Bahodir	Yashil	Ko‘k

Mulohaza: Bom faqat ko‘k tuflida bo‘lishi mumkin. Unda Bim qizil tuqli va qizil ko‘ylakda bo‘lishi mumkin. Endi Bam faqat ko‘k Bom esa yashil ko‘ylakda bo‘lishi mumkin. Har bir mavzu asosidagi berilgan mantiqiy masalada o‘quvchilarni o‘ylashga, o‘z ustida ishslashga yo‘naltirilgan.

Men har bir darslarimni oxirida o‘quvchilar bilan mantiqiy savol va topshiriqlardan foydalanishga harakat qilaman. Bu o‘quvchilar fikrlash doirasini kengaytirib darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yordam berdi. Bundan qiziqqan o‘quvchilarim o‘zlari ham shunday masalar bilan darsda qatnashishga harakat qilishadi. Misol uchun:

Tejamli kesim

Qanday qilib 5 ta olmaning birortasini ham 6ta bo‘lakka bo‘lmasdan turib, 6 kishiga teng qilib bo‘lib berish mumkin ?

Mushuklar nechta ?

To‘rtburchak shakldagi xonaning har bir burchagida bittadan mushuk o‘tiribdi. Har bir mushukning qarshisida uchtadan mushuk o‘tiribdi. Xonada hammasi bo‘lib nechta mushuk o‘tiribdi ?

Tenglama

Ikkita sonning yig‘indisi 10 ga teng, ularning ko‘paytmasi ham 10 ga teng. Bular qaysi sonlar ?

Hovuzni to‘ldirish

Hovuzni 2 ta quvur orqali suv bilan to‘ldirish kerak, Agar Birinchi quvurning o‘zi 5 minutda to‘ldirsa , ikkinchi quvurning o‘zi 10 minutda to‘ldirsa, ikkala quvur birgalikda necha minutda to‘ldiradi ?

Bugungi kunda mantiqiy topshiriqlardan foydalanish xalqaro baholash dasturlariga ham mos keladi. Mantiqiy topshiriqlar bilan ishlash jarayonida biz o‘quvchilarni ushbu tadqiqotga ham tayyorlab boramiz. Mantiqiy topshiriqlarni ko‘rgazmali tarzda ham amalga oshirsak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi zamon boshlang‘ich matematika kursi, unga kiruvchi mantiq elementlari va tegishli metodik ishlanmalarning maxsus alohida ta’kidlari natijasida o‘quvchilarda mantiqiy mahoratlarni o‘stirishga xizmat qiluvchi nostandard masalalarni yechishni to‘laqonli va maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘tkazish imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Djurakulova A.X. O‘quvchilarning qobiliyatini shakllantirishda nostandard masalalar ahamiyati. Toshkent, 2020

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI

*Bovatova Dilafroz Qurbonovna
Jomboy tuman 32- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf nutqini o‘stirishning o‘ziga xos usullari va undan foydalanish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, ta’lim, ifoda, talaffuz, fikr, og‘zaki, yozma.

Ta’lim jarayoni, uning rivojlanishi va samarali kechishi ko‘p jihatdan o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ishonchi asosida qurilgan ochiq muloqotiga bog‘liq. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni davlatimizning ta’lim-tarbiya tizimida umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichidir. Uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzdagi o‘qish, yozish, hisoblash ko‘nikmalarini hosil qilishdan, obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish hamda boshlang‘ich ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondashuvlar bilan boyitishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’limning ilk savodga o‘rgatish davridanoq, o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini me’yorlashda, adabiy tilning o‘ziga xos xususiyatini belgilash, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya’ni ravon o‘qishning amaliy ahamiyatini o‘stirish, adabiy til me’yori va mezonlariga rioya qilish, o‘qish metodlarini takomillashtirish yo‘llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Umumiyl o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarda o‘qish fani o‘quvchilarni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Darsda o‘quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo‘lib

o‘qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og‘zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Nutqni o‘stirish bilan bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatlari bog‘liq holda uzviy rivojlantiriladi. Bolalarni faollikka o‘rgatish uchun ma’nodosh so‘zlarni topish o‘yinlarini tashkil etish, bunday so‘zlarni nutqda o‘rinli qo‘llashni, gap tuzishda esa so‘zlar orasidagi bog‘lanishga mos turli o‘xshatishlar topish kabi ishlar doimiy ravishda o‘tkaziladi. Rasmlarga yoki tasviriy vositalarga qarab gap tuzishni, gapda so‘zlarning tartibga, ularning bir-biriga bog‘lanishiga, so‘zlar o‘rnini almashtirib, gapni qayta tuzib o‘qishda izchillikka rioya qilish mashqlarini o‘tkazishga e’tibor beriladi.

Men o‘z darslarimda o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda turli xil maqollarni har -xil formalarga solib o‘rgatib borishga harakat qilaman, bu o‘quvchilarni faolligini oshirish bilan birga ularni nutq faoliyatini ham rivojlanib borishiga sabab bo‘ladi. Quyida shu maqollarimdan birini sizlarga ko‘rsatib o‘tmoqchiman.

Ichib turgan	boshim	xirmonga	elni talar
Olma	bilan	adab	vafo
Og‘il bo‘lsin	oshimga	bersang	unim
Izzat tilasang	vayronasi	uning joyi.	g‘amxonasi.
Chaqimchi	ko‘p dema.	baxil topsa,	paqir, o‘choq
Saxiy topsa,	- tuxum po‘choq,	umrning	ko‘p yema.
Vatanning	erk	sihat tilasang	bekitib
Bir	hech ham	siringni	tush
Aql	vafo	sir	ol
Oltin	ham	og‘zimga	yotmas
Ishga	qiz bo‘lsin	chivin yetdi	oshim
Devorning	uyda	mingga	o‘lim
Bolali	olma	bir	berma
Birga	boshga	duo	bor
Dushmanga	pish	qulog‘i	egizak
Do‘stsiz	qo‘nim	qo‘l oyog‘i	boshimga
Noinsofga	bo‘lib yer,	tuzsiz	tez bo‘lsin

Bu jarayonda o‘quvchilar birinchi qatordagi so‘zlarni olib keyingi qatordagi so‘zlar bilan birlashtiradi. Masalan: "*Ichib turgan oshimga chivin yetdi boshimga*", *yoki "Olma pish, og‘zimga tush"*, *"Izzat tillasang, ko‘p dema-sihat tilasang, ko‘p yema"* kabi maqollar tuzishlari mumkin. Bu topshiriqlar orqali ham o‘quvchilar nutqi rivojlanib boradi, ham ularni aqli charxlanib tafakkur doirasi kengayib boradi. Ushbu jarayonni amalaga oshirish yana o‘quvchida og‘zaki va yozma nutqini hama rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalash uchun og‘zaki nutq namunalaridan foydalanish, ularga taqlid qilish, ko‘proq yod olishga e’tibor berish mashqlarini o‘tkazish tavsiya etiladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yod olish qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘quv dasturida berilgan she’r namunalarini yoddan aytishda ifodalikka, nutq odobiga rioya qilish, shoshilmay, yoqimli ovozda o‘qish talab etiladi. Ya’niy ularda “Nutqiy kompetensiya” elementlarini rivojlantirishimiz kerak bo‘ladi, bular -tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish kabilardir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. R. Yo‘ldoshev, R. Xusainova, U. Bobojonov “Ta’limning interfaol metodlari”
2. <http://www.pedagog.uz>

DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI

*Mamatkulova Dilfuza Xamidovna
Samarqand shahri 14-IDUM o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang`ich sinf darslarini tashkil etishning o‘ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan

Kalit so‘zlar: mustaqil ish, ijodiy yondoshish, mashq, zamonaviy metodlar

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik

vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahsmunozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Men darslarim samaradorligini oshirishda turli xil vosita va usullardan foydalanishga harakat qilaman. Masalan:

So‘zdan harf olib tashlash orqali so‘z hosil qilish

Har bir guruhga alohida-alohida topshiriqlar quyidagicha berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan:

1-guruhgaga: So‘zning oxirgi harfini olib tashlash orqali.

Ko‘chat – ko‘cha

Shodi – shod

Aziza – Aziz

2-guruhgaga: So‘zning o‘rtasidagi harfni olib tashlash orqali.

Qattiq – qatiq

Ekkan – ekan

3-guruhgaga: So‘zning bosh harfini olib tashlak orqali

Choy – oy

Qasr – ars

Soy – oy

Solmoq – olmoq

“Topishmoq o‘yini ”

O‘yinning sharti: O‘quvchilar 3-guruhgaga bo‘linadi. Kataklarda yashiringan so‘zlar har bilan guruhgaga alohida-alohida beriladi:

O‘qituvchi: Qator-qator sirli katak,

Bizga yaqin inoq o‘rtoq

O‘ylab topib, biling sirin

Kataklarda ne yashirin.

“O‘zbekiston” guruhiga;

Uyning ustki qismini va biror asarning alohida kitob holdagi nashrini antlatuvchi so‘z?

--	--	--

“Nihol” guruhiga:

Ijtimoiy guruhlarni va maktabdagi o‘quv tarbiyaviy ishning bosqichlarini anglatuvchi so‘z?

--	--	--	--

“Umid” guruhi:

Ma’danlardan birining va shaxmat donasining nomini bildiruvchi so‘z?

--	--	--

Topilgan so‘zlarning ma’nosini izohlab, qaysi so‘z turkumiga oid ekanligini aniqlang, so‘ngra shu so‘zlar ishtirokida sodda gaplar tuzing deb topshiriq beriladi.

“U kimdir, u nimadir?” (Topishmoqli o‘yin)

Ot so‘z turkumi o‘tib bo‘lingach, o‘quvchilarga savol-topishmoq, ya’ni biron narsaning tasvirini keltirib nomi aytilmaydi va “u kimdir?” yoki “u nimadir?” deb so‘raladi. Masalan:

Ish buyursang qilmaydi, yotishni o‘yinni hush ko‘radi, kimdir (Dangasa)

Quchog‘iga juda ko‘p bolalar sig‘adi, U hammasiga bilim ham tarbiya berib ulguradi, u nimadir (Maktab)

Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, nutqini o‘stirish mumkin.

“Kim ko‘p so‘z eslab qoladi” o‘yini

20 ta so‘z mavzuga doir o‘qib beriladi. O‘quvchilar ularni eshitib bo‘lgach, eslab qolganlarini daftarlariiga yozadilar. Eng ko‘p so‘z yozgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Yozilgan so‘zlar mavzudan kelib chiqqan holda tahlil qilinadi.

“So‘z yasash” o‘yin

Berilgan so‘zlardagi xarflar o‘rnini almashtirish yo‘li bilan joy nomlarini misol keltirish.

Anor-ohang (Ohangaron)

Zo‘r – nav (Navro‘z)

Oq – lalmi (Olmaliq)

Boyagi – don (Yangiobod)

Kek – ko‘tar (ko‘kterak)

Bu kabi usullar o‘quvchilarni qiziqishlarini ortirish bilan birga faollik darajasini ko‘taradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim mazmunining o‘zgarishi, ta’limda pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, zamonaviy o‘qitish metodlari talablarining o‘zgarishlari dolzarb masala bo‘lib har bir o‘qituvchiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Yo‘ldosheva va b.q “Ona tili” darsligi 3-sinf T-2019 yil
2. Yo‘ldoshev J.Q, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent,2020.
2. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta'lim portal

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA OTA-ONA, MAKTAB HAMKORLGI, TA’LIM TARBIYA SAMARADORLIGI

*Shayimova Sarvinoz Safarovna
Oqdaryo tumani 56-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolamda ta’lim muassasasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga ta’lim tarbiya berishda ota-ona va maktab hamkorligidagi olib borilgan ishlar samaradorligi haqida, hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi ijobjiy munosabatlar, pedagoglar o‘rtasidagi o‘zaro uslubiy hamkorlik haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Tadbirli rahbar, ta’lim oluvchi ta’lablari, ota –ona, maktab hamkorligi, didaktik materiallar, didaktik o‘yinlar, arbiya, intizom o‘rnak, qoidalar, tashabbuskorlik, kreativlik, innovatsiya, hamkorlik.

O‘quvchilarni ongi-yu qalbi bir toza daftар misol-unga nima yozsak, nima bilan to‘ldirsak, shu bilan boyib boradi. Bolaning shuurini uning yoshiga mos fikrlar, cho‘g‘day g‘oyalar bilan to‘ldirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘rni beqiyosdir .

Ma’lumki, tarbiya ko‘proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg`usi shakllantiriladi. Ularda asta – sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo`ladi va bu orqali o‘quvchilar ma`naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu – havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofдillik, ona – Vatanga mehr – muhabbat, fidoyilik, milliy g`urur, matonat, mehr – oqibat, do`stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo`ladi. Ana shunday yuksak fazilatlarni bolalar qalbiga joylashdek mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan fidoiy o‘qituvchilar bilan hamkorlikda oilada ta’lim tarbiyani to‘g‘ri yunaltira borayotgan ota –onalar ta’lim –tarbiya jarayoninidagi o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. “Ta’limni- tarbiyadan, tarbiyani- ta’limdan ajratib bo‘lmaydi”-bu sharqona qarash falsafasidir. Shunday ekan boshang‘ich ta’limda bola tarbiyasidik og‘ir mashaqqatli jarayonda pedagoglar

faoliyatiga ota –onalarning asossiz aralashuvi, pedagogik faoliyatga xalaqit berishi bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tajribalardan ma’lum bo‘lgan. Bu borada ta’limda qat’iy qarorlar qabul qilingan. Bola yoshidan ustozga hurmat, ustozga ixlos qilish tushunchalari oilada singdirilsa ijobiy natijalarga erishiladi.

Ota –ona va maktab, ustoz hamkorligini rivojlantirish orqali ta’lim tizimida ustozlar zimmasida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

-Ta’lim oluvchining dunyoqarashini shakllantirish, ularning bilim egallash samaradorligini oshirish;

-ta’lim oluvchining rivojlanishida ijtimoiy talablarga javob bera olish;

-ta’lim jarayonida tizimlilikni ta’minlash;

-ta’lim oluvchini mustaqil va kreativ fikrlashga o‘rgatish;

-ta’lim oluvchi ixtiyojlarini tushunish, ularda bola yoshidan estitik did, jismoniy sog‘lomlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish;

-ta’lim oluvchining muhim qarorlar qabul qishda tanqidiy fikrlashlarga o‘rgatish tushunchalarini singdirish ;

-ta’lim oluvchining qiziqishlarini o‘rganish va undagi bor iste’dod va intilishlarni yuzaga chiqarish;

Ta’lim oluvchilarining bunday ta’lablariga javob bera olishda o‘qituvchi pedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, hamda innovatsion metodlardan o‘rinli va maqsadli qo‘llay olish ko‘zda tutiladi. O‘zida “Men”i kuchli bo‘lgan o‘quvchilar bilan individual yondashishda ota –onalar hamkorligi zarur. Tajribalar shuni tasdiqlaydiki bunday o‘quvchilar ota –onalarida ham shunday xislatlatlar mavjud bo‘lib, ta’lim jarayoniga bir qancha muammoli vaziyatlar olib kelishi mumkin. Bunday alohida e’tibor talab qiluvchi o‘quvchi va uning ota -onasi bilan muloqatlarni ijobiy yo‘lga qo‘yishda ta’lim muassasasi rahbarlari, psixologlarining bir qancha vazifalari mavjuddir. Ta’lim tabiyaning izchilligini ta’minlashda, mavjud har qanday kichik muammolarni joyida bartaraf etib borish ijobiy natija beradi, pedagogik ziddiyatlar oldi olinadi.

Ta’lim tarbiyaning muvaffaqiyatli olib borilishida ota-onalar zimmasida ham

quyidagi vazifalar amalga oshirilib boriladi:

- ta’lim oluvchilarning kundalik rejim asosida kun tartibini belgilab berish;
- ta’lim oluvchilarning moddiy va ma’naviy ixtiyojlarini qondirib borish;
- ta’lim oluvchilarni maktabning ichki tartib qoidalariga bo‘sunishga o‘rgatish;
- qoidalar hamma o‘quvchi uchun tenglik tushunchasini singdirish;
- ta’lim oluvchilar mehnat va dam olish,aqliy va jismoniy mehnat faoliyati o‘rtasida o‘zaro mutanosiblikni qaror toptirishga erishish ;
- ta’lim oluvchilarda ongli axloq intizom tushunchalarini qaror toptirishga erishishdan iboratdir.

Ota -onalar hamkorligidagi eng muhim vazifalardan biri, o‘quvchilarning xulq atvorida ijobjiy natijalarga erishib, borish bilan ta’limni o‘z vaqtida o‘zlashtirilib borilishiga erishishdan iboratdir.Intizom o‘quv ishlariga g‘oyat katta ta’sirini ko‘rsatadi.Darslarga muntazam ishtirok etish, mashg‘ulotlarga kech qolmaslik, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarilishi, dars jarayonlarida intizomli bo‘lish holatlari ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayoninida bir qancha qiyinchiliklar bola psixologiyasi, hamda toliqishda organizmlarning har xilligi bola fiziologiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi.Shuni e’tiborga olgan holda mahoratli pedagog dars jarayonlarini tashkil etishda ba’zi vazifa va topshiriqlarni o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga moslashtirish,tabaqalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzluksiz ta’lim ilmiy –uslubiy jurnal. Toshkent 2016.
2. Tarbiya darsligi Toshkent “O‘zbekiston” 2020.

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TA’LIM OLISHIDA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN UNUMLI
FOYDALANISH**

*Suvonova Zarina Boymirzayevna
Samarqand shahar 41- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilar bilimini oshirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni, pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: komil inson, pedagogik texnologiya, didaktik o‘yinlar, o‘qish motivlari, erkin va mustaqil qobiliyat

Pedagogik texnologiya — bu ta’lim shakllarining samaradorligini oshirish vazif asini qo‘yadigan texnik va shaxsiy resurslarni va ularning bog‘liqligini hisobga olgan holda, o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli. Ta’limni takomillashtirishda zamonaviy bilimlarga yo‘l ochish pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O‘zbekistonimizda uzlusiz ta’lim tizimini isloq qilish uni yangi davlat ta’lim standartlari asosida o‘rnatishga qaratilgan. Hozirgi kunda o‘qituvchining faoliyati, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonimizda mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi, iqtisodiy rivojlantirishning o‘zbek modeli, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilib, kelajak avlodni tarbiyalash borasida zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta’lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotganligi

barchamizga ma’lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasn emas. Pedagoglar o‘z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo‘lga kiritishga urinmoqdalar.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim shubhasiz mustahkam poydevor yo‘lini o‘taydi. Boshlang‘ich ta’lim standartida o‘quvchilarning o‘qish malakalarining sifatlari va ijodiy fikrlay olishlari, o‘z-o‘zini nazorat qila bilishlari, nutq madaniyatini o‘zlashtirishlari, husnixat bilan savodli yozish ko‘nikmalarini egallashlari alohida qayd etilgan.

Yurtimizda ta’lim mazmuniga alohida e’tibor qaratib, DTS o‘quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o‘tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Boshlang‘ich sinfda “o‘qish” fani o‘quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikmasi va malakalarga xizmat qiladi. Sinfda o‘qish darslariga qo‘yilgan vazifalar:

1. O‘qish malakasini takomillashtirish. O‘quvchilarda yaxshilik darajasi sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish.
2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg‘otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga o‘rgatish, ya’ni kitobni seuvuchi, kitob bilan ishlashni biladigan chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish.
3. O‘quvchilarda atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.
4. O‘quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O‘quvchilar nutqi (asosan, og‘zaki nutqi) ni va tafakkurini o‘stirish.

6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining mazmuni:

1. Ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ulardan o‘rinli foydalanish -ta’lim samarasini ta’minlashga yordam beradi.
2. Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyat doirasini aniq belgilab beradi.
3. O‘qitish metodi deganda ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O‘qitish usullari ta’lim jarayonidagi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini qanday bo‘lishini, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

O‘qitish usullari har ikkala faoliyatning:

- a) o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish;
- b) o‘quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish faoliyatida qo‘llanadigan yo‘llarni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O‘qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko‘pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog‘chadan so‘ng mакtabning dastlabki davrlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim davri ta’lim jarayonidagi eng ma’suliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bu davrda, avvalo, ta’lim jarayonini qiziqarli, ta’sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim.

Chunki, bu muddat bolaning o‘yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya’ni o‘quv faoliyatiga o‘tganligi bilan harakterlanadi. Bolaning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda turli o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘yin orqali o‘z

bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o‘zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlarning roli beqiyosdir.

Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta’lim jarayonida o‘quvchilar faolligini, o‘qish motivlarini rivojlantiradi.

O‘qish motivlari ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘qish darslari jarayonida erkin va mustaqil qobiliyati shakllanadi.

Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o‘quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o‘rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta’limning mazmunini belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma’naviy fazilatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta’limning natijasi va o‘zlashtirish darajasini aniqlash, ularni obektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Tushunish, idrok etish, o‘zini o‘zi boshqarish, fikrni aniq, aniq va bataf sil tushuntirish qobiliyatiga, interf aol o‘qitish usullari, o‘z-o‘zini va boshqalardan foydalanish “Men” tezda rivojlanadi va ijobiy samara beradi. O‘qitishda interf aol metodlardan foydalangan holda O‘quvchilar o‘rtasida raqobat muhiti yaratildi, bu O‘quvchilarning oldinga siljishiga imkon berdi, natijada O‘quvchilar birgalikda o‘rganishni boshladilar. Har qanday interf aol usul O‘quvchilarni to‘g‘ri va maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya — bu o‘qituvchi asosiy javobgar shaxs bo‘lgan ta’lim tizimining ratsional usullarini ishlab chiqaradigan jarayon. Chunki uning asosiy vazifasi o‘quvchilarga tezkor, aniq va tushunarli tarzda ma’lumot berishdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishni samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, ta’lim berishda pedagogik

texnologiyalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish uslublari, kafolatlangan natijaga erishish uchun olib borilayotgan ta’lim sohasidagi yangiliklarni o‘rganish, amaliy foydalanish ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ta’lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ta’lim samaradorligi pedagog va o‘quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizzxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: 2006
2. Avliyoqulov N.X. Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent., 2008

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING IMLOVIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH

*Xotamova Maftuna Zarifovna
Samarqand tuman 14-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning imloviy savodxonligini shakllantirish haqida yoritilgan. Boshlang‘ich sinfda va hatto yuqori sinfda ham imlo qoidalarini yod oldirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki yod olish imloni o‘zlashtirish degan emas ekanlikgi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: imloviy malaka, boshlang‘ich ta’lim, nutq hamkorlik, muammolar yechimi, faoliyat, natija, to‘g‘ri yozuv.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati ”da orfografiyaga quyidagicha ta’rif beriladi: “Orfografiya yunoncha so‘z bo‘lib, “to‘g‘ri yozuv” degan ma’noni bildiradi. Orfografiya (imlo) adabiy tilning yozma shakli bilan bog‘liq bo‘lib, to‘g‘ri yozish haqidagi qoidalar yig‘indisidir”

Boshlang‘ich sinflarda kichik yoshdagi o‘quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida 1-sinfdan 4-sinfgacha bosqichma bosqich ishlanadi.

“Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To‘g‘ri yozuv – maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo‘lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzish, so‘zni uslubiy aniq qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi”.

Imloviy malakani shakllantirish uchun 1-sinfning savod o‘rgatish davridayoq so‘zlarning tovush va harf tarkibi ustida ishslash, so‘zning orfografik o‘qish va orfoepik o‘qilishini taqqoslash, alifbe davrida “Alifbe” va “Yozuv daftari”da qo‘llangan so‘zlarning tarkibini tovush-harf tahlilini tashkil qilish kabi tahlillar muntazam o‘tkazilishi kerak. Orfografik ko‘nikma yillar davomida shakllantiriladi. Uni malakaga aylantirish uchun bola so‘zlarning imlosi ustida ta’limning keyingi bosqichlarida ham ishlashi zarur.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ko‘chirib yozish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘pincha ”Ko‘chiring” degan topshiriq bilan cheklanmoqdalar. ”So‘zni (yoki gapni) o‘qing. Yozayotganingizda so‘zni ichingizda bo‘ginlab aytib turib yozing. Yozganiningizni kitobga qarab tekshiring”, ”Yozuvda qabday xatoga yo‘l qo‘ydingiz? Nima uchun shunday xatoga yo‘l qo‘ydingiz?” topshiriqlari asosida o‘quvchilar ustiga mas’uliyat yuklamaydilar.

Ko‘chirib yozishda so‘zni harflab ko‘chirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Chunki bola so‘zni harflab ko‘chirishda ayrim harflarni nigohidan o‘tkazib yuboradi, ya’ni tushirib qoldiradi. Ayrim o‘qituvchilar so‘zni bo‘g‘inlab ko‘chirish bilan keyinchalik so‘zni yaxlit ko‘chirish almashadi, so‘ngra u gapni ko‘chirish bilan almashadi, degan fikrni bildiradilar. Biz o‘z tajribamiz asosida shuni aytmoqchimizki, orfografik malaka hosil bo‘limguncha, bola hech qachon yozuv jarayonidabo‘g‘inlab aytib turmay yozmaydi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinfda yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To‘g‘ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o‘quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to‘g‘ri yozuv hodisasini o‘zlashtirish uchun o‘quv va yodda saqlashgina yetarli emas, balki analiz va sintez kabi tahlilga zarurat seziladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun

taqqoslash hamda so‘z va so‘z shakllarini ma’lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash kabi aqliy faoliyat usullari ishga solinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri yozuv malakasi grammatis nazariyani asoslanib shakllantiriladi. “Imlo qoidalari,- deyiladi K.Qosimovaning darsligida,- bir so‘znigina emas, balki umumiylit mavjud bo‘lgan butun so‘zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so‘zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan meyorga muvofiq butun so‘zlar guruhini yozish imkonini yaratadi”

Boshlang‘ich sinfda va hatto yuqori sinfda ham imlo qoidalari yod oldirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki yod olish imloni o‘zlashtirish degan gap emas. Chunki bir imlo qoidasi necha minglab so‘zlarni o‘ziga birlashtiradi. Har bir so‘z o‘z tovush tarkibiga ega. Bu ularning har biri ustida orfografik va orfoepik tahlilni taqozo etadi. To‘g‘ri, “Imlo qoidasi grammatis umumiylit asosida birlashgan so‘zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi”. Lekin bu qoida uzoq yillar davomida shakllanishini hisobga olsak, maktab ta’limida so‘z tarkibini doimiy ravishda imlosi nuqtai nazardan kuzatish hamda tahlil qilishni talab etadi.

Ona tili darslarida dastlab grammatis, fonetik, so‘z yasalishiga oid tushunchalar shakllantirilgandan so‘ng ularning imlo bilan bog‘liq tomonlari ochib berilishi kerak.

“Tilning fonetikasi,- deb yozadi A.Hamroyev,- uning birdan-bir aniq tomoni hisoblanadi. Masalan, “b” tovushi faqat “b” tovushini bildiradi. Fonetika, fonema, bo‘g‘in, urg‘u kabi lingvistik kategoriylar abstrakt tafakkur mahsuli bo‘lsa-da, nutq tovushi (b), so‘zning bir qismi (bo-bo), so‘z bo‘g‘inlaridan birining kuchli aytilishi (ish-chi-man) bizning ongimizga bog‘liq bo‘lmagan hodisadir.

Fonetikani o‘zlashtirish o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish bilan bevosita bog‘langan. Buning uchun har bir nutq tovushi so‘z tarkibida o‘rgatiladi. Natijada o‘quvchi so‘zning fizik tomoni hisoblangan nutq tovushlarini so‘z tarkibida farqlash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Ma’lum nutq tovushi bo‘yicha so‘z ma’nolarining

o‘zgarishi ustida ishslash (o‘n-en-in-un; il-iz-ich-ip-ish), so‘zlarni tovush va bo‘g‘inlariga ko‘ra tahlil qilish, berilgan harf va aytilgan tovush ishtirokida so‘z, soz birikmasi, gap tuzish bolalarda nutq qura olish layoqatlarini o‘stiradi.”

Olimning fikricha, nutq tovushlari, ularning o‘zaro farqlari ustida mashq qilish natijasida o‘quvchilarda ham lingvistik tushuncha shakllanadi, ham fonematik eshitish (nutq tovushini so‘z tarkibida to‘g‘ri anglash, fahmlash, eshitish, aytish) rivojlanadi. Lingvistik tushunchalar to‘g‘risida tasavvur hosil qilish, fonematik eshitishni shakllantirish o‘quvchilarining til sezgirligini ta’minlaydi. Shunday qilib, fonetikaga oid bilimlarni o‘rganish, o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda orfoepik, grafik, orfografik va shuning kabi malakalar hosil qilinadi.

Ma’lumki, ona tili ta’limiga oid leksika materiallari boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘rganiladi. O‘quvchilar so‘zlarning ma’nolari, yaqin ma’noli so‘zlar, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar va shu kabi leksik hodisalarini o‘rganish orqali har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlatish uslubini ham o‘zlashtirish yo‘lidan borishadi.

Chunki grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor bo‘ladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo‘ladigan grammatik nazariyaga bog‘liq holda o‘rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo‘srimchalarning yozilishi haqidagi qoidalari “Ot”, “Sifat”, “Son”, “Kishilik olmoshlari”, “Fe’l” mavzularidagi otlarning kelishik qo‘srimchalari bilan qo’llanishi, fe’llarning bo‘lishsiz shakllarining imlosi, otlarning ko‘plik shakllari imlosi, kishilik olmoshlarining kelishik qo‘srimchalari bilan qo’llanishi bilan bog‘liq imlo, shuningdek, so‘z yasovchi morfemalar bilan bog‘liq ot, sifat, fe’l so‘z yasovchi qo‘srimchali so‘zlar imlosi kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G. G‘afforova T, “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” “Tafakkur” nashriyoti Toshkent -2019-yil
2. Ro‘ziboeva O. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. –T.: «O‘zbekiston», 2001.
3. Safarova R. va boshq. Savod o‘rgatish darslari. . –T.: «Tafakkur», 2021.

TA’LIMDA DIDAKTIK VA ROLLI O‘YIN TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

*Yuldasheva Dilnoza Xudayaravna
Nurobod tumani 9- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’limda didaktik va rolli o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning shaki va usullari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, bilim, maktab, oila, mahalla, texnologiya, usul, vosita, intellektual.

Ta’lim-tarbiya oiladan boshlanadi. Shunday ekan, har bir ota-onan o‘z farzandi kelajagi uchun befarq bo‘lmasligi, maktab-oila-mahalla hamkorligida faoliyat ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Chunki, davlatning rivojlanishiga nafaqat o‘qituvchi, balki har bir ota-onan, har bir fuqaro ma’sul.

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchilarda intellektual salohiyatni oshirish, ta’lim tizimi bilan ilm-fan sohasini integratsiyalash darkor.

Ma’lumki, har bir dars mavzusini o‘rganishda o‘ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to‘g‘ri keladi. O‘qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma- ketligini mo‘ljallash kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi fanning o‘ziga xos tomonlarini, o‘quv jarayonini va sharoitini, o‘quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlataladigan texnologiyalarni tanlashi lozim.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida o‘quvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ilmiy axborot xajmining keskin oshib ketishi bilan an'anaviy ta’lim kam samarali bo‘lib qoldi. Ana shuning uchun kelish davri interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga kiritishga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishga, mustaqil o‘rganish, tahlil qilish va olingan bilimlardan o‘zlari

xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Bundan hamkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchining bilim olish ishtiyoqini muntazam oshirib borish;
- o‘quvchining har qanday muammoga ijodiy yondoshuviga o‘rgatish;
- pedagog va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro hamkorligini ta’minalash;
- o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmasdan, ijodiy fikrlashi va izlanlanuvchan imkon yaratish.

Bu jarayonda kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorligida faoliyati, o‘quvchining ijodiy ishlash mustaqil fikrlashi, izlanishi, taxlil qilishi va xulosalay olishi, o‘quvchining o‘ziga va guruhga, guruhning o‘quvchiga baho berishiga imkon yaratilishi bilan bog‘liq. Har bir darsga o‘quvchilar qiziqishi mavzu mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos texnologiya qo‘llaniladi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchi hamkorligini qo‘yidagi sxema orqali ifodalash mumkin:

Darsning texnologik xaritasi oldindan loyixalashtirilgan bo‘ladi. Darsning turli bosqichlarida har xil interfaol usullardan foydalansa bo‘ladi. Masalan: “*Didaktik o‘yinli texnologiyalar*” Didaktik o‘yinli texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini o‘yinfaoliyati bilan qo‘sib olish borishdan iborat. Didaktik o‘yinlar musobaqa, raqobat, o‘zaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi. Buning uchun o‘qituvchi didaktik o‘yindan ko‘zda tutilgan maqsad, uni amalga oshirish yo‘llari, o‘yin mazmuni va ishtirokchilari faoliyatini aniqlab oladi. Didaktik o‘yin darslari ta’lim va tarbiya berish, o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltirish, kasbga yo‘naltirish, o‘quvchilarningmuloqat va nutq madaniyatini rivojlantirish, ular bilimlarini chuqurlashtirish vashaxsini rivojlantirish vazifasini bajaradi. Didaktik o‘yinli darslarni mazmunigako‘ra sahnalashtirilgan rolli o‘yinlar, ijodiy ishbilarmonlik o‘yinlari, konferensiyava o‘yin mashqli darslarga ajratish mumkin.

“*Sahnalashtirilgan o‘yinlar*” Muammoli vaziyatning bir turi bo‘lib, hayotiy vaziyatlarni o‘quvchilartomonidan sahnalashtirilishdan iborat. Ularda didaktik

maqsad o‘quvchilar oldigavazifa tariqasida qo‘yiladi; o‘quvchilarning o‘quv faoliyati o‘yin qoidasigabo‘ysundiriladi.

“*Ishbilarmonlik o‘yinlari*” Ishbilarmonlik o‘yinlarida ishtirokchilariga o‘yin mavzusi taklif etiladi. Mavzu bo‘yicha ular oldiga taklif etilgan muammoni yechish ular oldiga taklifetilgan muammoni yechish qo‘yiladi. Har bir ishtirokchi o‘z roliga muvofiqkeladigan chiqish tayyorlaydi va bu haqda barcha ishtirokchilar bilanmaslahatlashadi. Guruhning barcha a’zolarini faoliyati umumiy maqsadgaerishishga qaratiladi. Baholash o‘quvchilarning tashkiliy faoliyati va ularningumumiyligi maqsadga erishishdagi rolli o‘yinlarining mazmuni bilan belgilanadi. Ishbilarmonlik o‘yinlaridan botanika darslarida madaniy va dorivor o‘simpliklarnio‘rganishda, zoologiya darslarida uy hayvonlari zotlarini o‘rganishda foydalanishmumkin. Ishbilarmonlik o‘yinlari uchun chorva mollari parrandachilik, baliqchilik, madaniy o‘simpliklar, dorivor o‘simpliklar mavzulari bo‘yicha auksion darslariuyushtirish mumkin. Rolli o‘yinlar ham guruhda bajariladi. Unda har bir ishtirokchi o‘z individual maqsadni boshqa guruh a’zolari bilan kelishib olmaydi.

Har bir ishtirokchi o‘zini namoyon etish va g‘alaba qozonish uchun xarakat qiladi. Baholashda har bir ishtirokchining harakati va umumiy maqsad yo‘lidagi xarakatihisobga olinadi. Rolli o‘yinlarda bir-birini inkor etuvchi vaziyatlar paydo bo‘ladi. Har bir ishtirokchi bu vaziyatdan chiqish uchun mantiqan to‘g‘ri yo‘lni tanlaydi. Ishlab chiqilgan rolli o‘yinlar mumkin qadar o‘quv materiali bilan bog‘langan vahayotiy, ishtirokchilar 49oshi va tayyorgarlik darajasiga mos kelishi lozim.

“*Ilmiy konferensiya darslari» texnologiyasi*” Ilmiy konferensiya darslari o‘qish faoliyatini ilmiy izlanish, ma’ruza va bahsshaklida tashkil etishdan iborat. Bunday darslarda yaxshi o‘qiydigan va qiziquvchio‘quvchilar biolog olimlar vazifasida konferensiyada chiqish uchun ma’ruza vako‘rgazmali vositalar tayyorlashadi. Qolgan o‘quvchilar konferensiya ishtirokchilari sifatida o‘zlarini qiziqtiradigan muammolar yuzasidan savollar tayyorlanadi. Ilmiy konferensiya darsning asosiy maqsadi o‘quvchilarni qo‘srimcha adabiyotlar, ilmiy-ommobop

materiallar bilan ishslash, ma’ruza tuzish, o‘z fikrini bayon etish ko‘nikma va malakalarini nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishdan iborat. O‘qituvchi ilmiy konferensiya darsi mavzusini oldindan belgilab beradi. Uni alohida kichik mavzularga ajratadi. Kichik mavzular uchun qo‘sishimcha adabiyot tanlaydi. Konferensiyaga tayyorgarlik bo‘yicha zarur ko‘rsatmalar beradi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishslash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta’lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: 2015. – 87 bet

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARGA MATEMATIKA DARSLARIDA EKOLOGIK TA’LIM-TARBIYA BERISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

*Kuchiyeva Dildora Abdumannonovna
Samarqand tuman 13- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf darslarini integratsiyalashning imkoniyatlari yoritilgan. Matematika darslari orqali o‘quvchilarni ekologik ruhda tarbiyalash va ta’lim berishning didaktik imkoniyatlari o‘rganilgan. Ekologik ta’lim-tarbiya berishning samarali vositalari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, hamkorlik, ekologik tarbiya, ekologik ta’lim, faoliyat, integratsiya,natija.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar. Yer va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o‘simlik va hayvonot dunyosini qo‘riqlash, bu boyliklardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzluksiz ko‘paytirib borishni ta’minalash, insonning atrof-muhitni yaxshilash uchun chora va tadbirlar ko‘rishi zarurligi ta’kidlangan.

Bolalarning atrofimizdagi olamni muntazam o‘rganib borishlariga asoslanib, kichik yoshdagи o‘quvchilarda tabiat to‘g‘risida o‘z joyi va barcha mamlakatning tabiiy boyliklari to‘g‘risida bir butun tasavvur shakllantirish kerak.[3.90b.] O‘quvchilar vatanimizning tabiiy boyliklaridan odamlar o‘zlarining mehnat faoliyatida qanday foydalananotganliklari bilan tanishishlari lozim. Bunda bolalarga odamlar mehnati atrof tabiat bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatish g‘oyat muhimdir.

Shu talablarga ko‘ra kichik yoshdagи o‘quvchilarga:

- jonli va jonsiz tabiat haqida aniq ma’lumot berish;
- odam organizmi va salomatligini saqlash to‘g‘risida ma’lumot berish;
- tabiatda kuzatishlar o‘tkazish o‘quvi va ko‘nikmalarini bilan qurollanish;
- tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko‘paytirishga qaratilgan insonning mehnat faoliyatini o‘rgatish;
- jonajon tabiatga muhabbat, uni muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash.

Matematikani tabiatshunoslik darsi bilan bog‘liq holda o‘qitish jarayonida dunyonи milliy materialistik tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga insonparvarlik munosabatini, vatanparvarlikni va go‘zallikni tushuntirishni tarbiyalash kerak.[2.89b.]

O‘quvchilarga bilimni bayon qilish metodlari ham tarbiyaviy ahamiyatga ega, o‘quvchilarning barcha faoliyatları bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘liqdir. Matematikani tabiatshunoslik darsi bilan bog‘liq holda o‘qitishda og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy va boshqa metodlardan foydalaniladi.

O‘qituvchisi ekologik ta’lim-tarbiya haqidagi bilimlarni jamiyatimizdagi har bir insonning hayot va mehnatidagi ulug‘vor kuchini chuqur anglashi, bunga ishonch hosil qilishi lozim[3.113b.]. Shunday ishonchni o‘quvchilarda tarbiyalashi zarurdir.

Bu ta’lim yosh avlodni tabiatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga olib keladi: unga nisbatan ta’sirchan muhabbatni tarbiyalaydi, tabiat chiroyini idrok etishdan uni qo‘riqlash, asrash, tabiat inomlaridan oqilona foydalanish, ana shu boyliklarni o‘z qo‘llari bilan yaratish va ko‘paytirishga o‘rganadi.

Matematikani tabiatshunoslik darsi bilan bog‘liq holda o‘qitish bo‘yicha mashg‘ulotlarni sinfdan va matabdan tashqari tadbirlar: ochiq havodagi o‘yinlar, o‘lkashunoslik ekskursiyalari, yurishlar bilan chambarchas bog‘lamoq zarur.[2.103b.]

Bularning hammasi o‘qituvchiga matematikani tabiatshunoslik darsi bilan bog‘liq holda o‘qitish bo‘yicha o‘quvchilar bilan shug‘ullana borib, ularni faqat yaxshi bilim olishgagina emas, balki ular shaxsini shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishga ham imkon beradi.[2.38b.]

Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish elementlaridan biri o‘quv fanlarini ekologiyalashtirish, o‘quvchilarni inson bilan tabiatning o‘zaro ta’sirini, bugungi kundagi ekologik fojianing oqibatlari va ziddiyatlarini anglash hamda tushunishga, ularni sayyoramiz miqyosida fikr yuritishga o‘rgatishdir.

O‘quvchilar matematikadan faqat dastur materiallarini o‘zlashtiribgina qolmay, atrof-muhitni, hodisa va jarayonlarni kuzatishga, solishtirishga, fikrlashga, o‘z xulosalarini asoslashga, matematik til bilan so‘zlashishga urinishlari kerak. Didaktik o‘yinlar darsda ishni individuallashtirish, har bir o‘quvchining kuchiga mos topshiriq berish, uning qobiliyatlarini maksimal o‘stirish imkoniyatini beradi. O‘yin orqali o‘quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, ularni hayotga tatbiq eta olishga tayyorlanadilar. Birinchi sinf o‘quvchilariga 11 dan 20 gacha bo‘lgan sonlarni o‘rgatish jarayonida topishmoqli o‘yinlardan foydalanish o‘rinlidir:

Sulton tutdi 13 cho‘rtan

A’zam tutdi 4 sazan,

Karim tutdi 2 laqqa

Necha baliq chiqdi qirg‘oqqa? (19 ta baliq).);

Bu topishmoqning javobini bolalar topishadi. Topgan bolalar rag‘batlantiriladi.

Bolalardan so‘raladi:

- Baliq qayerda yashaydi?
- Siz baliqning suzganini ko‘rganmisiz?
- Baliq nima uchun tutiladi?
- Qachon baliqlarni tutish mumkin?

Bolalar savollarga birin-ketin javob berishadi. Bolalar qiyinalishsa, o‘qituvchi yordamlashadi.

2-sinf o‘quvchilariga ko‘paytirish va bo‘lish mavzularini o‘rgatish jarayonida “To‘g‘ri taqsimlash” o‘yinidan foydalanish mumkin.

O‘yinning maqsadi: o‘quvchilarning olgan bilim va ko‘nikmalarini tizimlashtirish, og‘zaki hisoblash malakalarini, fikrlash qobiliyatini o‘stirish, tabiatni muhofaza qilish haqidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish.

Jihozlar: gul va kapalak rasmlari.

O‘yinning borishi: Xattaxta yoniga bir o‘quvchi chiqariladi. O‘quvchi magnitli xattaxtaga 4 ta gul yopishtiradi va har bir gulga 3 tadan kapalak yopishtiradi. So‘ngra ko‘paytirish va bo‘lish amallari orqali ifodalab beradi. O‘yinda 2-3 o‘quvchi xattaxtaga chiqarilib, ularga turli xil o‘yinlar taqsimlab beriladi. Xattaxta yoniga chiqarilgan o‘quvchilarning ishi bolalar tomonidan kuzatiladi. To‘g‘ri taqsimlagan o‘quvchilar ragbatlantiriladi. So‘ngra o‘quvchilar bilan ishkomdagi uzumlar, olma shoxlaridagi mevalar, polizdagи qovun-tarvuzlar haqida suhbat o‘tkaziladi. Bolalar o‘zлari kuzatgan daraxt shoxlaridagi mevalarning taqsimlanishi haqida fikrlaydilar. Bu esa bolani tabiatga bo‘lgan qiziquvchanligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbanov A., O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish.T.: “Iqtisod moliya”, 2009.
2. Jumayev M.E., Tojiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T., 2002.
3. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. T., 2005 yil.

**O‘QISH SAVODXOLIGI DARSLARIDA BADIY ASARLAR TAHLILIDA
INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING
AFZALLIKLARI**

*Shodiyeva Jamila Xolboyevna
SVPYMO‘MM o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflar ona tili va o‘qish savodxoligi darslarida innovatsion texnologiyalar o‘quvchi ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ijodkorlik, muloqot, ta’lim –tarbiya jarayonida ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshirish, o‘zaro hamkorlikda ishlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiya, o‘qituvchi, o‘quvchi, dars, o‘zaro hamkorlik, mustaqil fikr, pedagogik texnologiya.

Mamlakatimiz taraqqiyoti bugun maktablarda ta’lim –tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib yetishishlariga bog‘liq. Bu ma’suliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o‘qituvchisi, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan o‘z mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg‘or fedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to‘g‘ri anglashlari va uni o‘z darslarida mohirona foydalanishlarini taqazo etadi. Bugungi ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunnig muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashini

o‘sirish, ularni erkin fikrlaydigan, erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir.

Xususan, hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kuchaygan. Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi uchun aholi ta’limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg‘or pedagogik tadbirdardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda. Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

O‘quvchilarning ongi, fikrlashi, dunyoqarashlarini o‘sirish, ularni erkin ishtirokchiga aylantirish juda muhimdir. O‘qituvchi dars jarayonida boshqaruvchi, o‘quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog‘i zarur. Mana shunday vazifani bajarishda innovatsion faoliyat samara beradi.

Innovatsion texnologiyalardan ona tili va o‘qish savodxoligi jarayonida qo‘llashning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdag‘i faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. Innovatsion texnologiyalardan ona tili va o‘qish savodxoligilarida foydalanish ta`lim samaradorligini oshirishda quyidagi ta’limiy tarbiyaviy afzalliliklarga ega: axborotning xilma-xilligi, matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi; “Inson-kompyuter” interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng bo‘ladi va undan har tomonlama axborotlarni oladi; o‘quvchilarning ta`lim olishida ijodiy munosabatni uyg‘otadi va bu ularda ishonchni shakllantiradi. O‘quvchilar tafakkurini faollashtiradi ; o‘z –o‘zini namoyish etish imkonini beradi; turli fikr va mulohazalarga diqqatini jalb qilishni o‘rgatadi; yangi fikr va mulohazalarni bildirishga va o‘zlashtirishga ruhan tayyor bo‘ladi.

O‘qish savodxonligi darslarida ko‘proq o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashiga e’tibor qaratilgan. Lekin ayrim holatlarda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga, mustaqil fiklashni rivojlantirishga mone’lik qilayotgan omillar ham uchrab turadi.

Jumladan, ko‘p hollarda o‘qish savodxonligi mashg‘ulotlarida ta’lim metodi, usuli va vositalarining noto‘g‘ri tanlanganligidir.

Aynan hozirgi darsliklar milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan bo‘lib, berilgan topshiriqlar ko‘proq o‘quvchi o‘zi mustaqil harakat qilish asosida bajarish lozimligi aytilgan. Lekin ayrim holatlarda biz kutgan natijalar kuzatilmayapti. Ya’ni, o‘quvchining mustaqil harakatida sustkashliklar kuzatilmogda.

Shuni unutmaslik lozimki, ona tili mashg‘ulotlarida bolaning ijodiy fikrlash, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishiga ko‘makiashadigan so‘zlarni kuzatish, qiyoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullaridan foydalanilmas ekan, ta’lim samaradorligiga umid bog‘lash qiyin.

O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchining o‘zi mustaqil izlanib, qoida va xulosalar hosil qilmas ekan, bu qoida va xulosalarning o‘quvchiga hech qanday foydali jihat yo‘q. Shuning uchun mashg‘ulotlarni deduktiv (umumiyligidan xususiylikka) emas aksincha induktiv (xususiylikdan umumiylikkha) usulida amalga oshirish zarur. Bunda o‘quvchiga o‘xshash hodisalar berilib, undan o‘xshash hodisalardagi umumiylikni ajratish va hodisalar sirasini davorn ettirish talab etilsa samara tamoman boshqacha bo‘ladi. Birinchidan, umumiylikni hosil qilishda bolaning mehnati singadi, hosil qilingan umumiylik bolaning faoliyat samarasiga aylanadi (o‘yaydi, izlanadi, farqlaydi, xulosa chiqaradi). Shuning uchun bu umumiylik o‘quvchining shaxsiy mulki sifatida abadiy uniki bo‘ladi va unutilmaydi. Berilgan hodisalarni davom ettirish talabi esa hosil qilingan umumiylikni amaliy tatbiq bilan mustahkamlaydi. Umumiylikning xususiy voqealanishi cheksiz bo‘lganligi sababli, bunday faoliyat o‘quvchini doimiy shakllanishga, rivojlanishga undaydi.

O‘quvchining o‘qish savodxonligi darslarida samarali ta’lim olishlari va ularning so‘z biyligini oshirishda ularning intellektiga ham alohida e’tibor qaratish yuqori natijani ta’minlaydi. Biz o‘quvchilarimizga bilimni yodda saqlashni emas, balki olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish va hayotlari davomida samarali foydalanishga e’tibor qaratishimiz kerak.

Bu jarayonlarning natijasiga osonroq erishishda har-xil didaktik materiallarni qo‘llash ham ijobiy natija beradi.

Masalan: “Doirada berilgan harflar asosida so‘z tuz“ o‘yini. O‘quvchilarda doira ichida 9 ta harf taqdim etiladi. O‘quvchilar shu harflar ishtirokida so‘zlar hosil qiladilar. Berilgan vaqtda ko‘p so‘z hosil qilgan guruh yoki o‘quvchi g‘olib sanaladi. Bu o‘yinni ayniqsa unli va undosh tovushlarni o‘rgangandan keyin o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Agar o‘quvchilar e’tiboriga i, l, a, f, k, t harflari berilgan bo‘lsa ,ular bu harflarni qatnashtirib, il, aft, tilak, kaft kabi so‘zlar hosil qiladilar.

“Talaffuzda adashmang” o‘yini. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga tayyorlangan video orqali x va h yoki f va p tovushlari ishtirok etuvchi so‘zlardan aytishini topshiradi. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib topshiriqni bajarishi mumkin. Shunda kim so‘zni noto‘g‘ri aytsa o‘yindan chiqadi. Mavzu asosida so‘zni aytgan o‘quvchi shu so‘zni sinf taxtasida yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi.

Masalan: Hil-hil, xil-xil, ham-xam, xush-hush, soh-shox, top-tob, tang-tank

So‘zlar lug‘ati tuzilgach, topilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish topshirig‘i beriladi.

“So‘zdan so‘z yasash” o‘yini.

oy	osh	ol
soy	tosh	bol
.oy	.osh	.ol

“Yoqimli va yoqimsiz so‘zlar ”o‘yini.O‘qituvchi 1-guruh o‘quvchilarga ota-onan tomonidan kichik yoshdagi bolalarga yoqimli so‘zlar ilan murojaat qilishi yoki erkakovchi so‘zlarni, 2-guruhga esa tanbeh berish yoki dangasa bolalarni koyishni ifodalovchi so‘zlarni ro‘yxat qilishni topshiradi. Yoqimli, erkativchi va tanbeh, koyishni ifodalovchi so‘zlarni ko‘p topgan guruh g‘olib sanaladi.

Masalan: Erkalashni ifodalovchi so‘zlar; oppog‘im, do‘mbog‘im, toychog‘im, qo‘zichog‘im, ko‘zmunchog‘im, shirinim,....

Koyishni ifodalovchi so‘zlar; dangasa, ishyoqmas, landovur, lapashang,....

“T” -, +” metodi. Bu metodda o‘rganilayotgan mavzuning tahlilida qo‘llash yaxshi natija beradi.

Zumrad va Qimmat ertagi

Zumrad	
+	—
Muloyim	Juratsiz
Chiroyli	Qo‘rqoq
Mehatkash	Himoyasiz
Aqli	Mustaqil fikr bildira olmaydi
Odobli	Bo‘ysuuvchan
Ozoda	Ojiz

Matnda berilgan obrazlarning “+” va “-” tamonlari tahlil qilinadi

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf ta’limida o‘qish savodxoligi mazmunini yanada boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim. Ular ta’lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga mustahkam didaktik asos bo‘la oladi va ularni dars mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o‘ziga xos innovatsion jarayon bo‘lib, bunda o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta’lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Shukurova M. Mahoratlari pedagog T.:Pedagog, 2020 yil
2. Azimova I., Mavlonova K., Qur'onov S. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma T.: 2021 yil
3. G‘ulomova M.X Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshiris usullari // Innovatsiya o‘quv jarayonida (tezislar to‘plami).-T.: 2020

4. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: 2017 yil
5. Mavlonova K. va boshqalar Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-qism. Darslik. 2-sinf uchun - Toshkent: Respublika ta`lim markazi, 2021 yil.

6-YO‘NALISH

YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KITOB VA MUTOLAANING AHAMIYATI

BOSHLANG‘ISH SINFLARDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

*Sharof Rashidov nomli Samarqand davlat universiteti
Pedagogika ta’limi fakulteti
Allayorova Nilufar Yaxshinorovna
Nematillayeva Jasmina Sarvar qizi*

Kitob o‘qish – inson tafakkurining ozuqasidir.

(Shavkat Mirziyoyev)

Insonning ma’naviyati, uning mustaqil dunyoqarashi, mustahkam e’tiqodi, ijtimoiy faolligi, jamiyat va tabiat oldidagi yuksak axloqiy mas’uliyatini chuqr anglab yetganligi to‘g‘risida so‘z borganda barkamol shaxslar nazarda tutiladi. Bu tushuncha uning shaxs sifatida o‘zligini anglash, o‘zi va insoniyat oldida fuqarolik mas’uliyatini chuqr his etish fazilati bilan uzviy bog‘langandir.

Yoshlarni iymonli-e’tiqodli, milliy g‘oyaga sadoqat, bir-biriga mehr oqibatni, o‘z Vataniga, millati, dini, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir. Shaxsni har tomonlama barkamol, aqlan yetuk qilib tarbiya toptirishda kitobning o‘rni beqiyosdir. Kitob dilni poklovchi, rujni oziqlantiruvchi malhamadir. Kitobga mehrsiz odam tuzalmas bemorga o‘xshaydi. Kitob shunchalik quvvatga egaki, bejizga donishmandlarimiz oftob misol ko‘nglimizga iliqlik, ezgulik baxsh etishni, bilim berishni, ma’naviy boyitishni, ruhiy quvvatlantirishni, yo‘limizni mash’aladek yoritishni kitobchalik boshqa hech narsa bera olmasligini hayotiy hikmatlarda bot-bot takrorlab o‘tishmagan. Yurtimizning barcha sohalarida, ta’limning barcha bo‘g‘inlarida badiiy adabiyotga, kitob o‘qishga bo‘lgan munosabatlarni yuksaltirish maqsadida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlanish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot

qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi⁶ hamda 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlari⁷ kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rnini oshirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi. “Kitob o‘qigan, o‘zini ustida ishlagan odamda qanot bo‘ladi. U befarq bo‘lmaydi. Uning kuchi bilimida bo‘ladi. “Kattalar”ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o‘qinglar deymiz. Kitob o‘qisangiz savol berishni bilasiz”, – deydilar o‘z nutqlaridan birida Prezidentimiz. Kitob haqida Muhammad Jabalduriy quyidagi fikrlarni keltirgan: “Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo‘qdir. Kitob fasohat, balog‘atga tengi yo‘q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg‘izlikda va g‘amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq bor-u, na gina. U shunday hamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o‘z do‘sining dilini og‘ritmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar, suhbatidan zarar yetadi. Kitobdek do‘st ichida barcha ilm-u hilm mujassamdirki, u kishilarni o‘tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham kitob “Aql qal’asidir”⁸. Darhaqiqat, kitob mutolaasi insonni o‘zini anglashga, borliqni tushunishga, umuman aytganda, sehli olamga olib kiradi. Inson uchun kundalik ehtiyoj sanalgan suv qanchalik zarur ekan, kitob ham inson hayotida xuddi shunchalik zaruratga aylansagina komillikka yetishishimiz shubhasiz. 2022-yilda I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. M.Karimovalar tomonidan tuzilgan “Ona tili va o ‘qish savodxonligi” darsligida⁹ “Kitobdan yaxshisi yo‘q”

⁶ Mirziyoyev Sh. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017-yil 12-yanvar. lex.uz.

⁷ Mirziyoyev Sh. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida” Qarori. 2017-yil 13-sentabr. Lex.uz.

⁸ Mashriqzamin-kikmat bo’stoni. –T: Sharq, 1997, 39-bet.

⁹ Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., va boshqalar. Ona tili va o ‘qish savodxonligi/ Darslik (2-qism). T: Respublika ta’lim markazi. 2022, 88-bet.

bo‘limi berilganki, bu bo‘limda o‘quvchi “Kitob kompyuterdan yaxshi” audiomatni, kitobga doir maqol va topishmoqlar, she’r hamda “Kitobning mag‘zi” rivoyati bilan tanishib boradi. O‘quvchining audiomatnni eshitishi orqali tinglab tushunish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi, maqol, topishmoq va she’rlar oqali xotirasi mustahkamlanadi hamda nutqi rivojlanadi. “Kitobning mag‘zi” rivoyati orqali o‘tmish bilan tanishadi, kitob o‘qimaydigan, ilm olishni istamaydigan shoh haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Ya’ni qadimda bir shoh kitobga qiziqmaganidan otasidan qolgan buyuk kutubxonadagi kitoblar mag‘zini bir olimga jamlab kelishini buyuradi. Olim bir necha yil shogirdlari bilan kitoblar mag‘zini 500 ta kitobga jamlaydi. Bu vaqtda shoh ancha ulg‘ayib qolgan ekan, shuncha kitobni o‘qishga fursati yetmasligini aytibdi va olimga kitoblar mag‘zini yanada ixchamlashtirishni aytibdi. Olim kitoblarini olib kelganda shoh qarib qolgan ekan. Umrimda biror marta kitob o‘qimagan bo‘lsam, qisqa fursatda 50 ta kitobni o‘qirmidim” deb olimga kitobni bitta kitobga jamlashni buyuribdi. Olim yana bir necha yil ter to‘kib, shohning buyrug‘ini bajaribdi. Lekin shoh shu paytda o‘lim to‘shagida yotgan ekan. Shoh olimdan kitobning mazmunini qisqa qilib aytib berishini so‘rabdi. Olim esa: “Inson dunyoda ilm olish uchun kelar ekan” deya qisqa javob beribdi. Qissadan hissa shuki, bugungi kunda har bir bir inson ilm olishi, kitob o‘qishi lozimligi bayon qilingan. Shuningdek, “Kitobxon bolalarga 9 tavsiya” deb nomlangan tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitobxon o‘quvchi qilib tarbiyalashimizga zamin bo‘lib xizmat qiladi:

Kuniga bir soatni kitob o‘qishga ajrating. Har kuni kamida bir soat kitob o‘qishni o‘zingiz uchun vazifa qilib oling. Shu tarzda kitob o‘qish tezligingiz oshib boradi. Sekin-asta kunlik kitob o‘qish soatini ham oshirib borish mumkin.

O‘zingizga yoqadigan qulay joyda mutolaa qiling. Yotib o‘qimaslikka harakat qiling – ko‘zingiz charchaydi. Kitobni ko‘zingizdan 30-40 santimetr uzoqlikda tuting. Kitob tanlashda matnning hajmi, shrift o‘qishga qulay ekaniga e’tibor qarating.

Mutolaaga eng qulay vaqtini tanlang. Uxlashdan avval kitob o‘qish tavsiya qilinmaydi kun davomida turli axborotlarni qayta ishlagan miyangiz kechqurun biroz

toliqishi va ma’lumotni yaxshi qabul qilmasligi mumkin. Erta tongdagi mutolaa esa juda foydali. Yaxshi dam olgan miyangiz axborotlarni oson qayta ishlaydi va uzoq vaqt qoladi.

Kitobdan olgan eng yaxshi fikr va ma’lumotlaringizni yozib boring. Ba’zilar bunda kitobning o‘ziga chizish yoki bo‘yashdan foydalanadi. Unday qilmang – sizdan keyin ham birov o‘qishi mumkin. Alohida daftar tutib, unda yozib borsangiz foydaliroq. Mutolaadan so‘ng kitobdan olgan xulosangizni ham qayd eting.

Qo‘lingizga tushgan har qanday kitobni o‘qiyvermang. Yaxshi kitobni tanlay olishni ham o‘rganing. Avvalo ota-onangiz, ustozlaringizdan tavsiya oling. Yoshingizga qaysi biri mos, foydali ekanini ular yaxshiroq bilishadi. Tavsiyalar asosida o‘qishingiz kerak bo‘lgan kitoblar ro‘yxatini tuzib oling. Reja asosida mutolaa qiling.

“To‘g‘ri o‘qish” tez o‘qib tugatish degani emas. Muhimi – tushunib o‘qish. Yaxshi o‘quvchililingiz sahifasi ko‘p o‘qishingiz bilan emas, qanchalik tushunishingiz bilan o‘lchanadi.

Hadeb bir xil mavzudagi kitoblarni o‘qiyvermang. Bir marta sarguzasht qissa o‘qisangiz, keying safar tarixiy asar o‘qing. Ilmiy adabiyotlar, axloqiy kitoblar ham foydali. Shunda dunyoqarashingiz kengayadi.

Kitob yoqmasa, o‘qimang. Kitob yoqmadimi, miyangiz qabul qilmayaptimi – davom ettirmang. Yoqtirmagan kitobingizni o‘zingizni majburlab tamomlashingiz kerak emas. Muhimi – o‘zingizga foydali va tushunarli kitobdan zavq olish.

Mo‘jazgina kutubxona tashkil eting. O‘n dona kitobdan iborat bo‘lsa ham, shaxsiy kutubxonaga ega bo‘lish qanday yaxshi! Aytgandek, o‘z ismingiz yoki kutubxonangizning nomi qayd etilgan muhrda buyurtma berishingiz ham mumkin. Kutubxonangizdagi kitoblarda ana shu muhr bo‘ladi.

Iinson uchun o‘qiyolmay qolish bu – fojia, bu – jaholat demakdir. Global muammolarga yechim topish uchun ham boshlang‘ich sinf maktab darsliklarida turli yo‘nalish va mavzularda ma’lumotlar berilganki, bular orasida kitobxonlikni targ‘ib qilinishi bejiz emas. Kitob o‘qilmay qo‘yilsa, global muammolardan biri bo‘lgan

savodsizlikka yo‘l ochiladi, savodsizlik esa katta parokandalik demakdir. Shuning uchun ham kitobni yaxshilik va yorug‘lik, ma’rifatga eltuvchi kelajak yo‘li deb e’tirof etsak, mutolaaga ana yo‘lni yorituvchi mayoqdir deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017-yil 12-yanvar. lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida” Qarori. 2017-yil 13-sentabr. Lex.uz.
3. Mashriq zamin-hikmat bo‘stoni. –T: Sharq, 1997, 39-bet.
4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., va boshqalar. Ona tili va o ‘qish savodxonligi/ Darslik (2-qism). T: Respublika ta’lim markazi. 2022, 88-bet.

O‘QUVCHILARNI KITOBXONLIK VOSITASIDA MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH

*Maxkamova Lobar Akbarovna
Narpay tumani 50-maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarni kitobxonlik vositasida ma’naviyatini shakllantirishda, ularda kitob o‘qish ishtiyoqini hosil qilish, kitob tanlash, kitob o‘qishni kuzatib, nazorat qilib borish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kitob, kitobxonlik, o‘qish, dunyoqarash, ma’naviyat, ekspertiza, qadriyat, lug‘at.

Kitobxonlik insonni ma’naviy boyitib, uni ma’rifiy kamolot sari yetaklaydi. Zero, insonning shaxs sifatida shakllanishi ma’naviy tafakkur ildizining qanchalik chuqur va mustahkamligiga bog‘liq. Bu mustahkamlik esa kitob o‘qish, o‘qigan kitobining eng muhim nuqtasini ilg‘ab olishdan iboratdir.

Kitob yosh avlodga ta’sir etishning eng qulay vositasidir, u inson his-tuyg‘usiga, axloqiga, hatti-harakatiga, dunyoqarashiga ta’sir etadi, ayniqsa, o‘quvchi yoshida, ya’ni uning shakllanish davrida alohida mavqega ega. Badiiy adabiyot, turli fanlarga doir qiziqarli kitoblar, lug‘atlar, ma’lumotnomalar bolalar ma’naviyatini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirishda ota-onal bilan bir qatorda o‘qituvchi ham ta’sir etishi mumkin. Agar o‘qituvchi bolalarga o‘ziga ishonch ruhini singdira olsa, bu uning katta g‘alabasidir. Kitobxonlik – ana shu ishonch tuyg‘usini uyg‘otuvchi muhim vosita. Kitobxonlik o‘quvchilarning boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishidagina emas, umuman shaxs sifatida shakllanishida ham katta ahamiyatga ega. Lekin bunda faqat o‘quvchini aqliy shakllantirishnigina hisobga olmay, uning butun ma’naviy qiyofasini o‘zgartirishga ham yordam berishi kerak. O‘quvchilar ma’naviyati bosqichma-bosqich rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli ota-onalar kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e’tibor berishlari lozim:

1. O‘quvchilarda kitob o‘qish ishtiyoqini hosil qilish. Bu masala nihoyatda murakkab bo‘lib, o‘quvchilarning kitobxonlikka bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

Tan olish kerak, o‘quvchilarning bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo‘li ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda o‘qituvchi, uyda ota-onal bolada kitob o‘qish ko‘nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya’ni murakkabligi jihatidan normal, bolaning kamolot darajasiga mos bo‘lgan kitoblar tanlash qo‘l keladi. Sharq mutafakkirlarining tajribasiga ko‘ra, kitobxon (o‘quvchi) qaysi mavzuga qiziqsa shu mavzudagi kitobni taqdim qilish kerak. U kitob o‘qishga ko‘nikma hosil qilgach, asta-sekin unga ixtisoslashgan kitoblar taqdim qilib boriladi.

2. Kitob tanlashda o‘quvchining ma’naviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning o‘quvchida kitob o‘qish ko‘nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlab berishdir. Ularning saviyasiga mos bo‘lgan adabiyotlarni keng targ‘ib qilish o‘quvchilarni jamiyatning munosib fuqarosi, shiddat bilan rivojlanib borayotgan

davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo‘lib yetishishi uchun va ma’naviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi.

Kitob tanlashda o‘quvchining ma’naviy darajasini hisobga olish birmuncha murakkab omildir.

Kitob tanlashda o‘quvchining ma’naviy darajasiga tayanish uning intellektual o‘sishiga olib keladi. Kitob tanlashda o‘quvchining yosh xususiyatini hisobga olish o‘quvchining psixologik o‘sishiga olib kelsa, ma’naviy darajasini hisobga olish esa intellektual rivojlantiradi.

3. Kitob tanlashga ixtisoslashish. O‘qituvchi, ota-onasi o‘quvchini kitobxoniga aylantirib borishda uni ixtisoslashtirib borish yo‘lini tutishi kerak. Bu borada ham eski texnologiya – o‘quvchi yuqori sinfga o‘tganda ixtisoslashtirish kerak, degan fikrdan voz kechish lozim.

Aksincha, dastlabki bosqichlardanoq o‘quvchining ma’naviy dunyosi, tarbiya muhiti, qiziqishi, dunyoqarashi va psixologik xususiyatlari hisobga olinib, ixtisoslashtirilib borilishi kerak.

4. Kitobni ekspertizadan o‘tkazish. Jamiyatimiz erkinlashib, demokratlashib borgan sari kitob nashr etish ishlarida ham erkinlik yuzaga kela boshladi. Tabiiyki, bu hol turli saviyadagi kitoblarning nashr etilishiga sabab bo‘lmoqda. Shu ma’noda ota-onasi bola uchun kitob tanlayotganida kitobning ma’no-mazmuni, uslubiy jihatdan mutaxassis ko‘rigidan o‘tkazib olishi maqsadga muvofiq. Bunday qilish tarbiyaning asosiy yo‘nalishlaridan chalg‘imaslikka, o‘quvchi ma’naviy dunyosining to‘g‘ri shakllanishiga va qo‘yilgan maqsadga erishishiga olib keladi.

5. Kitob o‘qishni kuzatib, nazorat qilib borish. Bugun ota-onalar tarbiya jarayonining natijasi bo‘lgan kitobxonlik bilan ko‘proq qiziqishi kerak. Shu ma’noda o‘quvchilar kitobxonligini monitoring qilib borish maqsadga yetishning samarali jihatlaridan biridir. Monitoring, kitobxonlik yuzasidan test sinovlari, kitobxonlik kechalari, muloqot, davra suhbatlari, turli mavzularda munozaralar, ilmiy-amaliy anjumanlar, suhbatlar va analistik tekshiruvlar vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Kitobxonlik kitobni targ‘ibqilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zinichaqishni, ya’ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish.

Kitobxonlik qobiliyati tug‘ma emas, u insonning o‘z ustida ishlashi orqali, tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik bu ijodiy mehnat. Buyuk mutafakkir olimlar, fan va madaniyat arboblari avvalambor iste’dodli kitobxon ham bo‘lganlar. O‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirishda kitob kuchli vosita bo‘la oladi.

Kitob mutolaasidan o‘tgan inson, undan o‘ziga xulosa chiqaradi. Natijada o‘z bilimini, dunyoqarashini kengaytiradi, bilimli, savodli, madaniyatli, jismonan baquvvat, ma’naviy yetuk, ruhan tetik va e’tiqodi mustahkam inson bo‘lib yetishadi. Afsuski, aksariyat maktab kutubxonalari kerakli kitob jamg‘armasiga ega emas. Ularda faqat darsliklar, turli qo‘llanmalar va badiiy kitoblargina bor xolos. Vaholanki, bugungi sharoitda bugungi mashg‘ulotlar – yangi adabiyotlar, vaqtli matbuot nashrlari, lug‘atlar, turli qomuslardan ham foydalanishni taqozo etadi. Ayniqsa, hozirgi kunda kitobxonga uning ruhini boyitadigan badiiy kitoblar, uning tafakkurini charxlaydigan ilmiy risolalar, O‘zbekistonning tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlariga oid kundalik hayotda unga yordam beradigan qo‘llanmalar zarur. Chunki, o‘quvchi darslikdan bilib olganlarini qo‘srimcha adabiyotlar mutolaasi orqali mustahkamlasa, uning dunyoqarashi keng, bilimi yanada teran bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ota-onan birinchi navbatda bolalarga kitob tanlashda yordam berishi zarur. Bu borada faqat badiiy asargina emas, o‘quvchi dunyoqarashini kengaytiradigan qiziqarli ilmiy-ommabop kitoblar ham, turli ma’lumotnomalar ham muhim rol o‘ynaydi. Albatta, bu ishda bolalarning inganvidual qiziqishlarini ham hisobga olish zarur. Yosh avlodning ma’naviy kamol topishi, ular ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishda oila ham mas’uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiya qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishida qilgan ma`ruzasi. T.: 2016 yil
2. Shodmonova Sh.S. Oilada va maktabda kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari. Toshkent, 2001.

O‘QUVCHILARNI KITOBSEVARLIKKA O‘RGATISHDA KUTUBXONACHINING O‘RNI

*Xudayqulova Zarina Mamarashitovna
Jomboy tumani 19- maktab o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitobga bo‘lgan mehrini oshirishda kutubxona va kutubxonachining o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, kutubxona, kitob, kasb, hamkorlik

Bugungi kunda kitobxonlik va mutolaa masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Har bir ta’lim maskanida kitobxonlikka alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kutubxona-g‘oyalar maskani. U yerda saqlanayotgan har bir kitob ilm ummonidan bir zarra. Qadimgi qo‘lyozmalarning, bosma kitoblarning, tarixiy shaxslar haqidagi manbalarning bizgacha yetib kelishida kutubxonaning alohida o‘rni bor.

Prezidentimizning 2019 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori kitob o‘qish madaniyatini shakllantirishga, kutubxonalar faoliyatini tubdan takomillashtirishga, kutubxonachilarining mehnati e’tirof etilishiga zamin yaratdi. Ushbu qaror biz, kutubxonachilar bilan bir qatorda aholini ham quvontirdi.

Insonni kasb tanlashga yo‘llovchi asosiy omillar - bu jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilish istagi va shaxs sifatida komillikka erishishdan iborat. Shaxsning kasb tanlashi faqatgina uning xohishi va qobiliyatiga bog‘liq bo‘imay, balki u yashaydigan jamiyatdagi erishilgan moddiy va ma’naviy sharoit, yutuqlar bilan ham belgilanadi. Biz har doim ham o‘z iste’dodimizga muvofiq keladigan kasbni tanlay olmaymiz,

ba’zan jamiyatdagi munosabatlarimiz bizga bog‘liq bo‘lmagan holda shunday shakllanib boradiki, natijada biron bir ta’sir ko‘rsatishga ojiz bo‘lib qolamiz.

Umumta’lim maktablari kasb-hunarga yo‘naltirish ishining maqsad va vazifasi shu hudud ehtiyoji uchun zarur kasblarga kasb- hunar kollejlari va kasb- hunar maktablarining mavjud soha yo‘nalishlariga, a’quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tavsiya berishdan iborat.

Buni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa kasb-hunarga yo‘naltirish tizimidagi turli yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan ishlarning sifatiga bog‘liqdir.

Ushbu yo‘nalishlarda ta’lim tiziminining muhim tarbiyaviy va ta’limiy bo‘g‘ini bo‘lmish maktab kutubxonalari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Kutubxonalarda kasblar to‘g‘risida axborot berish o‘quvchilarni turli xil mehnat turlari, kasblar shajarasи, kasblarning o‘ziga xos xususiyatlari, xalq xo‘jaligi, jumladan, ular yashayotgan hududning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlar bilan tanishtirishni o‘z ichiga oladi. Kasblar haqida tartibsiz ma’lumot bermaslik uchun o‘quvchilar oladigan bilimlarni ma’lum bir tizimga solish lozim. Kasblar haqida axborot berish o‘quvchiiarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.

Kutubxonada yuqorida olib borilayotgan ishlar kichik yoshdanoq o‘quvchilarning mehnat tarbiyasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, ko‘pchilikning ya’ni, ota-on, o‘qituvchi, kutubxonachining hamkorlikdagi faoliyatiga bog‘liq. Kutubxonachi shoir va yozuvchilarning kasblar haqidagi asarlaridan foydalanadi. Bolalar ko‘pincha ilk mehnat ko‘nikmaiarini oilada oladilar, lekin ba’zi oilaiarda mehnatga, ayniqsa jismoniy mehnatga loqaydlik bilan qaraydigan dangasa, ishyoqmas bolalar ham uchraydi, ular shoir va yozuvchilar tomonidan qattiq tanqid ostiga olinadi. Bola qiladigan mehnatining maqsadini, ahamiyatini yaxshi bilsa, tushunsa, mehnatga qiziqishi, intilishi kuchli bo‘ladi. Shundagina bola bu ishni bajonidil bajaradi.

Men faoliyat olib boradigan maktab kutubxonasida ham o‘quvchilarni kitobga qiziqtirish uchun turli xil kechalar tashkil qilinad. "Men o‘qigan sevimli kitob", "Kitob bilim bulog‘i", "Kasb tanlashda kitobning o‘rni", "Men sevgan qahramon"

hamda bayramlarga atab, "Til dil -ko‘zgusi", "Yangi yida yaxshi niyatlar", "Men hamharbiy bo‘laman", "Men tanlagan kasb", "Onalar uyimiz-chirog‘i", "Buyuk Temur avlodlarimiz" kabi tadbirlar va yana 9-may xotira kuniga "Siz ulashgan yorug‘ kun" nomli mavzularda bayram tadbirlari tashkil etib kelinadi. Bu o‘tkazilgan musobaqa va tadbirlarimiz albatda o‘sib kelayotgan yosh avlodni kitobga bo‘lgan mehrini yanada oshirisb boradi.

Yuqori sinflarga esa ularning kasb tanlashlari uchun turli xil kechalar tashkil etish ham maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

Shuningdek, yana turli kasb egalari bo‘lgan ota-onalar bilan uchrashuvlar o‘tkazish o‘quvchilarning kasb tanlashlarini ham osonlashtiradi, ham tezlashtiradi. Chunki uchrashuvda ota-onalar bolalarga o‘zlarining kasblari haqida so‘zlab beradilar. Uchrashuvga atab mehnat va kasblar to‘g‘risidagi adabiyotlar ro‘yxati osib qo‘yishga harakat qilaman bu ro‘yxat orqali o‘quvchilar foydalaniib kitob olib o‘qishga harakat qilishadi.

Kutubxonachi mакtab bilan uzviy aloqada ish olib borar ekan, maktabdagи turli to‘garaklarning ishlari bilan tanishadi, o‘quvchilarni yana qanday maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat ko‘rsatishlarini aniqlaydi. Bunda unga o‘qituvchilar, to‘garak rahbarlari, ota-onalar yordam beradi. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib u o‘quvchilarga o‘zлari sevgan kasblari bo‘yicha kitob, gazeta va jurnal maqolalaridan, internet ma’lumotlaridan, rasmlardan tuzilgan alohida papkalar tashkil qiladi va ularni o‘qish uchun tavsiya etadi. So‘ngra birgalikda “Men kim bo‘lishni xohlayman” nomli munozarali suhbatlar ham tashkiletish mumkin.

Maktab kutubxonasining muhim vazifalaridan biri bu o‘quvchilarning fan asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlarini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy axloqiy fazilatlarni, mehnat qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini, atrof muhitga, jamiyat mulkiga ongli munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini va kasb tanlash, uning yaxshi yomon tomonlari, shu kasbga intilish malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, maktab kutubxona xodimlari hozirgi kun talab ehtiyojlarini e’tiborga olib, axborot makonidan eng kerakli ma’lumotlarni saralash, berish, kutubxonachilik xizmatini integratsiyalashgan asosda tashkii etish, o‘quvchilarni kitobga bo‘lgan mehrini oshirishda kitob targ‘ibotining zamonaviy shakllaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir deb o‘layman.

Foydalanigan adabiyotlar

1. uz/elektron-kutubxona/
2. <http://zarnews.uz/uz/post/kitoblarga-mehrim-ozgacha>.
- 3.<http://uza.uz/uz/science/bolalar-kutubxonasi-chorlaydi>